

MANZURA ISROILOVA

FRANSUZ TILI PUBLITSISTIK  
MATNLARIDA KOMPARATIV  
FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING  
SEMANTIK-STILISTIK  
XUSUSIYATLARI

MONOGRAFIYA



**Kitob quyidagi ko'rsatilgan  
muddatda topshirilishi shart**

**Oldingi foydalanishlar  
miqdori**

--	--

5  
ja  
ning

MANZURA ISROILOVA

**FRANSUZ TILI PUBLITSISTIK MATNLARIDA KOMPARATIV  
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-STILISTIK  
XUSUSIYATLARI**

*MONOGRAFIYA*

Denov – 2025

UDK:811.13.1373.7:801.82:07

BBK 81.2Fr-5

M.J.Isroilova

Fransuz tili publitsistik matnlarida komparativ frazeologik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlari [Matn] monografiya. M.J.Isroilova – Andijon. INNOVATIVE PUBLICATION 2025. -144bet.

**Mas'ul muharrir:**

Karimov Jasurbek

**Taqrizchilar:**

**U.M.Imomova** – p.f.f.d., dotsent, Termiz davlat universiteti Roman-german tillari kafedrasini mudiri

**D.J.Bobojonov** - f.f.f.d., Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasini katta o'qituvchisi

Ushbu monografiyada fransuz komparativ frazeologik birliklarining semantik-stilistik xususiyatlari zamonaviy fransuz tili ommaviy axborot vositalari matnlarida asosida imkon darajasida ilmiy tadqiq qilindi. Monografiya tilshunoslar, jurnalistlar, tarjimonlar, fransuz tili bo'yicha mutaxassislar hamda stilistika va matn lingvistikasi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, frazeologiyaning pragmatik va funksional tahlil yo'nalishiga yangicha ilmiy yondashuvni taklif etadi.

*Mazkur Monografiya Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti yuqori kurslar kafedrasining 2025-yil 26-oktyabrda №3-sonli bayonnoma qarori, institut ilmiy Kengashining 2025-yil 28-noyabrda №4-sonli bayonnoma qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9910-09-531-3

© Isroilova M.

© "INNOVATIVE PUBLICATION" nashriyoti, 2025

## KIRISH

Jahon tilshunosligida frazeologiya jadal rivojlanayotgan fan tarmog'i bo'lib, badiiy, publitsistik matnlardagi frazeologik birliklar semantikasi, ekspressiv vazifalarini hamda kommunikativ-stilistik o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish izlanuvchilarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Frazeologik birliklardan unumli foydalanish orqali nafaqat matnda yoritilayotgan ma'lumotni ixcham shaklda yetkazish, balki qabul qiluvchining ongiga ma'lum ma'noda kommunikativ ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Ommaviy axborot vositalari orqali jurnalistlar ma'lumot uzatish davomida kommunikativ jarayonning ta'sirchanligini oshirish maqsadida lingvistik vosita hisoblanmish komparativ frazeologik birliklardan o'z o'rnida foydalanishi bilan bir qatorda o'quvchini ma'lum xabarga ishonitirishi, shuningdek, ularning ongida obrazli vaziyatni hosil qilgani holda bayonotining to'liq, tushunarli bo'lishiga zamin yaratadi.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda butun olam manzarasini idrok etish uni asosan ommaviy axborot vositalarida yoritish prizmasi orqali amalga oshiriladi. Ulardan eng samaralisi bosma ommaviy axborot vositalari va internetdir. Bosma nashr dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar haqida ma'lumot beribgina qolmay, ularni sharhlab ham beradi. Ushbu talqin asosida inson atrofidagi voqelik haqidagi bilimlarini shakllantiradi. Jurnalist o'quvchilariga yetkazmoqchi bo'lgan voqea-hodisa (axborot) uslubiga mos bo'lgan lingvistik vositalarni saralab, matn ta'sirchanligini oshirishga harakat qiladi.

O'zbekiston o'zining mustaqil, barqaror taraqqiyoti yo'lida barcha sohalarda dunyo bilan hamnafas bo'lishdek vazifani o'z oldiga qo'ygani hech kimga sir emas. Bu borada, hech shubhasiz, insoniyatning bosh omili bo'lmish til masalasi muhim ahamiyatga ega. Hozirda "Mamlakatimiz taraqqiyotining zamini, hech shubhasiz, ilm-fan va innovatsiyalar<sup>1</sup>" ekanligi haqidagi so'zlar mazkur sohadagi ishlar ko'lamini yanada kengaytirish imkonini bermoqda. Bu borada mamlakatimizda xalqaro tillardan biri hisoblangan fransuz tilini o'rganish va bu tilda ijtimoiy,

<sup>1</sup> Sh.M.Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi



siyosiy, iqtisodiy kabi sohalarda berib boriladigan axborotlarni to'liq tushunib tahlil qila olish dunyoqarashini oshirish istagida bo'lgan har bir mushtariylar, til o'rganuvchisi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, fransuz ommaviy axborot vositalari tilida tez-tez ishlatiluvchi komparativ frazeologik birliklar bir matn doirasida bir necha ma'no-mazmun ifodalashi bilan o'quvchidan tahliliy yondashuv asosida matnga e'tibor qaratishni talab etadi. Jurnalist matnda komparativ frazeologik birliklar orqali bermoqchi bo'lgan yashirin ma'noni aniqlash tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolganligi sababli ushbu mavzuni tadqiq etish kechiktirib bo'lmaydigan zaruradir. Zero matn tarkibidagi bu turdagi frazemalarni noto'g'ri talqin qilish ehtimoli uzatiladigan xabarlarining asl mohiyatiga putur yetkazishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 19-maydagi PF-5046-son "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son "Jahon adabiyotining eng sara namunalari o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlar hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion

g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tilshunos olimlar<sup>2</sup> turli tillar materiallari asosida frazeologik birliklar, shuningdek, uning alohida turi bo'lgan komparativ frazeologizmlarning struktur-semantik jihatini o'z tadqiqotlarida amalga oshirganlar. Jumladan, muayyan komponentli frazeologik birliklar<sup>3</sup>, turg'un so'z birikmalarining frazeologik ma'nosi va tuzilishi muammosi<sup>4</sup>, ularning konnotativ

<sup>2</sup> Ротт Э.Х. Компаративные фразеологизмы в русском, немецком и французском языках. Вопросы романо-германского языкознания Челябинск:1967, с 34-45; Назарин А.Г. Роль семантических факторов в формировании и развитии французского языка (на примере компаративных фразеологических единиц) автореф дисс... канд филол наук М.:1968, с 20; Оголицев В.М. Структурные типы компаративных фразеологизмов Новгород 1971, с 319-322; Ройзензон С.Н. Глагольные компаративные фразеологические единицы английского языка и факты реальной действительности. Самарканд:1972, с 29-39; Гаприн С.Г. Компаративные модели компаративной фразеологии. Пермь:1973, с 63-77; Нюнова И.А. Адективные фразеологические единицы со структурой сравнения в современном русском языке. М.: 1975; Gross M. Une famille d'adverbes figés les constructions comparatives en comme, Revue québécoise de linguistique, Université du Québec à Montréal :1984, Vol 13, №2 p.237-269; Gross M. Une famille d'adverbes figés : les constructions comparatives en comme Revue québécoise de linguistique Montréal :1984, Université du Québec à Montréal, Vol. 13, №2, pp 237-269; Srpova M. A propos des locutions comparatives en FLE. P :1991, L'info grammaticale, №48, p14-25; Leroy S. Les constructions comparatives intensives dans Illusions perdues. P :2003, L'info Grammaticale, №99, p. 39-42; Srpová M. Comparaison et métaphores figées en lexicologie pragmatique unilingue et bilingue. Linguistique, 1996, Vol. 32, P 63-78; Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Т.:2005, 352 б.

<sup>3</sup> Холманских И.В. Компаративные фразеологические единицы с компонентом-зоонимом (на материале русского и болгарского языков) автореф дисс... канд филол наук Тюмень: 2000 с 21; Курбонова Г.С. Француз ва ўзбек тилларида ономастик компонентли фразеологизмларнинг миллий-лексоний хусусиятлари. Филол фан. бўйича фал доктори (PhD) дисс Т.: 2019 148-б; Gross M. Une classification des phrases "figées" du français. Le français parlé au Québec, Vol 11, №2, Montréal Université du Québec à Montréal :1982, p 151-185.

<sup>4</sup> Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии, Л.:1963; Рахматуллаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (фразеологик birliklar) полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимлик) Тошкент:1966, Фан, 264 б.; Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. М:1978; Соколова Г.Г. Фразеология французского языка. (Семантический аспект фразеологических единиц). Учеб. пособие М.: 1986, 89 с; Kleiber G. La sémantique du prototype. P. 1990, 199 p; Caws C. G. La locution : recherches lexico-sémantiques en phraséologie diachronique. Vancouver: 1995, The University of British Columbia, 326 p.; Маматов А. Лексик интеграция асосида фразеологизмларнинг шаклланиши. Ўзбек тили ва адабиёти. Ўзб Тошкент 1999, 29-33 б.; Прохорчик Л.А. Просторечие и семантика фразеологизмов. Семантика языковых единиц М: 1998, с 285- 288; González-Rey M. Analyse des caractéristiques des unités phraséologiques. Análisis des discours. Eds. L.G Elduayen, J.C. Marcos, Granada: Editorial Universidad de Granada. 2000. p.119-136; Гак В.Г. Беседы о французском слове. Из сравнительной лексикологии французского и русского языков. М.: 2006, 336 с.; Бушуй А.М. Лексикографические описания фразеологии. Самарканд: 2010, 192 с; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тарқоқиёти. Самарканд: 2013, 166 б.; Рашидова У. Ўзбек тилидаги семантик ибораларнинг семантик-прагматик таҳлили (кўз, қўл ва юрак компонентли иборалар масолида) Филол фан. фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф., Самарканд: 2018. 51 б.

aspekti<sup>5</sup>, fransuz tili frazeologiyasi rivojlanish bosqichlari<sup>6</sup>, siyosiy<sup>7</sup>, yuridik<sup>8</sup> nutqda ishlatilishi masalalari tilshunos olimlar tomonidan atroflicha tadqiq qilingan.

Til elementlari majmui deb tushunilgan frazeologiyaga oid ilk nazariy qarashlar dastlab XIX asming oxirida umumiy tilshunoslikka oid asarlarda tilga olina boshlangan. Jumladan, nemis tilshunosi German Paul<sup>9</sup> soʻz birikmasi tarkibidagi leksemalarning maʼnosi butunlay boshqacha boʻlgan maʼno anglatuvchi muayyan turgʻun iboralarni, ingliz tilshunosi Genri Svit<sup>10</sup> tuzilishi jihatidan toʻgʻri, ammo semantik jihatdan tartibsiz/notoʻgʻri boʻlgan idiomalarni, fransuz tilshunosi Mishel Breal<sup>11</sup> qatʼiyligi va semantik shaffoligi bilan ajralib turadigan soʻz guruhlari (“formules”, “locutions”, “groupes articulés/formules”, “locutions”, “groupes articulés”) mavjudligini koʻrsatadi. Ferdinand de Sossyur “Umumiy tilshunoslik kursi”da oʻzi “tayyor iboralar” deb ataydigan frazeologik birliklarni ham eʼtibordan chetda qoldirmadi. Yana bir fransuz tilshunosi Albert Sesho<sup>12</sup>, oʻz navbatida, birinchi holatda komponentlarning semantik oʻziga xosligini yoʻqotishi, ikkinchi holatda esa saqlanishi bilan ajralib turadigan ikki turdagi frazeologizmlar, soʻz birikmalari va qoʻshma soʻzlar borasida tadqiqot olib bordi.

Frazeologiyaning fan sifatida shakllanishi fransuz-shvetsar tilshunosi Sh.Balli<sup>13</sup> nomi bilan bogʻliq boʻlib, u soʻz birikmalari va frazeologik birliklarga ishora qilib, soʻzlar tarkibida har bir grafik birlik oʻzining asosiy maʼnosi bir qismini yoki hech birini saqlab qolmasa, natijada mazkur elementlarning birikmasi aniq maʼnoga ega boʻlsa, bular qoʻshma iboralar ekanligini aytib oʻtadi. Uning ishlarini

<sup>5</sup> Маматов А.Э. Семантико-стилистические особенности эмоционально-оценочных фразеологических единиц узбекского языка. Автореф. дисс... канд. филол. наук, Т.1988; Глушкова Т.Е. Концептуально-прагматический аспект субстантивных фразеологических единиц с отрицательной коннотацией в современном французском языке. Автореф. дисс... канд. филол. наук., Иркутск: 2003, 17 с.; Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. М.: 1986, 144 с.

<sup>6</sup> Назарян А.Г. История развития французской фразеологии. М.: 1981, Высшая школа, 189 с.

<sup>7</sup> González-Rey M. Les expressions figées au service de la communication politique. *Seria Stiinte Filologică Lingvistică, Annales de l'Université de Craiova*: 2008, №1-2, p. 58-72.

<sup>8</sup> González-Rey M. Le rôle de la phraséologie dans la mise en discours de la langue juridique. *Seria Stiinte Filologică Lingvistică, Tarrío*: 2008, p. 121-140.

<sup>9</sup> Пауль Г. Принципы истории языка. М.: 1960. Изд-во иностранной литературы, 102 с.

<sup>10</sup> Sweet H. *New English Grammar. Logical and Historical*. London: Oxford University Press, 1930.

<sup>11</sup> Mishel Breal. *Esse po semantike : nauka o znaczeniyax*. Hachette, P. :1897, 499 p.

<sup>12</sup> Sechehaye A. *Les deux types de la phrase*. Genève : 1920, p. 315-322. ; Sechehaye, A. *Locutions et composés*. *Journal de psychologie normale et pathologique* p. 654-675.

<sup>13</sup> Bally Ch. *Traité de Stylistique française*. P. :195, 3e éd. Librairie Klincksieck, p. 65-66.

davom ettirgan holda A.J.Greymas<sup>14</sup>, E. Kossieru<sup>15</sup>, P. Giro<sup>16</sup>, F. J. Osmann<sup>17</sup>, Gaston Gross<sup>18</sup>, Alen Rey<sup>19</sup>, O.Diaz<sup>20</sup>, N.Kazel<sup>21</sup> kabi frazeologlar fransuz tili frazeologiyasi rivojiga oʻz hissalarini qoʻshgan holda samarali tadqiqot olib bordilar.

Shu bilan birga, frazeologik birliklarning individual-avtor oʻzgartirishlarining psixolingvistik jihatdan tadrijiy shakllanishi, badiiy matndagi frazeologik birliklar semantik ifodasining oʻziga xos jihatlari, stilistik xususiyatlari<sup>22</sup>, frazeologik ellipsis, ikkilamchi aktualizatsiya<sup>23</sup>, komponent tarkibini almashtirish<sup>24</sup>, frazeologik okkazonallik<sup>25</sup>, zamonaviy fransuz matbuotida erkin va frazeologik birliklarning struktur tahlili<sup>26</sup> muammolari olimlar tomonidan batafsil oʻrganilgan. Mazkur ishda esa publitsistik matnlarda ishlatilgan komparativ frazeologik birliklarning kommunikativ taʼsirini oʻrganishga alohida urgʻu beramiz.

**Monografik tadqiqotning maqsadi** fransuz publitsistik matnlaridagi komparativ frazeologik birliklarning semantik-stilistik xususiyatlarini oʻrganish va tavsiflashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

fransuz publitsistik matnlarning oʻziga xos uslubi va unda frazeologik birliklar va komparativ frazeologizmlarning hajmi, tuzilishi, ahamiyati va oʻmini aniqlash;

<sup>14</sup> Greimas A.J. *Idiotismes, proverbes, dictons*. P. : 1960, Cahiers de lexicologies Vol. II p. 41-61.

<sup>15</sup> Coseriu E. *Les procédés sémantiques dans la formation des Cahiers Ferdinand de Saussure*. P. :1982, p. 1-17-35.

<sup>16</sup> Guimard P. *Les locutions françaises*. P. : 1962, Presses universitaires de France, 232 p.

<sup>17</sup> Hausmann F.J. *La langue de la presse. Histoire de la langue française : 1945-2000*, Sous la direction de Gérard Antoine et Bernard Cerquiglini, P. :2000, CNPS EDITION p.199-210.

<sup>18</sup> Rey A. *Chantreau S. Dictionnaire des expressions et locutions*. P. : 2007, Le Robert, 896 p.

<sup>19</sup> Gross G. *Les expressions figées en français : noms composés et autres locutions*. P. : 1996, Ophrys 161 p.

<sup>20</sup> Diaz O. *Les expressions idiomatiques*. P. :1983, Communication et langage, №58, p. 38-48.

<sup>21</sup> Cazelles N. *Les comparaisons du français*. P. : 1996, Belin 336 p. ;

<sup>22</sup> Маматов А.Э. *Очерки по французской фразеологической стилистике*. Т.: 1989, Укитувчи, 118 с.; Потошкая Н.П. *Стилистика современного французского языка. Учеб. Пособие*, М.: 1974, Вис. школа, 246 с.

<sup>23</sup> Кушн А.В. *Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. Пособие*, М.: 1986, Высш. школа, 336 с.; Boltayeva B.I. *Oʻzbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil)*. fil.fan.boʻyicha fil. doc. dis... 10.00.01, Samarqand-2019, 75-116 b.

<sup>24</sup> Волосевич С.П. *Особенности фразеологической номинации при замене компонентов-фразеологизмов. Сб.науч. тр. МПНИИЯ им. М.Тореза. Вып.311*. М.1988, 84-95 с. ; Болтаева Б.И. *Ўзбек тили фразеологик birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil)*. филол. фан. бўйича фал. дос. дисс. 10.00.01, Самарқанд: 2019, 44-56 б.

<sup>25</sup> Мелерович А.М. *Проблема семантического анализа фразеологических единиц современного русского языка*. ЯГПИ, Ярослав: 1979, 80 с.

<sup>26</sup> Слепцова С. В. *Свободные и фразеологизированные конструкции в языке современной французской прессы*. Дисс. канд. филол. наук. Белгород: 2008, 181с.

*Виз уюқorida nomlari keltirilgan va boshqa tilshunoslarning ilmiy izlanishlari hamda qarashlaridan oʻz tadqiqotimiz davomida foydalanamiz.*

fransuz tili publitsistik matnlarida ishlatiluvchi komparativ frazeologik birliklarning tarkibi, semantik xususiyatlarini tavsiflash;

fransuz publitsistik matnlarida fransuz tilining komparativ frazeologik birliklari orqali ifodalanishi mumkin bo'lgan stilistik vaziyatlarini aniqlash;

fransuz umumtil frazeologik birliklari va publitsistik frazeologizmlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida 2020-2024-yillar jurnal va gazetalarida qo'llanilgan fransuz tili komparativ frazeologik birliklari tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** fransuz bosma nashrlarida ishlatilgan komparativ frazeologik birliklarning semantik-stilistik jihatlari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida frazeologik tavsif, kontekstual tahlil, komponentli tahlil, diskursiv tahlil, lingvostatik tahlil va distributiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

fransuz publitsistik matnda mavjud axborotni yetkazishda FB/KFB orqali inson ijtimoiy roli: stilistik-uslubiy xususiyatini, emotsional, hissiylikni, ma'ruzachilarning umumiy yoki individual holati haqidagi nuqtayi nazarini, obrazlilikni kuchaytirgani holda publitsistik matn ifodaliligini oshirish mumkinligi misollar asosida aniqlangan;

tuzilishiga ko'ra, struktur-semantik jihatdan chatishma komparativ frazeologik birliklarning keng tarqalgan quyidagi: 1) tirik mavjudotning xususiyati aksariyat hollarda odamga yoki jonsiz narsaga o'tkazilishi; 2) faqat insonga xos xususiyat va harakat hayvonlarga ko'chirilishi; 3) o'xshatish predmeti/shaxs/vaziyatga ma'lum predmetning tashqi o'xshashligi ko'chirilishi 4) o'zi ega bo'lgan standartga qarshi, zid xususiyatni ifodalashi, antifrazani hosil qilishi mumkinligi; 5) o'zak jihatidan o'xshatish asosining asl va ko'chma ma'no qarama-qarshiligiga qurilgan o'xshatish, ironiyali guruhlari aniqlanib misollar asosida dalillangan;

fransuz publitsistik matndagi komparativ frazeologik birliklarni frazeosemantik guruhlariga bo'lib tadqiq qilish orqali ramziylikni ifodalovchi

hayvon, o'simlik, rang va mifologik obrazlar orqali insonni tasvirlovchi 4 semantik guruhlari aniqlanib, hayvon nomlari bilan bog'liq komparativ frazemalar ustunlik qilishi, komparativ frazeologik birliklar dunyoning frazeologik tasviri va til tafakkurining milliy-madaniy xususiyatlarini ifodalashi misollar asosida dalillangan;

fransuz publitsistik matnga murojaat qiluvchining kommunikativ munosabatlari va komparativ frazeologik birliklarning kommunikativ funksiyalari o'rtasidagi munosabat aniqlangan hamda fransuz publitsistik matn frazeologiyasi va umumtil frazeologiyasi struktura hamda semantik xususiyatiga ko'ra biroz farq qilib, gazeta frazeologik birliklari orasida o'tgan tarixiy davrlardan meros bo'lib qolgan frazeologik birliklar bo'lmasligi, hech bir frazeologik birlik birikma sifatida tug'ilmashligi, shunchaki ichki shakl unutilganligi sababli sekin-asta birikmaga aylanishi dalillangan.

#### **Ishning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

tadqiqot davomida olingan xulosalar, takliflar va uning amaliy materiallaridan frazeologiya bo'yicha nazariy kurslarda foydalanish mumkinligi, shu bilan birga, leksikologiya, stilistika, matn tahlili fanlari yangi nazariy qarashlar bilan boyitilishi, hamda ularning ravnaqi uchun kerakli bo'lgan o'ziga xos ilmiy yondashuvlarning rivojiga xizmat qilishi aniqlangan;

filologik va nofilologik mutaxassisliklar uchun fransuz tili publitsistik matnlarida qo'llanilgan komparativ frazeologik birliklarni o'z ichiga olgan "Dictionnaire phraséologiques comparatives français-ouzbeks" nomli (№ 36414) guvohnoma olingan;

filologik va nofilologik mutaxassisliklar uchun tahlilga tortilgan fransuz tili publitsistik matnlarida qo'llanilgan komparativ frazeologik birliklarni o'z ichiga olgan bosma shaklda "Dictionnaire phraséologiques comparatives français-ouzbeks/Fransuzcha-o'zbekcha komparativ frazeologik birliklar lug'ati" yaratilgan;

filologik mutaxassisliklar uchun fransuz tili publitsistik matnlarida qo'llanilgan komparativ frazeologik birliklarni o'z ichiga olgan "Dictionnaire phraséologiques

comparatives françaises (Fransuzcha komparativ frazeologizmlar izohli lug'ati)" nomli (№27745) guvohnoma olingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qayd etilgan ilmiy natijalarning to'g'riligi va ishonchliligi, ishda qo'llanilgan nazariy ma'lumotlar yetakchi ilmiy manbalardan va misollar mukammal fransuz publitsistik matnlardan olinganligi, xulosalarning ishonchliligi, aniq bayon etilganligi bilan tavsiflanadi.

Muammolar, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning samaradorligi, nazariy taklif va tavsiyalar amaliyotga tadbiq etilganligi va olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

#### **Monografik tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, u fransuz publitsistik matnlarida tez-tez ishlatiluvchi komparativ frazemalar tabiatining semantik, stilistik va kommunikativ jihatlarini har tomonlama o'rganadi. Shuningdek, tilshunoslikda tilning ommaviy axborot vositalaridagi faoliyatini tadqiq qiluvchi medialingvistikaning rivojlanishiga ma'lum ma'noda hissa qo'shadi. Bunga qo'shimcha ravishda, amalga oshirilgan tahlillardan frazeologik semantika hamda umumiy matn tilshunosligi muammolarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "Fransuz tili frazeologiyasi", "Leksikologiya", "Stilistika", "Matn lingvistikasi", "Tarjimashunoslik" kurslari bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, badiiy tarjima sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda tegishli o'quv qo'llanmalari yaratish uchun xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Komparativ frazeologizmlarning tadqiqot davomida olingan semantik-stilistik, kommunikativ jihatdan o'ziga xos xususiyatlari va ularning publitsistik matnda ifodalovchi bahosi borasidagi xulosa natijalari asosida:

"O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli Yevropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 2016-2018-yillar davomida amalga oshirilgan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-SB-

ERASMUS+CBE IMEP raqamli loyihasi doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-apreldagi №1118/30.02.01 sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning komparativ frazeologik birliklarning semantik xususiyatini tushunish, tahlil qilish samaradorligi oshgan:

Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan amalga oshirilgan И-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" nomli innovatsion tadqiqotlar doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 28-apreldagi №1125/30.02.01 sonli ma'lumotnomasi). Natijada xorijiy tillar bo'yicha o'quv-uslubiy majmua kontekstida frazeologik birliklar materiallariga oid ta'lim mazmuni boyitilgan:

Termiz davlat universitetida ERASMUS+ dasturi doirasida amalga oshirilgan 574099-EPP-1-26-IT-EPPKA2-CBHE-SB raqamli "Oliy ta'lim sohasida potensial rivojlantirish yo'nalishidagi PAWTER hududlararo mobillikni yo'lga qo'yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta'minlash" nomli ilmiy-amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Termiz davlat universitetining 2023-yil 25-apreldagi № 06/12-1674 sonli ma'lumotnomasi). Natijada frazeologiya sohasida frazeologik birliklarning konnotativ jihati filologiya yo'nalishi talabalari, mutaxassislariga atroflicha yetkazish orqali ularni tushunish, tahlil qilish samaradorligi oshgan:

2022-2023-yillarda O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali DM "Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar muharririyatining "Ta'lim va taraqqiyot", "Jahon adabiyoti", "Adabiy jarayon" nomli eshittirishlarning ssenariysini yozishda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali Davlat muassasasi 2023-yil 2-maydagi № 04-36-670- sonli ma'lumotnomasi). Natijada ushbu dasturlar uchun tayyorlangan media materiallar mazmun jihatidan boyitilgan.

## I BOB. FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARI VA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARI TARAQQIYOTI

### 1.1. Fransuz publitsistik matnlarining o'ziga xos xususiyatlari

Fransuz matbuotining dastlabki namunalari XV asrdan boshlab, bukletlar, plakatlari ko'rinishida, stereotipik taqdimot va rasmiy nutq orqali yangilik sifatida keng ommaga e'lon qilingan bo'lsa, 1631-yilda birinchi fransuz yangiliklar davriy nashrlari, xususan, Teofraste Renaudotning gazetasi Yevropa shaharlaridan xronologik ketma-ket jo'natmalar shaklida paydo bo'ldi. 1789-yil 24-avgustda Fransiya inqilobi va Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi orqali erkin fikr almashish va o'z fikrini chop etish erkinligi o'rnatildi. 1791-yilda ta'sis majlisi matbuot erkinligini tartibga soldi, o'sha paytda jadal sur'atlar bilan barcha tendensiyadagi gazetalar ko'paydi va kitobxonlar soni oshib bordi. Alphonse Karr, Aurelien Scholl kabi taniqli kolumnistlar to'g'ridan to'g'ri dolzarb voqealar bilan bog'liq munozaralarni doimiy ravishda tashkillashtirib, keyinchalik fransuz matbuoti siyosatchilarini hushyorlikka chorlovchi "to'rtinchi hokimiyat"ga aylandi.

Matbuotning rivojlanishi, axborotlarning doimiy tarzda voqealar ketma-ketligiga muvofiq tarzda berilishi buklet, varaqalarda tarqalishi dastlab "feuilleton"<sup>27</sup> atamasini nutqda faollashuviga, keyinchalik mazkur leksemaning arxaizm qatlamga o'tishi natijasida gazeta va jurnal yangiliklari matnlariga nisbatan "publicitaire"<sup>28</sup> so'zining ishlatilganligiga guvoh bo'lamiz. Zamonaviy fransuz tili matbuot tilida esa *publicitaire* eskirgan so'z hisoblanib, o'miga faol leksema sifatida publitsistik matn borasida so'z yuritilganda *texte journalistique*, *texte d'actualité*, *article de presse* atamaları ishlatiladi. Tadqiqotimizni dastlab fransuz publitsistik matnlari turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Zero bu publitsistik

<sup>27</sup> <https://fr.wiktionary.org/wiki/feuilleton> : Le mot est un diminutif du français « feuille », qui signifie « feuille de papier », et dérive finalement du latin « folium », qui signifie « feuille ». De cette source, l'anglais a acquis « folio » (qui peut faire référence à une page, ou feuille, d'un livre ou d'un manuscrit) et « feuillage » (qui signifie « une masse de feuilles »).

<sup>28</sup> <https://www.larousse.fr/dictionnaires/francais/publiciste/64960>

matn janrlari va ular tarkibida lingvistik vositalarning ishlatilish doirasini aniq belgilab olishda muhim ahamiyatga ega.

Tilshunolar, jurnalistlar turli publitsistik janrlarning bir nechta tipologiyasini taklif qilishadi. Xususan, jurnalistlar *qisqa* (uzunligi bo'yicha - odatda, qisqacha) va *uzun* (hisobot), tilshunolar<sup>29</sup> tomonidan *informatsiya*, *sharh(kommentariya)* va *fikr* meta-janrlariga bo'lib tadqiq etadilar. Jan-Mishel Adam<sup>30</sup> *informatsiya* va *kommentariya*, Broucker<sup>31</sup> jurnalistik nuqtayi nazardan, *informatsiya* (compte rendu, reportage, enquête, interview, portrait) va *kommentariya* (le billet, la caricature, la chronique, l'éditorial et la tribune) kabi, lingvistik jihatdan matnda berilayotgan mavzuga nisbatan *semantik*, Kim? Nima? Qayer? Qachon so'roqlariga javob beruvchi *argumentativ*, Nima uchun? Qanday qilib? kabi savollarga kommunikativ maqsadga ko'ra yondashuvchi *pragmatik*, matn muallifining axborotni lingvistik vositalardan tejamkorlik asosida foydalangani holda o'z pozitsiyasi, nutq uslubini ifodalashiga nisbatan *enonce*<sup>32</sup>; Martin-Lagarrette<sup>33</sup> *informatsiya*, *kommentariya*, *fantaziya* (écho, billet, courrier des lecteurs), *noble* (enquête, reportage, interview) kategoriyalari va ular tarkibiga kiruvchi turli mavzudagi publitsistik matnlar asosida tadqiqot olib borgan. Yuqoridagi o'rganishlardan ma'lum bo'ladiki, publitsistik matnlarga turlicha yondashuv olimlarning tilshunoslikning qaysi yo'nalishida tadqiqot olib borganligi bilan bevosita bog'liq. Zamonaviy tilshunoslikda axborot uzatishda matnning *narativ(hikoya qilish)*, *informativ*, *tasvirlovchi*, *tushuntiruvchi*, *instruksiya beruvchi(injonctif)*, *argumentativ(sharhlash)*, *ekspressiv* kabi 7 turi mavjud. Bizning tadqiqotimiz maqsadi publitsistik matnlarda fransuz komparativ frazemalarini semantik-stilistik xususiyatlarini tadqiq etish bo'lgani bois bizgacha bo'lgan olimlarning publitsistik janr borasidagi fikrlarini umumlashtirgan holda

<sup>29</sup> Yves Agnès, Roselyne Ringoot, Jean-Michel Utard Les genres journalistiques : Savoirs et savoir-faire Harmattan, 2009, p 25-33.

<sup>30</sup> Jan-Mishel Adam, *Éléments de linguistique textuelle : théorie et pratique de l'analyse textuelle*. Baurdeau-1991. Philosophie et langage, Liège, Mardaga, coll. 147 p.

<sup>31</sup> José de Broucker, *Pratique de l'information et écritures journalistiques*. Paris-1995, CFPJ, 48 p.

<sup>32</sup> En linguistique, un énoncé peut être défini comme une séquence orale ou écrite résultant d'un acte d'énonciation, c'est-à-dire produite par un sujet énonciateur dans une situation donnée. En français, la phrase minimale comporte nécessairement au moins un sujet et un verbe conjugué. <https://www.larousse.fr>

<sup>33</sup> Jean-Luc Martin-Lagarrette. *Guide de l'écriture journalistique*. Écrire, informer, convaincre, Syros, Paris-1994

matn turlari maqsadi jihatdan bir-birini takrorlagani bois quyidagi (1-jadval) 3 sathdan 2 tasi: *informativ va argumentativlik* doirasida o'rganamiz. Tasviriy(grafik)lik alohida yondashuvni talab etadi, shu sababdan uni kelgusidagi tadqiqotlarimizda tadqiq etishni maqsad qildik.

1-jadval:

Informatsiya berish	Sharhlash	Tasvir
Brève/Filet	Éditorial	Billet
Reportage	Tribune libre	Carricature
Compte rendu	Courrier lecture	Band dessinée
Revue de presse	Critiques	Publicité illustrée
Enquête		
Interview		

Bugungi kunda Le Monde, Libération, Le Figaro, Les Echos, La Tribune, L'Humanité, La Croix kabi fransuz milliy davriy nashrlari *kunlik, haftalik va oylik* formatda yangiliklarni informativ va sharhlash kabi janrlarda chop etishi mobaynida bir nechta o'ziga xosliklar kuzatishimiz mumkin. Bizga yaxshi ma'lumki, matbuot xabar berish orqli voqea-hodisani baholabgina qolmay, o'z o'quvchilarini berilayotgan axborotga diqqatni maqsadli tortishga ham harakat qiladi. Aslida, nimadir o'rganish uchun gazeta sotib olamiz, ammo, bugungi kunda bosma nashrlar televideniya va radio, ijtimoiy tarmoq raqobatiga duch kelmoqda. Sanab o'tilgan ommaviy axborot vositalaridan gazeta biroz o'quvchilar diqqat markazidan chetda qolayotgandik tuyulsada gazeta va jurnallarni demokratik hayotning muhim ustuni sifatida bilib, mavjud siyosiy-ijtimoiy, iqtisodi sohalarni o'tkir<sup>34</sup> sharhlar orqali

<sup>34</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ). М. 2021

yoritishini inobatga olib, an'analarni davom ettirgan holda bosma nashrlarga murojaat etuvchilar soni salmoqli ekanligi ahamiyatga molik.

Fransuz jurnalistlaridan o'z xabarlarida betaraflik va xolislik tamoyilini hurmat qilish talab etiladi. Ular faktlarni xolis, bir tomonga og'dirmasdan bayon etishlari muhim. Masalan, namoyish haqidagi maqolada jurnalist qo'yilgan talablarning mazmun-mohiyati yoki namoyishchilarning xatti-harakati to'g'risida fikr bildirmasdan, shunchaki faktlarni (ishtirokchilar soni, talablari, borishi) tasvirlab beradi. Shuningdek, siyosiy reportaj chog'ida jurnalist turli nomzodlar yoki partiyalarning chiqishlarini, ularning dasturi yoki pozitsiyasi haqida o'z fikrini bildirmasdan, hissiy-ekspressivlikni kuchaytiruvchi til vositalaridan imkon qadar kam foydalanib voqealarni betaraf tarzda bayon qiladi: *Trente-six travailleurs de moins de 25 ans n'ont pas survécu à un accident du travail en 2022*<sup>35</sup>. Demak, obyektivlik fransuz jurnalistik matnlarining muhim xususiyatidir.

Jurnalistlar hikoya qilish texnikasi va nutq shakllaridan foydalangan holda o'z o'quvchilarini o'ziga jalb etishga va xabardor qilishga intiladi: *Néologisme d'Ellen Scott, une journaliste de la BBC, désignant le fait de travailler en fonction de son « chronotype », son rythme naturel, et non à des horaires imposés. Par exemple, tôt le matin ou tard le soir, ou encore avec une pause longue en milieu de journée. Selon des experts, c'est un levier d'efficacité. Le chronoworking est de plus en plus répandu depuis la pandémie, mais il reste réservé à certains secteurs*<sup>36</sup>. Fransuz publitsistik matnlari uchun uslub muhim hisoblanib, ko'pincha puxta adabiy uslubda, izchil tuzilgan jumlar, boy so'z boyligi bilan yoziladi.

Eng muhim faktlar ko'pincha maqolaning boshida, sous-titreda joylashtiriladi, keyin esa tafsilotlar va tahlillar ketma-ketlikda beriladi: *La compagnie a continué de payer par erreur Clément, entre août 2020 et septembre 2022, alors qu'il était parti en formation. Elle demande aux prud'hommes le remboursement de près de 38*

<sup>35</sup> Le Monde, SAMEDI, 10 FÉVRIER, 2024, p-18

<sup>36</sup> L'Éco, N-705, 15-mars, 2024, p-1

000 €<sup>37</sup>. Fransuz publitsistik matnlarida ma'lumotni ahamiyatiga ko'ra birinchi o'ringa qo'yish muhim.

Kasbiy etikaga hurmat jihatidan fransuz jurnalistlari o'z faoliyatining mustaqilligi va halolligini kafolatlaydigan axloq kodeksiga qat'iy amal qiladi. Xususan, ular o'z manbalarini tekshirishlari, manfaatlar to'qnashuvidan qochishlari va kishilarning shaxsiy daxlsizligini hurmat qilishlari zarur: *Ce n'est pas "Je suis Charlie". Mais nous sommes là pour dire que cela pourrait être chacun d'entre nous* », *résument lundi dernier Nicolas Bray, proviseur du lycée Fénélon et secrétaire académique du SNPDEN-Unsa Paris, le principal syndicat des personnels de direction de l'Éducation nationale*<sup>38</sup>.

Fransuz publitsistik matnlaridagi axborotlar kuchli plyuralizm, qarashlarning xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shu sababdan, o'quvchilar hozirgi voqealar bo'yicha turli fikr va tahlillarga ega bo'lishlari mumkin: *Les ateliers dédiés à l'apprentissage de la céramique (thérapeutique, amusante, esthétique...) se répandent dans la ville à vitesse grand V...*<sup>39</sup>.

Jurnalistlar axborotni uzatishda tilning frazeologik fondidan, tayyor frazeologizmlardan vaziyatlarni tasvirlash uchun ustamonlik bilan foydalanadi va bu, o'z navbatida, ta'sirchanlik va konsepsiyani yaxshiroq vizuallashtirish imkonini beruvchi ekspressiv kuch sifatida o'quvchini jalb qilish uchun xizmat qiladi. Gonsales Rey ta'kidlaganidek<sup>40</sup>, ular (frazema)ning nutqda qo'llanilishi xabarga muloqot paytida maxsus effekt beradi. Turg'un birikmalarni nutqqa kiritish ham muhim tanlov sifatida qaralishi mumkin, bu orqali ifodalovchi vaziyatni, hodisani maqsadlar yoki me'yorlar tizimi bilan bog'liq holda ijobiy yoki salbiy baholashi mumkin. Publitsistik matn tarkibida frazemalarning o'zni, ahamiyatini aniqlashdan avval fransuz frazeologizmi va uning maxsus turi hisoblanmish

<sup>37</sup> Le Parisien, Samedi, 16 mars, 2024, N° 24745, p-7

<sup>38</sup> Le Figaro, Lundi, 11-mars, 2024, p-6

<sup>39</sup> Le Parisien, Samedi, 16 mars, 2024, N° 24745, p-39

<sup>40</sup> Isabel González-Rey, *La phraseologie du français*. Toulouse- 2002, Presses universitaires du Mirail, coll. Interlangues, linguistique et didactique, 140 p.

komparativ frazeologik birliklar taraqqiyoti va matn tarkibida ishlatilganda qanday effekt bera olish imkoniyatiga ega ekanligini ko'rib chiqamiz.

## 1.2. Fransuz tili frazeologizmlari va komparativ frazeologik birliklari

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib tilshunoslikning frazeologiya sohasi sezilarli darajada rivojlanishni boshdan kechirdi va mustaqil lingvistik fan maqomini oldi. Mahalliy va xorijiy tilshunos olimlarning qator asarlari til frazeologik tarkibining hozirgi holati va tarixiy taraqqiyotini o'rganishga bag'ishlangan. Frazeologiyaning mustaqil fan sifatida shakllanishi va rivojlanishiga chet el va mamlakatimizning yetuk tilshunos olimlari turli tillar materiallarida tadqiqotlar olib borish barobarida Frazeologiya fanining taraqqiy etishiga katta hissa qo'shdilar<sup>41</sup>.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, Sh.Balli fransuz tilining turg'un birikmalarini tizimlashtirib, frazeologik birliklarning ichki va tashqi xususiyatlari to'g'risida fikr yuritgani holda frazeologiyaning nazariy asoslarini yaratgan. Ammo o'sha davrdagi frazeologiyaga bo'lgan munosabat shunday ediki, SH.Balli tomonidan fransuz tili frazeologik materiali asosida yaratilgan nazariya fransuz tilshunoslarining diqqatini kutilgan darajada o'ziga tortmaydi va o'tgan asrning 90-yillarigacha Fransiyada frazeologiyaga oid nazariy ishlar deyarli ko'zga tashlanmaydi. Mavjud tadqiqotlar

<sup>41</sup> Bally Ch. *Traité de Stylistique française*. P. 195, 3e éd Librairie Klincksieck, p. 65-66; Назарян А. Г. *Фразеология современного французского языка*. Высшая школа, М: 1976, 318 с; Исаяев А. *Соматические фразеологизмы узбекского языка*. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Т.: 1976, 21 с.; Кушни А. В. *Фразеология современного английского языка*. М.: 1972, 288 с.; Маматов А. *Лексик интеграция асосида фразеологизмларнинг шаклланиши*. Тошкент, 1999, *Ўзбек тили ва адабиёти* №6 29-33 бетлар; Рахматуллаев Ш. *Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (фразеологик бирликларда полсемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимлик)*. Тошкент, 1966, *Фан*, 264 б; Ройзензон С. И. *Глагольные компаративные фразеологические единицы английского языка и факты реальной действительности*. Труды Сам. ГУ им. А. Навои. Нов. серия, вып. 222. *Вопросы фразеологии, стилистики и грамматического строя романо-германских языков*. Самарканд, 1972, 29-39 с.; Соколова Г. Г. *Фразеобразование во французском языке*. Высшая школа, М.: 1987, 144 с.; Соколова Г. Г. *Курс фразеологии французского языка*. Высшая школа, М.: 2010, 174 с.; Иудлошев Б. *Ўзбек фразеологияси ва фразеографиясининг шаклланиши ҳамда тараккотини*. СамДУ, Самарканд, 2013, 166 б.; Бузнова Ю. В. *Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ)*, автореф., М.: 2022



esa alohida frazeologik birliklarning etimologiyasini tavsiflash, frazeologik birliklarni to'plash va dekodlash, to'plamlarni nashr etish bilan cheklanadi.

Olimlar XX asr oxiri - XXI asr boshlarida frazeologik birliklarning nazariy rivojlanishiga ilmiy qiziqish ortganligini qayd etadilar. Fransiyada bu tendensiya tilshunoslar o'rtasidagi nemis-fransuz aloqalari, shuningdek, turli mamlakatlar frazeologlarini birlashtirgan EUROPHRAS assotsiatsiyasi tadqiqotlarining rivojlanishi bilan asoslanadi. Mazkur tadqiqot mualliflardan biri hamda muharriri Alen Reyning frazeografiyaga bag'ishlangan asarlari, jumladan, uning zamonaviy etimologik-frazeologik lug'atining nashr etilishi ko'zga ko'rinarli izlanish sifatida e'tirof etiladi.

Sh.Ballingning frazeologiyaga oid nazariyasi dastlab rus tilshunoslari tomonidan rivojlantirilgan bo'lsa-da, XX asrning ikkinchi yarmida fransuz tilshunoslari A.J.Greymas, P.Giro, G.Gross, M.Gross, A.Rey, B.Lafleur va boshqalar tilshunoslikning mazkur sohasiga o'zlarining salmoqli hissasini qo'shdilar. Shunday qilib, "frazeologiya" atamasi bilan bir qatorda "idiomatologie" (idiomatologiya)<sup>42</sup>, "frazeologik birlik" – locution figée<sup>43</sup>, "semantik idiomatika" (idiomatique sémantique)<sup>44</sup>, locution figée, expression idiomatique<sup>45</sup>, idiomatisme<sup>46</sup>, locution toute fautive aux figées, lexème complexe<sup>47</sup> kabi bir necha terminlar ayni frazeologizmlarni ifodalovchi birliklar sifatida talqin qilinadi. Tilshunoslarning muayyan termin tanlashlari tadqiqot materiali va qo'yilgan vazifalari bilan belgilanadi.

Sh.Ballingning fikriga ko'ra, frazeologik birliklarning o'ziga xosligi ularning ma'lum bir til kleshelariga oid ekanligi, ma'no jihatdan yaxlit iboraning bir so'zga tengligi, tarkibida semantik va sintaktik arxaizmlarning mavjudligi,

<sup>42</sup> Guiraud P. Les locutions françaises. P.: 1973, PUF 127 p.

<sup>43</sup> González-Rey M. Analyse des caractéristiques des unités phraseologiques. Análisis des discurso /Eds. L.G. Elduayen, J.C. Marcos, Granada: Editorial Universidad de Granada, 2000, p. 119-136.

<sup>44</sup> Rey A. Langue française N4. P.: 1969, La sémantique, p. 5-29.

<sup>45</sup> Diaz O. Les expressions idiomatiques. P.: 1983, Communication et langage, №58. P. 38-48.

<sup>46</sup> Greimas A.J. Idiotismes, proverbes, dictons. Cahiers de lexicologies Vol. II. P.: 1960 p. 41-61.

<sup>47</sup> Lonfleur-Laurian A.M. Locutions et discours scientifiques. Cahiers du Français Contemporain Vol. 2. La locution en discours, Sous la direction de M. Martins-Baltar, P.: 1995, Didier-Érudition, p. 243-269.

komponentlaridan birining vaziyatga ko'ra o'ziga xos bahosining yo'qolishi, leksik, semantik, stilistik, elliptik konstruksiyalarning mavjudligi bilan namoyon bo'ladi<sup>48</sup>.

Demak, aytish joizki, odatiy yoki vaqti-vaqti bilan sodir bo'luvchi o'zgarishlar bilan bir xilligi, turg'unlik, takrorlanuvchanlik, tugallangan shaklda takrorlanishi, tarkibiy jihatdan yaxlitlik, komponentlarining qisman, shuningdek, to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lishi, o'ziga xos shakl, tuzilish, frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Frazeologik birlik ko'psamalik, yaxlitlik, turg'unlik, komponentlarining alohida leksik ma'nolarga ajralmasligi uning muhim xususiyatlaridandir. Frazeologik birliklar ma'nosiga ko'ra o'ziga xos til birligi<sup>49</sup> sifatida e'tirof etilsa-da, ular leksik ma'noga ega degan fikr ham mavjud. Biroq aksariyat tilshunoslar<sup>50</sup> frazeologik birliklar va so'zlar o'rtasida juda ko'p umumiylik mavjudligini ta'kidlagani holda, frazeologik birliklarning o'ziga xos frazeologik ma'nosi borligini, bu ma'noning alohida turi sifatida ko'rib chiqilishi zarurligiga urg'u beradilar<sup>51</sup>. Hozirgi zamon tilshunosligida frazeologik ma'no<sup>52</sup> deganda so'zlarning o'zgaruvchan birikmalarini generatsiya qiluvchi tarkibiy-semantik modellari bo'yicha shakllanmagan<sup>53</sup>, semantik jihatdan murakkab, alohida shakllangan til birliklari orqali ifodalangan ma'lumotlarning o'zgarimasligi tushuniladi.

Bizningcha, frazeologik ma'noning alohida maqomi, frazeologik birliklar bilvosita nominatsiya birliklarining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Aniqroq aytganda, frazeologik ma'no voqelik, predmet, hodisalarni to'g'ridan to'g'ri ifodalamaydi. Ular allegorik tarzda tavsiflanadi va tarkibiy qismlari leksemalardan iborat. Frazeologik birliklarning ma'nolari semantik qayta tuzilish/transformatsiya asosida shakllanadi, bu esa ularni boshqa til birliklaridan ajratib turadigan asosiy

<sup>48</sup> Charles B. Traité de Stylistique française. 3e éd. Librairie Klincksieck Paris-1951, p. 86-92.

<sup>49</sup> Молотков А.Н. Основы фразеологии русского языка. Л.: 1977, Наука, 284с.

<sup>50</sup> Алефиренко Н.Ф. Фразеологическое значение: природа, сущность, структура. Грань слова: Сб. научн. статей к 65-летию проф. В.М. Мокшенико, ООО Изд-во Эллис М.: 2005 21-27 с, Соколова Г.Г. Курс фразеологии французского языка. Высшая школа, М.: 2010, 174 с.

<sup>51</sup> Колошьян В.В. Лексико-стилистическая характеристика французских публицистических текстов экологической тематики. М.: 2007

<sup>52</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. пособие, Дубна: 2005, 488 с.

<sup>53</sup> Буянова Ю.В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. М.: 2021

xususiyatidir<sup>54</sup>. Til elementlarining o'ziga xos bo'lmagan vazifa va ma'noda qo'llanishi asosida transformatsiya erkin birikma yoki gapning to'g'ri manosidan kelib chiqmaydigan frazeologik ma'no yuzaga keladi. Frazeologik birliklarni erkin birikmadan farqlovchi differensial mezon semantik transformatsiya va obrazlilikdir. Frazeologik birliklarning ma'nolari semantik qayta shakllanish asosida yuzaga keladi va ularni boshqa til birliklaridan farqlovchi asosiy belgidir. Til birliklarining o'ziga xos bo'lmagan vazifa va ma'noda qo'llanishi asosida transformatsiya erkin birikma yoki gapning to'g'ri ma'nosidan kelib chiqmaydigan frazeologik ifoda yuzaga keladi. Ilmiy manbalarda transformatsiyaga asosiy sintaktik tuzilmani til qonuniyatlari asosida o'zgartirib, ikkinchi bir tuzilma hosil qilish, til strukturasi asosida ikkilamchi lisoniy shaklning yaratilishi deb izohlanadi va jahon tilshunosligida til elementlari barchasi transformatsiyalanishi mumkinligi aytiladi. Til elementlarining transformatsiyasi jarayonida *leksikalizatsiya, grammatikalizatsiya, frazeologizatsiya* hodisalari ro'y beradi.

Frazemalarning asosiy ma'nosiga qarab empirik frazeologik birliklarni farqlash mumkin. Bugungi kungacha frazemalarning leksik, semantik, leksik-semantik, strukturaviy o'zgarishi va okkazonal qo'llanilishi borasida salmoqli tadqiqotlar qilingan.

Shu o'rinda aytib o'tishimiz joizki, tadqiqotimiz fransuz tilidagi komparativ frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini aniqlash bo'lsa-da, biz bu holatga komparativ frazeologizmlar o'rni odatiy frazeologizmlardan misollar keltiramiz, sababi, odatiy frazeologik birliklarda ma'noviy o'zgarishlar aniqroq ko'rinadi. Tadqiqotimizning keyingi qismlarida esa asosan komparativ frazeologik birliklarga e'tibor qaratiladi. Masalan: *avoir plusieurs casquettes-exercer plusieurs rôles, fonctions, dans différentes activités* (Turli faoliyatda bir nechta rollarni, funksiyalarni bajarish), *avoir plusieurs cordes à son<sup>55</sup> arc - avoir différentes compétences, plusieurs moyens d'arriver à un but<sup>56</sup>* (maqsadga erishish uchun bir

nechta vositalarga ega bo'lish) kabi frazeologik birliklar ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ifodalar asosida izohlanadigan erkin birikma tarzida ham idrok etiladi: *J'ai la chance d'avoir plusieurs casquettes et de pouvoir prendre celle que vous voulez me voir porter<sup>57</sup>*. Bu gapda *avoir* -bor bo'lmoq, *casquettes* -bosh kiyim, shapka, *plusieurs* -bir nechta so'zlarining o'zaro ma'noviy muvofiqligidan va sintaktik birikuvidan *avoir plusieurs casquettes* -bir nechta bosh kiyimiga ega bo'lmoq ma'nosini kelib chiqadi. Shu bilan birga, erkin birikmaning semantik transformatsiyasi asosida tarkibidagi so'z-komponentlarga xos bo'lmagan kasbning tipik formasiga tegishli bo'lgan bosh kiyim (politsiyachi, beysbolchi...kabilarga) ishora qilib, bu ibora bir nechta kasblarga ega bo'lishni va kengaytmasi bilan bir nechta funksiyalarni bajarishni anglatadi va "*avoir plusieurs casquettes*" erkin birikmasining obrazi shakllangan frazeologik ma'nosida namoyon bo'ladi. Masalan, *Il avait plusieurs casquettes: homme d'église, politique, écrivain et humoriste*. (Uning bir nechta kasbi bor edi: ruhoni, siyosatchi, yozuvchi va qiziqchi). *Faire le pont* (hordiq chiqarmoq), *chercher une aiguille dans une boîte de foin* (pichan ichidan igna qidirmoq), *passer du coq à l'âne* (bir bog'dan bir tog'dan gapirmoq), *couper les cheveux en quatre* (vaziyatni, muammoni chigallashtirmoq) singari FBlarning frazeologik ma'nosi erkin birikmaning frazeologik birliklarga semantik o'zgarishi asosida shakllanadi. Frazeologik birliklarni erkin birikmadan ajratib turuvchi mezon semantik transformatsiya va obrazlilikdir.

Frazeologik birliklar transformatsiyasi vositalaridan biri, shubhasiz, birikmalarning semantik o'zgarishi bo'lib, o'z navbatida, turg'un birikmalarni har tomonlama, ya'ni, uslubiy, semantik, pragmatik jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Zero, tilshunos olim G.Sokolova ta'kidlaganidek<sup>58</sup>, frazeologik birliklarning shakllanishi traspozitsiya hodisasidir. Frazemalar tarkibidagi so'zlarning birikuvchanlik xususiyati ularning leksik, semantik, struktur

<sup>54</sup> Буянова Ю. В. Прагматический аспект значения компаративных фразеологических единиц (на материале современного французского языка). №7 Казанская Наука. 2021.

<sup>55</sup> M. Isroilova, Semantic Transformation of French Phraseological Units [www.rajournals.in](http://www.rajournals.in)

<sup>56</sup> M. Isroilova, Semantic Transformation of French Phraseological Units [www.rajournals.in](http://www.rajournals.in)

<sup>57</sup> <https://www.expressio.fr/expressions/avoir-plusieurs-casquettes>, M. Isroilova, Semantic Transformation of French Phraseological Units [www.rajournals.in](http://www.rajournals.in)

<sup>58</sup> Соколова Г.Г. Фразеология французского языка. (Семантический аспект фразеологических единиц). Учеб. Пособие, МГПИ, М.: 1986, 89 с.

transformatsiyalanishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham tilda frazeologik birliklarga semantik hodisa sifatida qaraladi.

Soʻz birikmasi yaxlitligicha maʼno jihatidan bir tushunchadan ikkinchi tushunchaga oʻtishi, erkin birikmaning maʼnosi frazeologik birlikka transformatsiya qilinishi mumkin. Demak, frazemalarning komponentida ishtirok etgan leksemalar maʼnosidan kelib chiqib, ularni izohlanadigan va izohlanmaydigan birliklar deb atash mumkin. Ular maʼlum semantik, leksik, leksik-semantik, semantik-sintaktik oʻzgarishlarga uchraydi. Masalan: *après la pluie, le beau temps* - oyning oʻn beshi qorongʻu, oʻn beshi yorugʻ (soʻzma soʻz: yomgʻirdan keyin havo ochiq boʻladi), *Se croiser les bras* - qoʻl qovushtirib turmoq, *Jouer avec le feu* - olov bilan oʻynashmoq kabi frazeologik birliklar maʼnosi tarkibidagi leksemalarga xos maʼnolar asosida izohlanib, ular erkin birikma tarzida ham idrok etiladi.

Yoki quyidagi misolga eʼtiborimizni qaratsak: *chercher une aiguille dans une boîte de foin*<sup>59</sup>-pichan ichidan igna qidirmoq frazemasini tarkibidagi leksemalarning erkin birikuvidan hamda undagi soʻzlarning oʻzaro maʼnoviy muvofiqligidan *pichan ichidan igna qidirishni* ifodalovchi ikkilamchi tasvir yuzaga keladi: *On a requis la liste de tous les appels entrants sur les déplacements de Laura. Mais ça va revenir à chercher une aiguille dans une boîte de foin*<sup>60</sup> [Marie Liandier, *Opération Puy Mary*, 2006] gapida esa erkin birikmaga xos maʼnoning transformatsiyasi uning frazeologik birlikka xos boʻlgan maʼnosini shakllantiradi. Ayni paytda erkin birikmaning semantik transformatsiyasi asosida tarkibidagi soʻz - komponentlarga xos boʻlmagan "imkonsiz ishni amalga oshirmoq" maʼnosi shakllanadi. Erkin birikma va shu asosida shakllangan frazeologik birlikda obrazlilik mantiqiy asos boʻlib, ular orasidagi bogʻliqlikni koʻrsatib turadi. *Après la pluie, le beau temps, jouer avec le feu, se croiser les bras*<sup>61</sup> kabi erkin birikmaning semantik transformatsiyasi asosida frazeologik maʼnosi yuzaga chiqadi. Ammo *avoir des oreilles d'âne, quand les poules auront les dents*<sup>62</sup> kabi birikmalarning asosi erkin

birikmalar emas. Bu kabi erkin birikma tarzida idrok etilmaydi, inson faoliyatida bu kabi harakatlarni bajarishi imkonsiz deb qaraladi. Bu kabi vaziyatlarda, soʻz birikmasiga xos boʻlmagan, semantik transformatsiya asosida frazeologik birlikka xos maʼno yuzaga keladi. Maʼnosi tarkibidagi leksemalarga xos sema asosida izohlanmaydigan, turgʻun iboralardan koʻplab misol keltirishimiz mumkin, masalan, *avoir un chat dans la gorge (avoir de la difficulté à faire sortir les sons de sa gorge), donner sa langue au chat (laisser tomber), à coeur ouvert (franchement, avec sincérité) avoir des yeux de lynx (avoir une vue perçante.), avoir du sang bleu (être d'origine noble), du matin au soir et du soir au matin (sans interruption, sans arrêt)*<sup>63</sup> va hokazo. Bu kabi frazeologik birliklar oʻz tarkibidagi leksemalarning ifodasiga zid maʼno ifodalashi mumkin. Su oʻrinda aytib oʻtish joizki, frazeologik birliklarning maʼnosini tarkibidagi leksemalarning oʻziga xos maʼnolari orqali izohlash har doim ham ish bermasligi mumkin, chunki frazeologik birlikning ifodasi semantik transformatsiya asosida shakllanadi. Koʻrinib turibdiki, erkin birikmalar va frazemalarni bir-biridan farqlovchi xususiyat semantik oʻzgarish va obrazlilikdir.

Frazeologik birliklarda u yoki bu ish-harakat, voqea-hodisaning aksi, obrazi gavdalanib turishi shart. Frazeologizmlashtirish, yaʼni frazeologizatsiya faqatgina lingvistik hodisa emas, balki inson ongining rivojlanish mahsuli boʻlib, lingvo-falsafiy hodisa hamdir.

Frazeologik birliklar erkin birikmaga nisbatan semantik jihatdan transformatsiyalanadi, deyarli aksariyat frazeologik birliklarning asosi erkin birikmalar boʻlib, ular semantik transformatsiyalash asosida frazeologizm hosil qilinadi. Masalan :

*Aller droit au cœur (toucher, émuvoir), lever le coude (prendre un verre d'alcool, boire de l'alcool). Être armé jusqu'aux dents (être bien préparé), avoir perdu la main (avoir perdu l'habitude). Dresser l'oreille (porter attention)*<sup>64</sup> kabi frazeologik birliklarning asosi erkin birikma emas. Ushbu frazeologik birliklar konkret narsalarni qiyoslash, insonga xos tasniflash, abstraksiyalash, analiz, sintez

<sup>59</sup> M Isroilova, Semantic Transformation of French Phraseological Units [www.rajournals.in](http://www.rajournals.in)

<sup>60</sup> Koʻrsatilgan manba

<sup>61</sup> Koʻrsatilgan manba

<sup>62</sup> Koʻrsatilgan manba

<sup>63</sup> Koʻrsatilgan manba

<sup>64</sup> Koʻrsatilgan manba

va boshqa tafakkur operatsiyalari, narsa-hodisalarning obrazlarini tafakkur qilish asosida motivlashadi. Bundan frazeologik birliklar ma'no ko'chirish yoki tatbiq etish asosida, spontan xarakterga ham ega bo'lishi anglashiladi.

Frazeologik birliklar lingvistik va ekstralingvistik omillar, narsa-hodisalarning nomi ko'chirilishi, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi lingvistik omillar asosida semantik transformatsiya qilinadi. Shu o'rinda urg'u berib o'tish joiz, fransuz tilida *comme, pareil à, semblable à, tel, tel que, de même que, avoir l'air de, faire l'effet de, ressembler à, autant... que, aussi... que, plus... que, moins... que...* vositalari frazema takibida kelganda comparaison hisoblanadi:

*Être comme un poisson dans l'eau*<sup>65</sup> - *Être très confortable* ;

*Être rouge comme une tomate - Être rouge de gêne ou de honte, ne mauvaise herbe - Grandir très vite* ;

*Talon d'Achille - Allusion littéraire à Achille de la mythologie grecque. Achille est mort d'une flèche au talon, le seul point vulnérable de son corps ; Travail d'Hercule - Origine dans la mythologie grecque. Un très gros travail* va boshqa frazeologik birliklari spontan xarakterga ega bo'lib, o'xshashlik assotsiatsiyasi metafora va metonimiya mahsulidir. Metafora asosida ko'chimning o'xshatish obyektini, o'xshatish obrazi, o'xshatish belgisi kabi tayanch nuqtalari mavjud bo'lib, frazeologik birliklarning o'xshatish obrazi doimiy mavjud bo'ladi. Umumtil frazeologik birlik bilan yangi shakllangan frazeologik birliklar o'rtasidagi semantik munosabat saqlanadi. Semantik transformatsiya jarayonida semantik jihatdan qayta shakllanish yuz beradi, frazeologik birliklarning ma'nolari aktualashtiriladi.

Ma'lumki, tilda murakkab lingvistik birliklarning vujudga kelishi frazeologik birliklarning semantik-sintaktik o'zgarishi asosida sodir bo'ladi. Bu holat fransuz tiliga ham xosdir. Misollar keltirish orqali fikrimizni yanada aniqroq tushuntiradigan bo'lsak, masalan, *passer de bouche en bouche, se transmettre de bouche en bouche*<sup>66</sup>, *aller de bouche en bouche*, variantdosh frazeologik birliklar hisoblanadi.

<sup>65</sup> Ko'rsatilgan manba

<sup>66</sup> Ko'rsatilgan manba

*Garder bouche cousue* (ne rien dire, garder silence, garder le secret)<sup>67</sup> yuqoridagi frazemalarga zid ma'no ifodalaydi. Bunda frazeologik birlikning ma'lum qismini o'zgartirish orqali tilda yangi frazeologik birliklar paydo bo'ladi. Yoki, *chercher une aiguille dans une botte de foin, chercher une aiguille dans un tas de paille*<sup>68</sup> - biror narsa, vaziyatga nisbatan ishlatilib topish qiyin, imkonsizligini ifodalovchi mazkur frazeologik birliklarda variantdosh frazeologik birliklar transformatsiyalanmoqda deyish mumkin. Shu ma'noda frazeologik birliklarni semantik-stilistik tadqiq etish birikmaning nutqiy imkoniyatlarini aniqlashtiradi.

Frazeologik birliklardan emotsional-ekspressivlikni oshirish, mazmunini kuchaytirish maqsadida uning tarkibiga kiritmalar qo'shish yoki aksincha, tarkibidan biror qismini olib tashlash orqali tilda yangi frazemalar hosil bo'ladi. Frazeologik birliklarning transformatsiyasi orqali ma'lum bir guruhga mansub frazeologik birliklar va erkin birikma o'rtasidagi semantik munosabatlardan qo'shimcha hosila ma'no paydo bo'ladi. Frazeologik birlikning ijtimoiy jihatdan turg'un va o'zgarimas ifodasi uning konnotativ ma'nosi hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, frazeologik konnotatsiya leksik konnotatsiya bilan bir xil emas, chunki frazeologik birliklarning semantik tarkibida leksik birlik ma'nosidan farqli o'laroq, konnotatsiya ustunlik qiladi<sup>69</sup>, shu sababli ham hatto stilistik bo'yoqdorlikka ega bo'lmagan motivlashmagan frazeologik birlik ham ifoda vositasi sifatida ishlatilish qobiliyatini saqlab qoladi.

Frazeologik birliklarning ikkilamchi nominatsiya birliklari sifatidagi maqsadi asosan ularning ekspressivligidadir. Akshariyat frazeologlar<sup>70</sup> frazeologik birlikning konnotativ ma'nosi murakkab tuzilishga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, frazeologik ma'noning makrokomponent ifodasi doirasida konnotativ ma'noni baholovchi, motivatsion-obrazli, emotiv va stilistik ma'nolilar hamda emotsional,

<sup>67</sup> Ko'rsatilgan manba

<sup>68</sup> Ko'rsatilgan manba

<sup>69</sup> Телля В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. М.: 1986, Наука, 144 с. Кузнецов В.Г. Функциональные стили современного французского языка (публицистический и научный). Учеб. Пособие, Высш. шк., М.: 1991, 160 с.

<sup>70</sup> Телля В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. М.: 1986, Наука, 144 с.

ekspressiv, obrazli va funksional-stilistik ma'nolilarga bo'lib tadqiq qilish<sup>71</sup> maqsadga muvofiq. Frazeologik birlikning konnotativ jihatini tahlil qilish undagi mikrokomponentlarning joylashishini nazarda tutadi. Uning komponentini tahlil qilish frazeologizmlarning o'z negizidan o'rganishga imkon beradi. Birinchi navbatda shuni ta'kidlash kerakki, frazemaning konnotativ jihatini frazeologik birlikni tashkil etuvchi komponentlari konnotatsiyalarining yig'indisi emas, chunki frazeologik birlik komponentlarining stilistik bo'yog'i hamda frazeologik birlikning baholovchi komponentlari har doim ham mos kelmasligi mumkin. Konnotatsiyaning stilistik komponenti ijtimoiy rollar, ishlatilish sohasi va shartlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Konnotatsiyaning stilistik jihatidan funksional-stilistik va kommunikativ-stilistik komponentlari muhim hisoblanadi. Frazeologik birlikning stilistik mansubligi funksional-stilistik komponent bo'lib, izohli lug'atlarda ularni qisqartmalar yordamida: *péjoratif*, *euphémique*, *plaisanterie*, *grossier*, *sarcastique* kabi holatida ko'rishimiz mumkin.

Bizga yaxshi ma'lumki, tilda leksik birliklar, jumladan, frazeologik birliklar ijtimoiy munosabatlarning ayni bir guruhiga tegishli. Aniqroq aytganda, ma'lum lisoniy birlik *langue familier*, *courant* yoki *soutenueda* foydalaniladi. Shu o'rinda aytish joizki, frazeologizmlarning stilistik funksiyasi, leksik birliklarning uslubiy jihatdan ishlatilishi vaqt o'tishi, zamon almashishi bilan o'zgarishi mumkin. Ma'lum bir davrda og'zaki nutqqa xos bo'lgan frazema vaqt o'tishi bilan ayni kommunikativ holatni ifodalash maqsadida yozma nutq uslubiga xos tarzda o'zgarishi mumkin. Bu esa frazeologik birliklarning bir qismi yoki butun holida arxaik holatga o'tishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, *avoir de la misère* frazemasi hozirgi kunda og'zaki nutqda passiv tarzda ishlatilib, uning o'miga faol tarzda ishlatiluvchi *avoir du mal* yoki *avoir de la difficulté* kabi sinonimlari qo'llaniladi. Fransuz frazeologizmlari mazkur vaziyatlari asosida publitsistik matnlar tarkibida o'ziga xos mazmun baxsh etgani holda matn salmog'ini oshirishga ma'lum ma'noda xizmat qiladi.

### 1.3. Fransuz publitsistik matnlarida frazeologik birliklarning ahamiyati

Tadqiqotimizda frazeologik birliklarning semantik va stilistik xususiyatlari haqida so'z yuritar ekanmiz, jurnalistlar publitsistik<sup>72</sup> matnlarda frazeologik birliklardan unumli foydalanish orqali ko'p jihatdan maqola matnining emotsional ekspressivligini oshirish orqali keng jamoatchilikni o'ziga tortishi yoki, aksincha, bu lisoniy birliklarni me'yordan ortiq ishlatishi sababidan maqola syujeti bo'rttirib ko'rsatilib, ta'sir kuchuni kamaytirish hollarining ham guvohi bo'lishimiz mumkin.

Bizgacha qilingan tadqiqotlar xulosa va natijalariga tayanadigan bo'lsak, tilda tayyor holda turuvchi frazeologik birliklar publitsistik matnlarda, matbuotda tez-tez ishlatiladi<sup>73</sup>. Tilga olingan belgilar frazeologik birliklarning diskursiv xatti-harakatlarini tahlil qilish ham ularning umumiy ma'nosi "tayyor mahsulot sifatida aniqlangan va o'rnatilgan" emasligini isbotlaydi, ular kontekst vaziyati bilan bog'liq holda paydo bo'ladi<sup>74</sup>. Muqim ketma-ketliklar amalga oshiradigan semantik dinamizm, vaziyatga mos yashirin ma'no talqiniga rahbarlik qiluvchi so'zlovchi (jurnalist) tomonidan yuzaga keltiriladi.

Frazeologik birliklarning publitsistik matnlardagi asosiy ifodasi, jurnalist, maqola muallifi va o'quvchi, axborot qabul qiluvchi o'rtasidagi masofani yaqinlashtirib, o'zaro yaqin munosabatni mustahkamlash imkoniyatiga ega. Bunday funksiyani bajaruvchi lisoniy birliklar, o'z navbatida, samarali muloqot kafolati hisoblanadi, nazarimizda. Muloqot jarayonida har bir ko'chma ma'no anglatuvchi so'z birliklari ma'ruzachi tomonidan yaxlit tarzda qayta ishlanishi mumkin yoki aksincha, bir nechta so'zlarning birikmasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Ushbu ijobiy xarakterli ifodani uning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlari bo'ysunishi mumkin bo'lgan turli xil vaziyatlarga moslashtiradi. Shu sababli, jurnalistlar axborot yetkazuvchi sifatida undan nafaqat qabul qiluvchini ishontirish va unga ta'sir

<sup>72</sup> Колошьян В. В. Лексико-стилистическая характеристика французских публицистических текстов экологической тематики. Человек и Наука. М.: 2007

<sup>73</sup> O'sha manba

<sup>74</sup> Isabel González-Rey. La phraseologie du français. Presses universitaires du Mirail, coll. Interlangues, linguistique et didactique, Toulouse. 2002, 268 p.

<sup>71</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), автореф., М.: 2022

ko'rsatishni emas, balki o'zlarining pozitsiyalarini belgilash uchun ham ixtiyoriy ravishda lingvistik birliklarni mohirona saralagani holda yozma nutqdan foydalanishlari ajablanarli emas. Shuni ta'kidlash kerakki, bu o'zgaruvchan bo'lib, diqqatni jalb qilish va iloji boricha ko'proq retseptorlarni jalb qilish uchun kulgili, hatto qaltis istehzoli effektlarni berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lum tildan foydalanuvchilarning FBlarni qay tarzda baholashi til jamoasining ushbu frazeologik birlik bilan tavsiflangan odati, sevimli mashg'uloti, vaziyatiga munosabati bilan bog'liq. An'anaga ko'ra, halollik, olijanoblik, samimiylilik ijobiy baholansa, ikkiyuzlamachilik, yolg'onchilik, aldash salbiy bahoni ifodalaydi. Shu ma'noda, ma'ruzachi va tinglovchining empatiya<sup>75</sup> siga qarab baholashning ikki turini ajratish odatiy holdir: qat'iy va qat'iy bo'lmagan. Zamonaviy lingvistik adabiyotlarda bunday baholash *fluktuation*<sup>76</sup> yoki *vaziyatli*<sup>77</sup> kabi turlarga ajratiladi. Mazkur holatda "vaziyat" atamasi, ya'ni vaziyat bilan belgilanadigan kontekst ko'proq darajada ushbu turdagi baholashning mohiyatini ochib beradi<sup>78</sup>. Yuqorida ko'rib chiqilgan fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, baholashning ijobiy, salbiy va vaziyatbop kabi turlari<sup>79</sup> mavjud.

Tilshunoslar V.N.Teliya va E.S.Aznaurovalar konnotatsiyani mos ravishda hissiy va intellektual baholash turlariga bo'lib tadqiq etgani holda, hissiy ma'no, hissiy va hissiy idrok etish sohasi bilan bog'liq bo'lgan semantik tuzilmaning tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi<sup>80</sup>. Semantik tuzilmaning tarkibiy qismi, shubhasiz, u anglatgan ma'no tomoni hisoblanadi va ratsional baholash sohasi<sup>81</sup> bilan chambarchas bog'liq. Frazeologik birliklar ma'lum bir publitsistik matnda his-tuyg'ularni ifodalasa, demak u ma'noning hissiy komponentiga ega. Bu shuni

<sup>75</sup> Empatiya - bu boshqalarning his-tuygularini tushunish va baham korish qobiliyati

<sup>76</sup> Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. Наука, М.: 1986, 144 с

<sup>77</sup> Соколова Г. Г. Фразеология французского языка. (Семантический аспект фразеологических единиц) Учебное пособие, МГПИ, М.: 1986, 89 с.

<sup>78</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. М.: 2021

<sup>79</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), М.: 2021

<sup>80</sup> Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. Наука, М.: 1986, 144 с, Азнаурова Е.С. Стилистический аспект номинации слова как речевой единицы. М.: 1977. Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. М.: 2021

<sup>81</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), М.: 2021

anglatadiki, hissiy baholash suhbatdoshni ushbu hissiyot-munosabatni boshdan kechirishga undaydi. Hissiy semalar semantikaning ayrim mantiqiy-obyektiv baholovchi va ekspressiv komponentlari asosida vujudga keladi<sup>82</sup>. Masalan, *une vie de chien(it) - une existence très difficile*; *une vie de galerien (oshxona quli) - une vie très dure* frazemalarida asosiy ma'no *une existence très difficile, une vie très dure*, ya'ni frazema tarkibidagi etalon yashash sharoitiga ko'ra, salbiy holat, qiyinlik vaziyatini ifodalab bilvosita salbiy bahoni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, tasvir ikki frazeologik birliklari o'z tilida so'zlashuvchilar ongida salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Rasm, tasavvur salbiy hissiy baholashni kuchaytirish uchun motiv bo'lib xizmat qiladi. Demak, emotivlik so'zlovchining predmetga, jarayonga, sifatga hissiy munosabatini ifodalaydi. Emosemalarni tasniflashda tilshunoslar o'z ixtiyoridagi amaliy materiallarga tayanadilar. Masalan, E.F. Arsenyeva ruscha frazeologik lug'atlarni tahlil qilish asosida 10 ta emosemani ajratib ko'rsatadi: *mehribon - o'ynoqi - istehzoli - norozi - rad etuvchi - qoralovchi - kamsituvchi - kamsituvchi - qo'pol - haqorati*. Tilshunoslikda emosemalar ikki guruhga ajratiladi<sup>83</sup>: ijobiy va salbiy<sup>84</sup>.

Matnda baholash frazemalar orqali ifodalanganda turli mezonlarga ko'ra berilishi mumkin (haqiqat/yolg'on, muhimlik/ahamiyatsizlik va boshqalar) ammo odatda baholovchilarga tegishli bo'lgan ma'nolarning asosiy doirasi "yaxshi / yomon" belgisi bilan bog'liq<sup>85</sup>. Frazeologik birliklarni baholovchi komponent frazemaning muhim elementi bo'lib, ko'pchilik frazeologik birliklar uchun majburiy hamda o'ziga xos xususiyatlarni baholash predmetni qisman yoki to'liq tavsiflashni o'z ichiga oladi. Aksariyat frazeologik birliklar taxminiy fikrni o'z ichiga oladi, chunki frazeologik nomlashda hodisa, harakat, predmetlar nafaqat nomlanadi, balki ayni vaqtda baholanadi. Masalan, *caracoler en tête [v]-être largement en tête*

<sup>82</sup> Шаховский В.И. Типы значений мотивной лексики. Вопросы языкознания №1, М.: 1994, 20-25 с

<sup>83</sup> Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. пособие. Высш. школа, М.: 1986, 336 с

<sup>84</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), М.: 2021

<sup>85</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), М.: 2021

: *avoir beaucoup d'avance* - har sohada ilg'or (so'zma-so'z otga sakrab minmoq) ijobiy bahoni o'z ichiga oladi, XVIII asrda bu ibora ot poygasida oldinda boruvchi chavandozga nisbatan ishlatilgan. Shu bilan birga, baholash ko'pincha shaxsning obyektga, obyektiv-subyektiv yoki subyektiv-obyektiv munosabati sifatida ta'riflanadi, bu bevosita bilvosita lingvistik vositalar bilan ifodalangani, sababi baholashning tabiati aniqlangan bo'lsa-da, ma'lum bir til muhitida qabul qilingan me'yorlarga ko'ra so'zlovchi tomonidan turli vaziyatlardagi voqea-hodisalarni turlicha baholash mumkin<sup>86</sup>. Masalan, qo'rquvni ifodalovchi frazeologizmlarni misol qilib keltirishimiz mumkin: *avoir la chair de poule, prendre ses jambes à son cou, trembler comme une feuille, avoir les jambes en coton, avoir froid dans le dos, avoir les mains qui tremblent, avoir le Coeur qui s'emballé, avoir des sueurs froides, avoir le sang qui se glace dans les veines, avoir la trouille, avoir une peur bleue, être blanc comme un linge, être froussarde, agiter le spectre, attraper la chienne, avoir la peur au ventre, cavaliers de l'Apocalypse, chat échaudé craint l'eau froide, crier à pleins poumons, crier au feu, crier au meurtre, crier case-cou à qqn, crier comme un veau, crier grâce, dernier outrages, donner le frisson, enclorre les faubourgs dans la ville, face contre terre, faire dans son froc, faire la carpe, foutre les boules, foutre les jetons, frisson garanti, glacer le sang, glacer le sang dans les veines, la loi du silence, la zone, le feu du ciel, marcher sur des oeufs, ne craindre ni dieu ni diable, ne pas en mener large, ne reculer devant rien, nid de vipères, rentrer dans sa coquille, rester dans sa coquille, serrez les fesses, tirer les rideaux, tomber en quenouille, trembler comme une feuille, une question me taraude, voir la mort de pres, voir les choses tout en noir*<sup>87</sup> va boshqalar.

Frazeologik birliklarning publitsistik matnda ekspressivlikni ifodalashi borasida so'z yuritadigan bo'lsak, tilshunoslikda ekspressivlik kontekstda, til faktining hukmronlik xususiyatiga qarab intellektual yoki hissiy xarakterni ifodalashi mumkin. Tilning ekspressivligi, tabiatan ijodiy bo'lib, ta'sirchan vaziyatlarda umumiy lingvistik ifoda yetishmovchiliklarini bartaraf etishga imkon

<sup>86</sup> O'sha manba

<sup>87</sup> <https://www.expressio.fr/>

beradi. Komparativ frazeologik birliklarda ham hissiy jihatdan ifodaning kuchayishi (xoh salbiy, xoh ijobiy bo'lsin) ekspressivlik komponentining mavjudligidan dalolatdir. Aynan KFB ekspressivlik komponenti ma'lumot, axborot qabul qiluvchiga ta'sir o'tkazishda kommunikativ vazifani bajara oladi.

Baholash, hissiylik, obrazlilik FBda ekspressivlikning yuzaga kelishiga imkon yaratadi va bu uch component matn bo'yoqdorigini oshirishga xizmat qiladi. Biroq bu omillar orasida yetakchi rol majoziy komponentga tegishli. Frazeologik birliklarning ekspressivlik komponenti asosan birikmaning o'zgartirish, almashtirish mumkin bo'lgan qismlariga aloqador ekanligini ta'kidlanadi. Tarkibiga kiritmalar kiritish orqali frazeologik birliklar ma'nosining yuqori ekspressivligiga erishiladi. Masalan, 1) *être heureux*<sup>88</sup> - baxtli, xursand bo'lmoq iborasi 2) *couler d'heureux jours, être au firmament, être au septième ciel, être au troisième ciel, être aux anges, être heureux comme un poisson dans l'eau, être heureux comme un roi, nager dans la joie, nager dans le bonheur, ne pas se sentir de joie* kabilarning komponentlari o'ziga xos ma'noga ega bo'lgan ikkinchi frazeologik birliklar yuqori ekspressivlikka ega. Frazeologik birliklarning publitsistik matning ekspressivligini oshirishda frazeologik birliklarning ritmik xususiyatlari, alliteratsiya, tautologik konstruksiyalari, leksemalarning juft qo'llanishi, inkor yoki elliptik konstruksiyalar, shakliy jihatdan, struktur-semantik va ritorik xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi<sup>89</sup>. Sababi, bu turdagi matnda jurnalist faqat axborot uzatish bilan cheklanib qolmasdan, umumtil fondidan samarali foydalanib, tarix, adabiyot kabilardan egallagan bilimlarini, doimiy hayotiy kuzatuvlaridan chiqargan xulosalari orqali unga badiiy sayqal berishni muhim deb hisoblaydi. Berilayotgan matn vaziyatiga ko'ra sharhlab, ma'lum ma'noda baholaydi.

Vaziyat bilan belgilanadigan kontekst ko'proq darajada "vaziyatbop" termini orqali ushbu turdagi baholashning mohiyatini ochib beradi. Shu sababdan

<sup>88</sup> Le Petit Robert. Dictionnaire alphabétique et analogique de la langue française. Sous la direction de J. Rey-Debove, A. Rey. Dictionnaires Le Robert, P.: 2017, 402 p.

<sup>89</sup> Бужнова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ), М.: 2021

tadqiqotimiz davomida baholashga nisbatan ijobiy, salbiy, vaziyatbop leksik birliklardan foydalanamiz.

Frazeologik birliklarning stilistik komponenti doimiy bo'lishi muhim. Ammo konnotativ ma'noning ekspressiv komponenti majoziy frazeologik birliklar uchun zaruriy omil, aynan shu xususiyat tasviriylik (metaforik) va ekspressivlikni idodalaydi. Majoziy bo'lmagan frazeologik birliklarda ifodali komponent mavjud emas. Konnotativ ma'noning baholovchi va emotsional komponentlari haqida ham shunday deyish mumkin. Ko'chma komponentni ma'noning konnotativ yoki denotativ tomoniga bog'lash masalasi haqida gap ketganda, uning hali hanz bahsli bo'lib qolayotganligiga guvoh bo'lamiz. Ba'zi tilshunoslar frazeologik birlikning ma'nosi obrazlilik asosida shakllanib, o'zgaruvchan iboraning tarkibiy qismlaridan birini qayta ko'rib chiqish<sup>90</sup>, o'zaro ta'siri natijasidir deb izohlaydilar.

Obraz assotsiatsiyalar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin, ular asosida esa konnotativ ma'no shakllanadi. Tasviriylik predmetli (ratsional) mazmunni vizual-majoziy, ekspressiv-tasviriy shaklda yetkazishga yordam beradi, xabarning hissiy idrokiga murojaat qiladi, dunyoning hissiy tajribasini uyg'otadi.

Zamonaviy tilshunoslikda obrazlilik va motivatsiya tushunchalari ichki shakl tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. FB ma'nosi tarkibida majoziylik, obrazlilik ustunlik qilishi publitsistik matn tarkibida informatsiyaning hissiy va ekspressivligini oshiradi. Frazeologiyada semantik frazemaning ichki shaklini o'rganish muhim, sababi u ma'lum tilning milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatini tashuvchisi bo'lish bilan birga, motivatsiya va obrazlilikni ham o'z ichiga oladi<sup>91</sup>. Frazeologik birliklarning ichki shakli leksik birliklarga qaraganda ancha barqarorligi bilan ajralib turadi. Darhaqiqat, bu lisoniy birliklar hosil bo'lishining o'ziga xos xususiyatlariga ega. Aniqrog'i, frazeologizmlar har doim ko'chma ma'noli, shuningdek, milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlar, tarixiy voqealarga asoslangan

<sup>90</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: 1996, 190 с. Буянова Ю.В. Прагматический аспект значения компаративных фразеологических единиц (на материале современного французского языка). Журнал Казанская наука, №7, Казань: 2017, 29-33 с.

<sup>91</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ). М. 2021

holda yaratiladi. Bu esa, o'z navbatida, publitsistik matn tarkibida ishlatilganda xabar oluvchining ongida milliy-madaniy, tarixiy obrazlarning xabar mazmuniga muvofiq tarzda in'ikos etishini ta'minlaydi. Frazeologik birliklarning ichki shaklini, belgilashning shaffofligini tushunish, majoziy xususiyatini idrok etishni oson bo'lishi ba'zida uning bevosita nomlanishi bilan ham bog'liq. Masalan, *peigner la girafe* [v](so'zma so'z:jirafani tarantirmoq) *faire un travail inutile et très long*; *ne rien faire d'efficace*; *paresser*; *pisser dans un violon*; *perdre son temps*; *ne rien faire d'intéressant*; *se dépenser sans efficacité, pour rien*; *effectuer en vain une tâche très longue*; *travailler inutilement*; *ne rien faire de son temps* - befoyda ishga uzoq vaqt sarflamoq, vaqtini behuda o'tkazmoq ma'nosini anglatuvchi frazeologik birlikning motivatsiyasi asosini jirafa bo'yining uzunligi va aslida tarash uchun zarurat yo'qligini ifodalashi asosida frazeologik sema shakllanadi.

Demak, frazeologik birliklar, jumladan komparativ frazeologik birliklar komponentlari, publitsistik matn tarkibida ishlatilishi orqali matn mazmunida quyidagi qo'shimcha ma'nolarni ifodalay olish xususiyatiga ega<sup>92</sup>:

1. Publitsistik matnda berilayotgan ma'lumot inson ijtimoiy rolini stilistik-uslubiy jihatini ifodalay oladi;
2. Mavjud axborotni yetkazishda FB orqali emotsional/hissiylikni ifoda etish mumkin;
3. Baholash, so'zlovchilarning, aniqrog'i, ma'ruzachilarning umumiy yoki individual holati haqidagi nuqtayi nazarini ko'rsatib beradi;
4. Ekspressivlik frazemalarning obrazlilikini kuchaytirgani holda publitsistik matn ifodaliligini ham oshiradi;
5. Tasviriylik solishtirilayotgan obyektning xarakteristikasini ifodalashi yoki aksincha taqqoslanayotgan tasvirga aloqador bo'lmagan ma'no ifodalaydi.

<sup>92</sup> Колошьян В.В. Лексико-стилистическая характеристика французских публицистических текстов экологической тематики. М.: 2007

## 1 – bob bo'yicha xulosalar

1. Fransuz publitsistik matnlaridagi axborot o'zining xolisligi, uslubi, axborot ierarxiyasi va fikrlarning rang-barangligi (plyuralizm) bilan ajralib turadi.
2. Barcha frazeologik birliklar bilvosita nominatsiya birliklari bo'lib, o'ziga xos ma'no turilari hisoblanmish denotativ va konnotativ jihatlarni o'z ichiga oladi. Frazeologik birliklarning semantik tarkibida leksik ma'nodan farqli ravishda konnotativlik ustunlik qiladi.
3. Frazeologik birliklarning konnotativ jihati ma'lum kontekst, gapda nutq predmetining voqea-hodisaga nisbatan emotsional bahosi, shu bilan birga, stilistik jihatdan anglatgan ma'nolar yig'indisidir.
4. Komparativ frazeologik birliklarning ekspressivlik, hissiylik, obrazlilik, stilistik kabi komponentlari publitsistik matn tarkibida ishlatilganda matn ifodaliligini oshirishga ma'lum ma'noda xizmat qiladi.
5. Stilistik konnotatsiya ijtimoiy vaziyatlar va uslublar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olsa, baholash komponenti - belgining umumiy xarakterini yoki uning individual vaziyatda ishlatilishi haqidagi mulohazalarni o'zida namoyon etadi. Emotsionallik komponenti subyektning ma'lum voqelikka munosabatini o'zida aks ettiradi. Ekspressivlik esa frazemalarning obrazlilik hamda ifodaliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
6. Tasviriylik spilishtirilayotgan obyektning xarakteristikasini ifodalashi yoki aksincha taqqoslanayotgan tasvirga alqador bo'lmagan ma'no ifodalaydi.
7. Baholashning o'zgaruvchan va o'zgarmas komponentlari mavjud. Baholashda barcha komponentlar ma'lum frazema tarkibida bir vaqtning o'zida bo'lishi majburiy emas, stilistik komponent barcha frazeologik birliklar uchun invariant hisoblanadi.
8. Ko'chma ma'noli frazeologik birliklar uchun stilistik komponentdan tashqari konnotativ ma'noning ekspressiv komponenti ham o'zgarماسdi.

## II BOB. FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARIDA KOMPARATIV FRAZEOLIGIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

### 2.1. Fransuz komparativ frazeologik birliklarini o'rganishdagi asosiy yondashuvlar.

Bugungi kunda tilshunoslikda komparativ frazeologik birliklar semantikasini o'rganish ularni qaysi jihati tadqiqotchini qiziqtirishiga qarab taqqoslash komponentlari soni bo'yicha uch yo'nalishda amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Ular:

1. shaxs tomonidan o'xshatish orqali tasvirlangan obyektiv voqelikning ushbu bo'lagini o'rganish<sup>1</sup>;
2. o'xshatish asoslarini o'rganish<sup>2</sup>;
3. o'xshatish obyektini o'rganish<sup>3</sup>.

Mazkur ishda komparativ frazeologik birliklarni asosan o'xshatish va asos obyektini o'rganish yo'nalishlari orqali tadqiq etamiz. Buning asosiy sababi komparativ frazeologik birlikning semantik tarkibiy qismlarini solishtirish asosi, ichki shakli hamda obyektini o'rganish orqali nisbatan osonroq tushuniladi. Frazeologik birliklar mazkur turning o'ziga xos sifati taqqoslash predmeti va obyektning turg'unligi, shuningdek, qiyosiy semantika va qiyoslash asosida yotgan atributning doimiyligidir.

Frazeologik taqqoslashning qo'llanish doirasi borasida tilshunos olim K.M.Gyulumyans fikr bildirar ekan, ularning qo'llanish doirasi cheklangan va ushbu cheklash komparativ frazeologizmlar faqat obyektiv voqelikning ba'zi

<sup>1</sup> Гюлюмянц К.М. О характере лексической сочетаемости устойчивых сравнений. Тула: 1968, 228-229 с.  
Огольцев В.М. Устойчивые сравнения в системе фразеологии. М.: 2010, 192 с.

<sup>2</sup> Шмелева Т.В. К проблеме национально-культурной специфики "эталона", сравнения (на материале английского и русского языков. Наука, М.: 1988, 120-124 с.; Дмитриева Н.В. Актуализация различных видов признаков в адекватных сравнениях русского и английского языков. Филология и культура: Материалы II Международной конференции. В 3-х частях, Тамбов: 1999, 168-177 с.

<sup>3</sup> Маслова В.А. Сравнение-стереотип как фрагмент образа мира и его национальная специфика. Языковое сознание и образ мира. XII Междуна. Симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации, М.: 1997, 101-102 с.; Степанов Ю.С. Французская стилистика (в сравнении с русской). Учеб. пособие, М.: 2009, 360 с.

qismlarini tavsiflaydi, ularning turli tillarda nomuvofiqligi haqida taxmin qilishga imkon beradi, deb ta'kidlaydi<sup>4</sup>.

Bu muammo ko'plab tadqiqotchilarning tadqiqot obyektiga aylangan. Masalan, fransuz va rus komparativ frazeologik birliklarining semantikasini taqqoslab, Y.S.Stepanov<sup>5</sup> mavzuni meta-tavsiflash (maydon yondashuvi) va taqqoslash usulidan foydalanadi, bu esa taqqoslash yo'li bilan "modellashtirilgan" tashqi dunyoning bir qismini belgilashga va bunga qaysi obyektlar orqali erishilganligini kuzatishga imkon beradi. U o'z fikrini davom ettirib, bu sohalar turli tillarda bir-biriga mos kelmaydi, har bir tilda so'zlovchilar taqqoslash va metafora uchun murojaat qiladigan "sevimli obyektlar"i mavjud degan xulosaga keladi. Komparativ frazeologizmlarning konnotativ ma'nolarini badiiy matnda ishlatilishini rus tili materiallari asosida tahlil qilgan tilshunos olim N.I. Demyanovich frazeologik birliklarning bu qatlami emotsional va ekspressiv nuanslar bilan ifodaning ma'nosini kuchaytirishga qodir<sup>6</sup>, degan fikrni bildirib o'tadi.

Komparativ frazeologik birliklar "milliy ongga ishora beradigan eng yorqin majoziy vositalardan biri"<sup>7</sup> dir. Ikki yoki undan ortiq tillar materiallari bo'yicha ko'plab qiyosiy tadqiqotlarda<sup>8</sup> komparativ frazeologik birliklarning stereotip standartlarini tahlil qilish orqali milliy tafakkurning xususiyatlari ishonchli tarzda ochib berilgan. Alohida komparativ frazeologizmlar standartlari mavjudligi bilan bir qatorda, ko'plab olimlar turli tillar uchun universal taqqoslashlar mavjudligini qayd etadilar. Tilshunoslikda bu hodisa tillararo chog'ishtirish deb ataladi.

Nazarimizda, uning sabablarini har doim ham faqat boshqa tillardan qarz olish jarayoni yoki umumiy manbaa, mifologiya kabilar bilan izohlab bo'lmaydi. Xuddi shu kundalik hayot, odamlarning urf-odatlari va tabiat hodisalari bir xil standartlar-stereotiplarni keltirib chiqarishi mumkin.

<sup>4</sup> Гюлюмянц К.М. О характере лексической сочетаемости устойчивых сравнений. Тула 1968, 228-229 с.

<sup>5</sup> Степанов Ю.С. Французская стилистика (в сравнении с русской). Учеб. пособие. М.: 2009, 162-167 с.

<sup>6</sup> Демьянович Н.И. Особенности семантики устойчивых сравнений бытийного состояния в русском языке. Болгарская русистика №6, 1985, 46-50 с.

<sup>7</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие, М.: 2001, АСАДЕМИА, 145 с.

<sup>8</sup> Холманских И.В. Компаративные фразеологические единицы с компонентом-зоонимом (на материале русского и болгарского языков) Автореф. дисс. канд. филол. наук, Тюмень: 2000, 21 с.; Маслова В.А. Сравнение-стереотип как фрагмент образа мира и его национальная специфика. Языковое сознание и образ мира. ХИИ Между. симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации. М 1997, 101-102.

Ko'pgina tadqiqotchilar ma'lum bir leksik birlikni FB standarti sifatida tanlashning asosi nima degan savolni ko'taradilar. Shu maqsadda ikkinchisining semantik tahlili o'tkaziladi, ushbu leksik birlik qaysi sohalariga tegishli ekanligi, u olib boradigan assotsiatsiyalarning tabiati va taqqoslash obyektiga sifatida tanlovning asoslilik darajasi aniqlanadi.

Komparativ frazeologik birliklarning ma'no motivatsiyasiga ko'ra ularni semantik jihatdan tasniflashning ikki guruhi:

- o'xshatish zamonaviy til nuqtayi nazaridan hech qanday mazmun bilan to'ldirilmagan shaklga ega bo'lgan frazeologik birliklar;
- o'xshatishning real holatini aks ettiruvchi frazeologik birliklar (taklif qilinadi)<sup>9</sup>.

Guruhlar orasidagi chegaralar o'zgaruvchan, chunki haqiqatning yo'qolishi yoki unutilishi nisbatan motivatsiyaning yo'qolishiga olib keladi.

Komparativ frazeologizmlarning motivlashish muammosidan tashqari, o'xshashlik asosida ko'rsatilgan atribut leksik birlik ma'nosida o'xshashlik me'yori bo'lib xizmat qiladi, har qanday tasvir ma'lum miqdordagi elementlardan yoki elementar belgilardan iborat bo'lib, bunday murakkab struktura ko'plab tasvirlarni yaratishi mumkin. Biroq belgilar insonning aqliy jarayonlari uchun, shubhasiz, ahamiyatga ega. Chunki ular ma'noning psixologik tuzilishi va faoliyatida hal qiluvchi omillardan sanaladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, so'z ma'nosida har bir xususiyat semaga aloqadordir. Ba'zi xarakterli xususiyatlar, KFB ta'rifida bevosita aks etmaydi, balki periferik sema sifatida so'z ma'nosiga kiritilgan bo'ladi. Bular muhim bo'lmagan belgilar bo'lib, bir vaqtning o'zida tegishli til va madaniyat so'zlovchilari uchun muhim bo'lgan o'ziga xos fazilatlar va munosabatlarni aks ettiradi, xarakterli xususiyatlar doimiy va ehtimoliy bo'lishi mumkin.

Doimiy xarakterli mos xususiyat so'zining ma'nosida ajralmas belgi sifatida mavjud (masalan, *être blanc comme neige* -(qordek oppoq bo'lmoq) har qanday qor

<sup>9</sup> Ионова И.А. Адъективные фразеологические единицы со структурой сравнения в современном русском языке. М.: 1975, 97-101.

har doim oppoq, har qanday oq rang/obyekt qor emas) bunda umumiy qabul qilingan g'oyaga e'tibor qaratish lozim, zero tabiatda qoming pushti rangi ham borligi aytilib o'tiladi, yoki *dur comme fer, claire comme le cristale, maigre comme un clou, mouet comme une carpe* va hokazo.

Ehtimoliy xarakterli xususiyatlar zaruriy sema sifatida so'z ma'nosiga kiritilmagan va bunday turdagi tipik obyektning tushunishimizning zaruriy belgilari ro'yxatiga kiritilmaganlaridir. Shu bilan birga, ma'lum sharoitlarda so'z ma'nosida ehtimollik xususiyatining namoyon bo'lish ehtimoli ham istisno qilinmaydi (masalan, *malheureux comme les pierres, heureux comme un poisson*). Biroq tadqiqotchilarning o'zlari ta'kidlashlaricha, komparativ frazeologizmlarni indikativ yondashuv nuqtayi nazaridan ko'rib chiqayotganda, ular tegishli nomlar bilan ulardan uzoqda bo'lishadi, masalan, *être comme l'âne de Buridan*,<sup>10</sup> *fin comme Gribouille*<sup>11</sup>, *manger comme un Gargantua, manger comme un Pantagruel*<sup>12</sup>, bu turdagi frazeologik birlik o'zining genetik prototipi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunday frazeologik birlikning mazmun plani, albatta, etimologik tahlilni taqozo etadi.<sup>13</sup>

Komparativ frazeologik birliklar dunyoning frazeologik tasviri va til tafakkurining milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishda alohida o'rin tutadi.

Komparativ frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak, tadqiqotchilar frazeologik birliklarning mazkur maxsus alohida guruhini tadqiq etishda asosan turg'un o'xshatish, shuningdek, komparativ frazeologik birliklari terminlaridan foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Ularni sinonimi va invariant sifatida tadqiq qiluvchi tadqiqotchilarni ham uchratish mumkin. Biroq ba'zi tilshunoslar<sup>14</sup> komparativ frazeologik birlik temini afzal

<sup>10</sup> hésiter ; être incédis ; hésiter indéfiniment ; ne pas savoir quel parti prendre  
<sup>11</sup> sot ; stupide ; il est sot ; il est stupide  
<sup>12</sup> avoir un gros appétit

<sup>13</sup> Qurbonova G.S. Fransuz-o'zbek tillarida onomastik komponentli frazeologizmlarning milliy-tisoniy xususiyatlari PhD dissertatsiyasi. T. : 2019.

<sup>14</sup> Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. М.: 2010, 216 с; Мусаев К. Таржима назарияси асослари. Т.: 2005, 352; Назарян А.Г. Фразеология современного французского языка. М.: 1987, 288 с.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. М.: 2010, 216 с.; Ротт Э.Х. Компаративные фразеологизмы в русских, немецких и французских языках. Вопросы романо-германского языкознания. Материалы межвузовской конференции. Челябинск: 1967, 115-121 с.

ko'rishsa, boshqalari<sup>15</sup> turg'un o'xshatish so'z birikmalarini o'z tadqiqotlarida ishlatishadi.

Komparativ frazeologik birlik (KFB) va turg'un o'xshatish konstruksiyalari o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha yana bir nuqtayi nazar mavjud: unga ko'ra bu ikki tushuncha semantik jihatdan teng emas<sup>16</sup>, deb hisoblanadi. Komparativ frazeologik birliklar va o'xshatish so'z birikmalarining ikkisi ham taqqoslash konstruksiyali bo'lib, takrorlanuvchanligi va umumiy qo'llanilishi bilan tavsiflanadi.

Komparativ frazeologik birliklar tarkibiy qismlarida arxaizatsiya natijasida o'xshatish munosabatlarning susayishi yoki butunlay yo'qolishi mumkin. Taqqoslash predmetining zaiflashishi, motivatsiyaning yo'qligi, tasvirning yo'qolishi fonida chog'ishtirish holati til shtampiga, klishhega aylanib, yangi kuchaytiruvchi ma'no rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Tilshunoslar o'z tadqiqotlari jarayonida komparativ frazeologik birliklar yoki turg'un o'xshatish so'z birikmalarini ifodalashda turli terminlardan foydalanganligini ko'rish mumkin. Masalan, barqaror/turg'un taqqoslash (*comparaison figée*)<sup>17</sup>, uzual taqqoslash (*comparaison usuelle*)<sup>18</sup> turg'un ravishlar (*adverbe figé*)<sup>19</sup>, intensive komparativ konstruksiya (*construction comparative intensive*)<sup>20</sup> shular jumlasidandir.

Olimlar fransuz tilshunoslarining komparativ frazeologik birliklar semantikasini o'rganishga minimal qiziqishlari to'g'risida bilimlarning yetishmasligini ta'kidlaydilar<sup>21</sup>. Komparativ frazeologik birliklar kamdan kam

<sup>15</sup> Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии. Монография. Краснодар. 1999, 196 с; Маслова В.А. Сравнение-стереотип как фрагмент образа мира и его национальная специфика. Языковое сознание и образ мира. XII Междунар. симпозиум по психолингвистике и теории коммуникации. М.: 1997, 101-102 с.

<sup>16</sup> Орлова В.М. Устойчивые сравнения в системе фразеологии. М.: 2010, 192 с.

<sup>17</sup> Sgrava M. A propos des locutions comparatives en FLE. L'information grammaticale, Janvier №48, P. :1991, 14-25.

<sup>18</sup> Cazelles N. Les comparaisons du français. Belin. 1996, 336 p.

<sup>19</sup> Gross M. Une famille d'adverbes figés : les constructions comparatives en comme. Revue québécoise de linguistique, Montréal : Université du Québec à Montréal. 84, Vol. 13, № 2, pp.237-269.

<sup>20</sup> Leroy S. Les constructions comparatives intensives dans Illusions perdues. L'information Grammaticale, P. : 2003, № 99, p. 39-42.

<sup>21</sup> Сластникова Т.В., Лансман М.Д. Фразеология в работах французских исследователей в диакронии. Фразеологические науки. Вопросы теории и практики № 7, Ч.2 М.: 2016, 167-171 с.

hollarda fransuz tilshunoslarining maxsus tadqiqot obyektiga aylangan. Masalan, Sharlot Schapira<sup>22</sup> qiyosiy frazeologik birliklarni *locutions stéréotypées-klishé/clichés* sifatida, Marian Desme<sup>23</sup> esa komparativ konstruksiya turlaridan biri (*construction comparative / comparaison du standard*) deb tadqiq qiladi.

Bizning nazarimizda, komparativ frazeologik birlik atamasi bu o'rinda ustunlik qiladi. Birinchidan, u tasvirlangan iboralarning mohiyatini shaffof aks ettiradi, tilning frazeologik fondiga mansubligi va qiyosiy asosning mavjudligiga ishora beradi. Quyida komparativ frazeologik birlik deganda majoziy asosda paydo bo'lgan, semantik asosda frazeologik ma'noga ega bo'lgan, tarkibi erkin sintaktik birlikma tushuniladi. Ularning komponenti muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olgan holda quyida ular tahliliga e'tibor qaratamiz.

## 2.2. Komparativ frazeologik birliklarning obrazli-motivatsion asoslari

Umuman barcha frazeologik birliklarda, xususan, komparativ frazeologik birliklarda ularning asosiy mezonlaridan biri hisoblangan motivatsiya tushunchasi uzoq tarixga ega. Frazeologik birliklar ma'nosining ravshanligi haqidagi fikr juda keng tarqalgan, ammo barcha frazeologizmlar shaffof semantik tuzilishga ega emas<sup>24</sup>.

Komparativ frazeologik birliklarda komponent, aniqroq aytganda, tasvirning tashuvchisi, subyektga qarashli sifat standarti vazifasini bajaradi. Bunday komponentli iboralar millat ongiga tanish, ishlatilish doirasi aniq bo'lgan umumiy kleshe sifatlarini in'ikos ettiradi.

Ushbu tadqiqotda motivatsion asosni o'rganish uchun *assotsiatsiya*<sup>25</sup> tushunchasini ishlatish maqsadga muvofiq, zero ikki psixik hodisalar o'rtasida

<sup>22</sup> Schapira Ch. Les stéréotypes en français : proverbes et autres formules. OPHRYS, P. : 1999, 172 p.

<sup>23</sup> Desmets M. Constructions comparatives. Langue française. P. : 2008, № 3(159), p. 33-49.

<sup>24</sup> Бузинова Ю. В. Прагматический аспект значения компаративных фразеологических единиц (на материале современного французского языка). №7 *Казанская Наука*. 2021. Mortureux M.F. Les stéréotypes en français : proverbes et autres formules. P. : 1999, OPHRYS, 172 p.

<sup>25</sup> assotsiatsiya [lot. associatio-go'shlima, birlashma] 2. psx. Nerv-miya faoliyati bilan bog'liq bo'lgan alohida psixik aktlar, ya'ni tasavvurlar, fikrlar, his-tuyg'ular orasidagi bog'lanish va shu bog'lanishga asoslangan idrok. O'xshashlik natijasidagi assotsiatsiya. [O'TIL, 110-b].

assotsiativ bog'lanish mavjud, ma'lum hodisaning inson ongida paydo bo'lishi tabiiy ravishda keyingi hodisaning ongda paydo bo'lishiga olib keladi. O'zaro assotsiatsiyalarning *ingerent*<sup>26</sup> va *adgerent*<sup>27</sup> turlari mavjud<sup>28</sup>.

Ingerent, ya'ni ajralmas yoki bir tartibli assotsiativ bog'lanishlar so'z bilan belgilangan obyektning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq va belgining o'zi bilan bir xil ontologik<sup>29</sup> maqomga ega masalan, *le centre de la flamme kabi*.

Adgerent-chatishgan assotsiativ bog'lanishlar ongda assotsiativ aloqalarni begona sferaga (masalan, *souhais lumineux et blancs*) o'zgartiruvchi ontologik harakat tufayli paydo bo'ladi. Assotsiatsiyalar bilan bog'liq bo'lgan konnotativ xususiyatlar ekspressivlik xususiyatga ega bo'lgan va belgilangan so'z uchun mos bo'lmagan xususiyatlarni aks ettirishi bilan ahamiyatli.

Asos va taqqoslash etalon<sup>30</sup>ni integral assotsiatsiyalar asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklar tarkibi har doim ham bir xil emas. Etalon bilan bog'lanish darajasiga ko'ra, komparativ frazeologizmlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

I. Asos etalonning tan olingan tabiiy xususiyati hisoblanadi. Uning namoyon bo'lishi majburiydir. Bu yerda ikkita mumkin bo'lgan holatlar mavjud:

1) taqqoslash asosi etalonning ajralmas xususiyati sifatida ko'rib chiqiladi va uning ta'rifi lug'at orqali izohlanadi;

2) taqqoslash asosi etalon sifatida ishlaydigan leksik birlik lug'at izohida aks ettirilmaydi, shunga qaramay uning xususiyatlaridan biridir.

II. Asos etalonning tabiiy xususiyatlariga zid emas, lekin uning namoyon bo'lishi shart ham emas. Bu yerda ham ikkita mumkin bo'lgan holatlar mavjud:

<sup>26</sup> inhérent, inhérente adj., (latin scolastique *inherens, -entis, de inherere, être fixé dans*) Qui est lié d'une manière intime et nécessaire à quelque chose, inseparable [ <https://www.larousse.fr/> ].

<sup>27</sup> adhérent, adhérente adj (latin *adhaerens*) 1. Qui est fixé, fortement attaché à quelque chose, qui colle à quelque chose : Papier peint très adhérent au mur. 2. Qui a la propriété de se fixer, de se coller : Une résine très adhérente. [ <https://www.larousse.fr/> ]

<sup>28</sup> Телня В.Н. Экспрессивность как проявление субъективного фактора в языке и ее прагматическая ориентация. Человеческий фактор в языке. Языковые механизмы экспрессивности. М: 1991, Наука, с.5-36

<sup>29</sup> Ontologiya-borliq haqidagi ta'limot

<sup>30</sup> Etalon-[fr. Etalon-namuna] Biror narsaning ideal namunasi, o'Ichovi yoki turi, o'Ichov birliklarining hozirgi kundagi fan va texnika erishgan eng yuqori aniqlik bilan qayd etish, saqlash va tarqatish uchun xizmat qiladi. [O'TIL, E 60-b]

1) asos etalonning til umumiyliigi sifatida qaralib, uning izohi/belgisi asosida shakllanadi ya'ni, uning semantikasiga zid kelmaydi:

2) asos etalonning tabiiy xususiyati emas, lekin u muayyan, zarur sharoitlarda uning xos omili sifatida ahamiyatli bo'lishi mumkin.

Quyida yuqoridagi frazeologik birliklar guruhlarining har birini misollar yordamida alohida ko'rib chiqamiz. Dastlab integral assotsiatsiyalar asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklarga (I.1.) e'tiborimizni qaratamiz:

2-jadval

Komparativ xususiyatli frazeologik birliklar	Komparativ xususiyatli FBlar etalonining [PR] lug'atdagi izohi
Clair comme le jour [ARSC :180]	Source de lumière naturelle. <i>clarté qui permet de voir.</i>
Juger/parler de qqch. comme un aveugle des couleurs [ARSC :42]	1. Personne privée de la vue. 2. locution adverbiale En aveugle : sans réflexion, au hasard. 3. <i>Test effectué en aveugle, sans que le sujet connaisse les hypothèses de départ; en double aveugle, le sujet et l'expérimentateur ignorant tous deux ces hypothèses.</i> À l'aveugle littéraire : sans voir.
être gros comme une baleine [ARSC :50]	Mammifère cétacé de très grande taille (jusqu'à 20 m de long), dont la bouche est garnie de lames cornées (les fanons).
fumer comme une pompier [ARSC :651]	1. Personne appartenant au corps des sapeurs-pompier, chargé de combattre incendies et sinistres.
maigre comme un clou [ARSC :521]	Petite tige de métal à pointe, souvent à tête, qui sert à fixer, assembler, suspendre.
Jaune comme de la cire [ARSC :179] (très jaune)	Matière molle, jaunâtre, produite par les abeilles.
Jaune comme un citron [ARSC :450]	Fruit jaune du citronnier, agrume de saveur acide.
trempé comme une soupe [ARSC :734]	1. Tranche de pain arrosée de bouillon. 2. Potage ou bouillon épaissi.
amer comme chicotin [ARSC :186]	Suc très amer d'un aloès.
détaler comme un lièvre [ARSC :476]	Mammifère rongeur voisin du lapin, à l'allure très rapide, et qui vit en liberté.
dormir comme un loir [ARSC :290]	Petit mammifère rongeur, hibernant, à poil gris et à queue touffue.
franc comme l'or [ARSC :607]	Métal précieux jaune, brillant, inaltérable et inoxydable

glisser comme une anguille [ARSC :25]	Poisson d'eau douce de forme très allongée, à peau visqueuse et glissante, qui vit en eau douce et se reproduit en mer.
noir comme un corbeau [ARSC :549]	Grand oiseau à plumage noir ou gris.
Dur, pur comme un diamant [ARSC :279]	Pierre précieuse (carbone pur cristallisé), la plus brillante et la plus dure de toutes, le plus souvent incolore.
rapide comme l'éclair [ARSC :704]	Lumière intense et brève, formant une ligne sinueuse, ramifiée, provoquée par une décharge électrique pendant un orage.
boire comme une éponge [ARSC :81]	Substance légère et poreuse qui peut absorber les liquides et les rejeter à la pression : objet fait de cette substance.
dur comme du granit [ARSC :279]	Roche dure, formée de cristaux de feldspath, de quartz, de mica, etc.
sauter comme une grenouille [ARSC :717]	Batracien aux pattes postérieures longues et palmées, à peau lisse, nageur et sauteur.
blanc comme neige [ARSC :543]	Eau congelée dans les hautes régions de l'atmosphère, et qui tombe en flocons blancs et légers.
dur comme le roc [ARSC :701]	Matière rocheuse et dure.
chanter / siffler comme un rossignol [ARSC :726]	Oiseau passereau, au chant varié et harmonieux.
rouge comme du sang [ARSC :707]	Liquide rouge, visqueux, qui circule dans les vaisseaux, à travers tout l'organisme, où il joue des rôles essentiels et multiples.
noir comme de la suie [ARSC :737]	Noir de fumée mêlé d'impuretés que produisent les combustibles qui ne brûlent qu'incomplètement.
courir comme un zèbre [ARSC :835]	Équidé d'Afrique, voisin de l'âne, à la robe rayée de bandes noires ou brunes, au galop très rapide.
rouge comme une tomate [ARSC :760]	Plante potagère annuelle cultivée pour ses fruits. Fruit sphérique rouge de cette plante.
frisé comme un mouton [ARSC :537]	Mammifère ruminant domestiqué, à toison laineuse et frisée.
rouge comme une pivoine [ARSC :701]	Plante à bulbe, cultivée pour ses larges fleurs rouges, roses, blanches ; sa fleur.
rond comme une galette [ARSC :704]	Gâteau plat et rond fait d'un mélange très simple.
chaud comme dans un four [ARSC :386]	Ouvrage ou appareil dans lequel on soumet des matières à une chaleur intense, pour obtenir des transformations physiques ou chimiques.

rouge comme <i>une cerise</i> [ARSC :139]	Petit fruit charnu arrondi, à noyau, à peau lisse brillante, <i>rouge</i> , parfois jaune pâle, produit par le cerisier.
Droit comme <i>un cierge</i> [ARSC :295]	1.Chandelle de cire, longue et effilée, en usage dans les églises.2.Plante grasse de l'Amérique tropicale qui forme de <i>hautes colonnes verticales</i> .


Keyingi jadvaldagi komparativ frazeologik birliklarda asos etalonning ajralmas xususiyatini ifodalaydi, lekin *etalonning lug'at ta'rifida asos ko'rsatkichi mavjud emas*. Integral assotsiatsiyalar asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklar(1.2)ga misollar:

3-jadval:

Komparativ xususiyatli FB lar	KFB etalonining lug'atdagi izohi	KFB belgisining lug'atdagi izohi
doux/tendre comme <i>une agneau</i> [ARSC :16]	Petit de la brebis.	très doux
malin comme <i>un singe</i> [ARSC :523]	Mammifère (primate) à face nue, au cerveau développé, aux membres préhensiles à cinq doigts.	astucieux, futé
boire comme <i>un trou</i> [ARSC :774]	Abaissement ou enfoncement naturel ou artificiel de la surface extérieure (de qqch.)	boire immodérément, être ivrogne
Eclater, tomber, arriver comme une <i>bombe</i> [ARSC :84]	Projectile creux rempli d'explosif.	soudainement
haut comme <i>ma (une) botte</i> [ARSC :91]	Chaussure qui enferme le pied et la jambe.	tout petit
Mou comme <i>un chiffre</i> [ARSC :172]	Chacun des caractères qui représentent les nombres. Nombre représenté par les chiffres	absolument muet
Beau comme <i>un dieu</i> [ARSC :187]	Principe d'explication de l'existence du monde conçu comme un être personnel, selon des modalités particulières aux croyances, aux religions.	admirablement beau
Muet comme <i>une carpe</i> [ARSC :129]	Gros poisson d'eau douce couvert de larges écailles.	absolument muet, silencieux

Camarad, amis comme <i>cochons</i> [ARSC :187]	Porc élevé pour l'alimentation.	très amis
Drôle comme <i>un coffre</i> [ARSC :188]	Meuble de rangement en forme de caisse qui s'ouvre en soulevant le couvercle. Caisse où l'on range de l'argent, des choses précieuses.	très comique
fier comme <i>Artaban</i> [ARSC :34]	Artaban était selon l'historien grec Ctésias, le satrape de Bactriane à l'époque de l'assassinat de Xerxès I er aux mains d'un autre Artaban.	très fier
Saoul comme <i>un âne</i> [ARSC :22]	Mammifère domestique ( <i>équidé</i> ), plus petit que le cheval, à longues oreilles, à robe généralement grise	Complètement saoul
Bête comme <i>une veau rouge</i> [ARSC :22]	Petit de la vache, mâle ou femelle, pendant sa première année.	méchant, médiocre
Gueler (beugler...) comme <i>un âne</i> [ARSC :23]	Mammifère domestique ( <i>équidé</i> ), plus petit que le cheval, à longues oreilles, à robe généralement grise.	crier, hurler
Chanter, parler comme un(les) <i>ange(s)</i> [ARSC :24]	Être spirituel, intermédiaire entre Dieu et l'homme, messenger des volontés divines.	à la perfection, calme, patient

Shunday qilib, ushbu guruhga tegishli komparativ frazeologizmlar ko'p hollarda etalonlarining jismoniy xususiyatlari: rangi, og'irligi, qattqlik kabilarni namoyon qilish ko'rsatkichiga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, asosning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan komparativ frazeologizmlar ko'p emas, tadqiqot davomida tahlil qilingan shu turdagi frazeologik birliklarning 402 tasidan 32 tasi asos xususiyatiga bog'liq bo'lmagan ma'noni ifodalagan. Uzviy qiyoslashlar tarkibidagi ikki guruhning nisbati quyidagicha ifodalanadi(1-diagramma):



Ko'rinib turibdiki, asos etalon bilan bog'liq bo'lgan ikkinchi guruhning komparativ frazeologizmlari ustunlik qiladi, ya'ni etalon ko'rsatilgan xususiyatning maksimal namoyon bo'lish darajasiga ega ekanligi e'tirof etiladi, ammo bunday chatishish subyektivdir. Bu xususiyat ehtimoliy bo'lib, etalon har doim ham bunday hukmga egalik qilolmaydi. Bu vaziyatni quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz. Integral assotsiatsiyalari ehtimoliylik asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklar(II.I) ga misollar:

4-jadval

Komparativ xususiyatli FB lar	KFB etalonining lug'atdagi izohi	KFB belgisining lug'atdagi izohi	Komparativ xususiyatli FB lar tarjimasini
Maigre comme un coucou (iron) [ARSC :224]	Oiseau grimpeur insectivore, de la taille d'un pigeon, au plumage gris cendré barré de noir, dont la femelle pond ses œufs dans le nid d'autres oiseaux.	Tres maigre	O'ta (cho'pday) ozg'in (so'zma so'z: qushday ozg'in) FB etalonida ozg'inlik, ingichkalik xususiyati mavjud emas lekin uning chaqqonlik xususiyati ongimizda in'ikos etib, inson holatiga ko'chirib ishlatiladi.

Étre amis comme cochons [ARSC :187]	Porc élevé pour l'alimentation (mâle, opposé à truie ; châtre, opposé à verrat).	Très amis	Qalin do'st(ss: cho'chqa kabi do'st) cho'chqaning bir-biriga yopishib turish vaziyatini ijobiy tarzda insonlar o'rtasidagi munosabatga taqqoslash.
Joli comme un cœur [ARSC :191]	Organe central de l'appareil circulatoire	D'une manière charmante, attendrissante	Maftunkor, jozibali tarzda(ss :yurak kabi chiroyli).Yurak tana a'zosi antropomorfik jihatdan muhabbatga oshno (Joli comme un amour)
Suivre comme un caniche [ARSC :125]	Chien barbet à poil frisé.	Suivre fidèlement	Sadoqat bilan ergashmoq.ss :tanish iti kabi ergashmoq: odatda it sadoqatli jonivor, shu xususiyat insonga ko'chirilgan
Sobre comme un chameau [ARSC :125]	Grand ruminant à une ou deux bosses, à pelage laineux ; spécialement chameau à deux bosses, vivant en Asie (par opposition à dromadaire).	Très sobre	Juda hushyor.ss :tuya kabi hushyor, aslida insonga nisbatan ironiya tarzida tuyaning hushyorlik xususiyati ko'chiriladi
Ecrire comme un chat [ARSC :155]	Petit mammifère familier à poil doux, aux yeux oblongs et brillants, à oreilles triangulaires, aux griffes rétractiles.	D'une manière illisible généralement très petit	Odatda o'qib bo'lmaydigan holda yozmoq, tasvirlamoq(mushuk tatalaganday yozuv), ss :mushuk kabi yozmoq.Mushuk yozish qobiliyatiga ega emas uning tindalash xususiyati orqali yozuvning xunukligiga ishora beriladi
Vieux comme le chemins [ARSC :155]	Bande déblayée assez étroite, en général non revêtue, qui suit les accidents du terrain (opposé à route).	Très vieux	Qadimiy, eski.ss:yo'l kabi qadimiy ; Yo'llar qadimdan inson ehtiyoji uchun ishlatilib kelingan, shu xususiyatga ko'ra qadimiylik ma'nosini tashiydi

Être plein comme un boudin [ARSC : 95]	Boyaux remplis de sang et de graisse de porc assaisonnés.	complètement soûlé	Butunlay mast. ss : Kolbasa kabi to'la ; to'yib ichgan odamni pres qilib to'ldirilgan kolbasaga o'xshatish
chaud comme une braise [ARSC : 103]	Bois réduit en charbons ardents.	Vivement, sans attendre	Tezda. kutmasdan. Ss :cho'g'dek qaynoq; vaziyatga nisbatan xabarning yangiligini cho'g' issiqligiga qiyoslash
Être fatigué comme un chien [ARSC : 103]	Mammifère domestique dont de nombreuses races sont élevées ; spécialement le mâle (opposé à chienne).	Très fatigué	Qattiq charchash.ss:Itdek charchash. Etalonning lug'at izohida charchash belgisi yo'q, ammo itning tinimsiz tili osilib qolguncha yugurish xususiyati insonga ko'chiriladi
nager comme un chien de plombe [ARSC : 170]	Métal lourd d'un gris bleuâtre	nager très mal Ne pas savoir nager	Aslida it suzishni eplay oladigan jonivor ammo qo'rg'oshin suvda cho'kuvchan metal, metalning og'irlik xususiyati orqali suvda cho'kishini ifodalash maqsadida ishlatiladi

Integral assotsiatsiyalari ehtimoliylik asosida tuzilgan komparativ frazeologik birliklar (11.2) ga misollar :

5-jadval :

Komparativ xususiyatli FB lar	KFB etalonining lug'atdagi izohi	KFB belgisining [ARSC] lug'atdagi izohi	Komparativ xususiyatli FB lar tarjimai
fier comme un pou [ARSC : 658]	Insecte qui vit en parasite sur l'homme (pouilleux ; épouiller).	très orgueilleux	O'ta mag'rur. Ss :bitdek mag'rur. Etalonning lug'at izohida ham tabiiy xususiyatida ham mag'rurlik mavjudmas (ironiya)

Entre chien et loup [ARSC : 168]	1. Mammifère domestique dont de nombreuses races sont élevées ; spécialement le mâle (opposé à chienne). 2. Mammifère carnivore sauvage, qui ressemble à un grand chien (chien-loup).	À la tombée du jour	Namozshom, kun botishi. SS :it va bo'ri orasida
Bête comme un chou [ARSC : 175]	Plante crucifère (nom Sciences Brassica) à plusieurs variétés sauvages ou cultivées pour l'alimentation.	Très facile, enfantin	Juda oson, sodda. Ss :karamdek ahmoq
Beau comme un camion fam. [ARSC : 123]	Gros véhicule automobile transportant des marchandises.	superbe	Hayratlanarli, go'zal. SS :yuk mashinasi kabi go'zal
grand comme un mouchoir de poche [ARSC : 534]	Morceau de linge, de papier qui sert à se moucher, à s'essuyer le visage.	très petit ; minuscule	Juda mayda ; ss :cho'ntak ro'molchasi singari katta, grand-katta sifati bilan berilgan
haut comme trois pommes [ARSC : 650]	Fruit du pommier, rond, à pulpe ferme et juteuse.	tout petit ; minuscule ; pas grand ; très jeune	Juda mayda, juda yosh.ss :3 olma kabi katta, baland. Aslida 3 olma balandlikni emas past, kaltalikni ifodalaydi, FB tarkibida, aksincha haut-baland so'zi bn ifodalangan.
haut comme ma (une)botte [ARSC : 91]	Chaussure qui enferme le pied et la jambe.	tout petit	Juda mayda. Ss : etik kabi kichik. Mayda. Aslida haut sifati past, maydalikni emas balandlikni ifodalaydi.
Avancer comme un escargot [ARSC : 123]	Mollusque gastéropode terrestre, à coquille arrondie en spirale.	avancer très lentement, physiquement	Sekin ishlamoq, sekin ildamlamoq, vaqtini behuda sarflamoq ;

		ou dans son travail	Ss :shillikqurt singari sudralmoq, oldinga yurmoq
--	--	---------------------	---

Muvofiq assotsiatsiyalar asosida tuzilgan frazeologik birliklar taqqoslash asosida ifodalangan atribut standart ifodasiga semantik jihatdan mos kelmaydigan taqqoslashni o'z ichiga oladi, har qanday holatdagi standart ushbu xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas. Tuzilishiga ko'ra struktur-semantik prinsipi chatishma komparativ frazeologik birliklarning kichik, keng tarqalgan quyidagi guruhlarini sanab o'tish lozim. Masalan :

- tirik mavjudotning xususiyati aksariyat hollarda odamga yoki jonsiz narsaga o'tkaziladi (*fort comme un bœuf-tres vigoureux, avec un idee de calm, est reste tres vivant [ARSC : 80]*) ;
- faqat insonga xos xususiyat va harakat hayvonlarga ko'chiriladi (*saoul comme un âne-complètement saoul- [ARSC : 22]*) ;
- o'xshatish predmeti, shaxs, vaziyat kabilarga ma'lum predmetning tashqi o'xshashligi ko'chiriladi (*rouge comme une cerise-rouge de confusion de plaisir, etc-[ARSC :39]*) ;
- o'zi ega bo'lgan standartga qarshi, zid xususiyatni ifodalashi, antifraxani hosil qilishi mumkin (*haut comme une botte-tout petit-[ARSC :91]*) ;
- o'zak jihatidan o'xshatish asosining asl va ko'chma ma'no qarama-qarshiligiga qurilgan o'xshatish, ironiya (*camarad, amis comme cochons-très amis [ARSC :187 ; souïl comme un Anglais-ivre]*).

Komparativ frazeologizmlarni guruhlarga ajratib tahlil qilish orqali ularning ma'nosi asosan shaxs va uning xatti-harakatlari, fazilatlarini mavhum, shu bilan birga aniq tavsiflashini ko'rishimiz mumkin.

Mazkur ishda lug'atlarda qayd etilgan komparativ frazeologik birliklar orasida kam sonlilari haqiqiy etalon xossasini KFB tarkibida ifodalaydi. Bu obyektivdir, chunki taqqoslashda ko'rsatilgan sifat leksik birlik obyektining doimiy xususiyatidir. Shuning uchun frazeologizmning semantikasi shaffof, ya'ni

o'zgaruvchi so'z birikmasi-tarkibiy so'zlarning ma'nolaridan hosil bo'ladi<sup>31</sup>. Fransuz tilining ko'plab komparativ frazeologizmlari motivning yetishmasligi va mavhumligi bilan ajralib turadi. Mavhumlik frazeologik birliklarning ekspressivlik manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Komparativ frazemalarning asosi ifodaning kuchayishi yoki aksincha susayishiga ta'sir ko'rsata oladi. Ayni bir KFBning asosi u ifodalayotgan obyektning rang xususiyatiga o'xshash, mos bo'lsa, semantik jihatdan muvofiq bo'lsa, unda ifoda susayishi kuzatiladi. Agar KFB ma'nosiga ko'ra, tushunarsiz sintaktik-strukturaviy shaklda bo'lsa, bu vaziyatda uning ifodasi kuchayish hollarini kuzatish mumkin. Masalan : *blanc comme un linge # bête comme chou* kabi.

Demak, tasvir, obraz ma'noning konseptual o'zagi bilan mos kelmagan vaziyatda eng aniq xususiyatga ega bo'ladi. Barcha KFBlarni ingerent va adgerent assotsiativ aloqalar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish mumkin emas. Komparativ frazeologik birliklar borki, ularda assotsiativ bog'lanish xususiyatini ko'rsatish mushkul<sup>32</sup>, ya'ni ko'p hollarda ular qisqartirilgan, yaxlitlangan, ixchamlashtirilgan shaklda o'xshatish obyektini vazifasini bajaruvchi izoh, olmosh, ravish, son kabilar bilan ifodalanishi mumkin. Masalan, *comme avant-comme s'il n'y avait aucun problem, sans s'en préoccuper* (avvalgidek, muammosiz)[ARSC:40], *faire comme si de rien n'était-ne manifester volontairement aucune réaction ; être indifférent ; prendre un air indifférent ; avoir attention à ne rien dire qui puisse donner à connaître ce que l'on pense* (o'zini hech narsa bo'lmaganday ko'rsatish) *comme un rien-facilement* (arzimagan narsa kabi); *comme ci comme ça* -couci-couça ; ni bien ni mal; moyennement(bir navi) [ARSC:200], *un coeur gros comme ça* -"mehribon, saxovatli yurak" ( so'zma-so'z shunchalar katta yurak) [ARSC: 421]; *comme par hazard-ben voyons, bah dis donc, tiens donc; comme en 40* yoki *comme en 14*;

<sup>31</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ). М.:2021

<sup>32</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ). М.:2021

Yuqorida tahlil qilingan komparativ frazeologik birliklar obyektning assotsiativ bog'lanishlari va qiyoslash asosida tanlab olingan guruhlar va kichik guruhlar frazeologik ma'noning turli darajadagi mavhum holatlarini namoyon etadi.

Frazeologizmlar mavhumligining eng yuqori, yuqori, o'rta va past darajalari tasniflangan<sup>33</sup>. Mavhumlik darajalari frazeologik birliklarning motivatsiyasi bilan taqqoslanganda ular o'rtasida teskari munosabat mavjud. Motivsiz frazeologik birliklarda abstraksiyaning eng yuqori darajasi kuzatiladi, ularning ichki shakli tan olinmaydi. Abstraksiyaning yuqori darajasida frazeologik birliklarning so'z-komponentlarining ma'nosi butunlay qayta ko'rib chiqiladi. Frazeologik ma'noning ikki mezon mavjud, chunki frazeologik birliklar ma'nosi va uning prototipi ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik doimiydir. Komparativ frazeologik birliklarda abstraksiyaning zaiflashuvi uning barcha komponentlari so'zma-so'z ma'noga ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Komparativ frazeologik birliklarda o'xshatish asosi odatda to'g'ridan to'g'ri ma'noda qo'llaniladi va o'xshatish obyektini xossalari ifoda etadi. Shuning uchun asosan o'rta darajali KFB abstraksiyasiga ko'proq e'tibor qaratish lozim. KFB abstraksiyasi o'rta darajasining ikki turi mavjud. Birinchisi motivlashgan turi ingreant assotsiativ bog'lanishlar (*noir comme de la suie, chauve comme un genou, chanter comme une casserole, gai comme un pinson, être attendu comme le Messie.*) asosida qurilgan komparativ frazeologizm hamda asos va taqqoslash obyektining adgerent assotsiativ aloqaga ega bo'lgan motivsiz frazeologik birliklari, jumladan, *malheureux comme une pierre, bête comme ses pieds, gros comme une maison* kabilar kiradi.

Komparativ frazeologik birliklar genetik jihatdan soxta taqqoslashda (assotsiativ bog'lanishning bog'liq turi) yuqori darajada abstraksiyaga ega. Bunday iboralarda solishtirishning obyektini ham, asosi ham qayta ko'rib chiqiladi, lekin

<sup>33</sup> Куинн А. В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. пособие. Дубна. 2005, 188-194 с. Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ). М.: 2021

prototipning ma'nosi frazeologik birlik ma'nosi orqali izohlanayotgandek ko'rinadi (*muet comme une tranche, une carp*).

### 2.3. Fransuz komparativ frazeologizmlarining publitsistik matndagi frazeosemantik guruhlarini

Frazeologik birliklar voqelikning muayyan hodisalarini belgilashga xizmat qiladi, nutq aloqasi jarayonida ushbu hodisalarini tasvirlaydi. Biroq frazeologik birliklar obyektini voqelikning barcha hodisalarini belgilamaydi; ular selektivlik bilan tavsiflanadi. Quyida publitsistik matnda qo'llanilgan frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun u mavjudlikning qaysi sohalarini aks ettirishini aniqlash va bunday tanlovni nima bilan izohlash kerakligini aniqlash muhim. Ushbu masalalarni hal qilish publitsistik matnlaridan o'rin olgan komparativ frazeologik birliklarni semantik tasnif shaklida tizimlashtirishni o'z ichiga oladi.

Frazeologiyada umumiy qabul qilingan yagona semantik tasnif mavjud emas. Aksariyat tilshunoslar o'z tadqiqotlarida frazeologik birliklarni semantik tahlili jarayonida maydon, kichik maydon, guruh<sup>34</sup> terminidan foydalansa, boshqalari mikromaydon, sinonimlar guruhi<sup>35</sup>, semantik sinf, semantik guruh, semantik qator<sup>36</sup>, semantik domen, maydon, guruh, kichik guruh<sup>37</sup>, konseptual soha, maydon, toifa<sup>38</sup>, kabi terminlardan foydalanadilar.

Semantik tasniflarning bunday xilma-xilligi obyektiv va subyektiv omillar bilan bog'liq. Bir tomondan, tasniflash tadqiqotchi ixtiyoridagi mavjud materialning miqdoriga, ikkinchi tomondan esa tadqiqot maqsadi yoki vazifasiga bog'liq. Tanlangan frazeologik material frazeosemantik guruhlariga birlashtirilishi mumkin.

<sup>34</sup> Кириллова Н. И. Сопоставительная фразеология романских языков. Л.: 1986, 82 с.

<sup>35</sup> Куинн А. В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. пособие. Дубна: 2005, Феникс, 488 с.

<sup>36</sup> Гвоздарев Ю. А. О семантической классификации фразеологических единиц русского языка. Вопросы семантики фразеологических единиц Новгород: 1971, ч. 1, 12-30 с.

<sup>37</sup> Матсух А. П. Семантические поля со значением интерпретации оценки. М.: 1987, 79-80 с.

<sup>38</sup> Лебелева Л. А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии. Монография. Краснодар. 1999, Кубанский гос. ун-т, 196 с.

Frazeosemantik guruh deganda ularni birlashtiruvchi elementlar va bir qator differensial belgilarga ega frazeologik birliklar guruhi tushuniladi:<sup>39</sup>

Fransuz komparativ frazeologik birliklarini semantik guruhlarga ajratishda ularning obrazli motivatsion asosi, fransuz xalqi ongida milliy-madaniy jihatdan ramzga aylangan xususiyatlarini inobatga olish muhim. Binobarin, bu tushuncha va predmetlar muayyan vaziyatlarning unsurlari bilan o'zaro bog'lanib, ayrim hollarda muayyan assotsiatsiyalarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ular bir paytning o'zida ham milliy ham baynalminal xarakterga ega bo'lishi mumkin. Ko'pgina fransuzcha otlar frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari ushbu til ona tilisi bo'lgan so'zlashuvchilari orasida juda barqaror assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi<sup>40</sup>. Simvolizm/Ramz - bu belgi bilan bog'langan munosabatlar va talqinlar to'plami.

Belgi o'z tabiatida bo'lgan narsadan boshqa narsani ifodalovchi obyekt, tasvir, yozma so'z yoki tovush bo'lishi mumkin. Ushbu yangi ma'no assotsiatsiya, o'xshashlik yoki ijtimoiy muvofiqlik orqali beriladi. Oddiyroq qilib aytganda, belgi muallif tomonidan taklif qilingan taqqoslash deyish mumkin, ya'ni o'quvchi uni dekodlashni bilishi bu o'rinda muhim sanaladi. Masalan: *Le feu* - g'ayrat, ehtiroslar, sevgi, ruh, intuitiv bilimni, *le chène* - uzoq umr, salomatlik, mustahkamlik, mag'rur xarakterni, *la sphère* - mukammallikni, *l'eau* - poklanish, cho'qinish, e'tiqod qilish, moslashuvchanlikni, *le lion* - jasorat, kuch, go'zallik, olijanoblikni, l'œil - ravshanlik, hushyorlik, hamma narsani oldindan ko'ra olishni, Xudoni, *chameau* - hushyorlikni, *tigre* - hasad, rashkni, *loup* - vahshiylik, *aigle* - aqlni ifodalash ramzi sifatida fransuz xalqi nutqida ishlatiladi.

Q'rganilayotgan aniq obyekt sifatlar majmui bilan belgilanadiganligi sababli u anglashning ko'plab yo'llarini keltirib chiqaradi. Darhaqiqat, ramziy tasvir bir nechta ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, amalga oshirilgan va belgining ma'nosini aniqlashga imkon beruvchi havola haqiqiy bo'lishini va mantiqiy fikrlashga asoslanganligini ham ta'minlash kerak. Masalan: *vert(e)* - yashil

<sup>39</sup> Гак В.Г. Беседы о французском слове. Из сравнительной лексикологии французского и русского языков. М.: 2006, 336 с. Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ), М.: 2021.

<sup>40</sup> Соколова Г.Г. Фразеобразование во французском языке. Высшая школа, М.: 1987, 72 с.

rangi fransuzlarda ikkita bir-biriga qarama-qarshi ma'noda ishlatiladi. Birinchisi, *vert* belgisi yoshlikni ifodalashi mumkin. Ushbu ramziylikning kelib chiqishi bahor kurtaklari, yashillikka burkanishga qiyoslash asosida kelib chiqqan deb hisoblanadi. *Vert*ning zid ma'nosi, kasal odamni ifodalash uchun ishlatiladi, chunki, ko'ngil aynishi, kasal teri rangi ko'pincha yashil rangda bo'ladi deb hisoblanadi.

Izlanish davomida hayvon nomlarining takroriy mavjudligi ramziy ahamiyatga ega. Ular ifodasining har xil ekanligi hayvonlarning turli fazilatlarini hisobga olgan holda dekodlanishini anglatadi. Misol uchun: le *chat* - bu mutlaqo erkin va mustaqillikka ega, u odamlarning hamrohi bo'lishi mumkin lekin hech qachon ularga tegishli emas. Kichkina jussaga ega bo'lishiga qaramay, u jonli va ta'sirchan hujum va mudofaa qobiliyatiga ega bo'lgan hayvondir. Ushbu aniq tavsifdan ayni belgining mumkin bo'lgan ma'nolarini sanab o'tish mumkin. Mushuk odamlarning erkin va mustaqil ruhini va kundalik hayotdagi vaziyatlarga yoki hodisalarga moslashish qobiliyatini ramziylashtiradi: *agile comme un chat*. Mushuk vafotidan keyin qayta boshqa tanada yashash ramzi bo'lishi mumkin: *avoir neuf vie comme le chat*; agar mushuk qora bo'lsa, u salbiy belgini anglatishi mumkin: *regarder comme un chat noir*. Komparativ frazeologik birliklar etaloni sifatida ishlaydigan ramziy belgilar mos ravishda ijobiy yoki salbiy assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, standartga aylangan ijobiy yoki salbiy baholashning yashirin vaziyati lisoniy birlik semalarini vaziyatga ko'ra ba'zan o'zgartirgan holda, butun komparativ frazeologik birlikni ijobiy yoki salbiy baholashga turtki bo'ladi. O'xshatishni baholash, asosan, o'xshatish etaloniga, u qanday assotsiatsiyalarni ifodalashiga bog'liq.

Quyidagi fransuz komparativ frazeologizmlarida nafaqat fransuz balki baynalminal ramziylikni fodalovchi "*chien*" [1. Mammifère domestique dont de nombreuses races sont élevées ; spécialement le mâle (opposé à chienne). 2. Se regarder en chiens de faïence avec hostilité] bilan bog'liq assotsiatsiyalarning to'liq ifodasini ko'rib chiqamiz. Bizga ma'lumki *chien*-sadoqat, do'stlik ramzi hisoblanadi ammo fransuz komparativ frazemalarida bu belgining salbiy sifatlari ko'proq aks ettiriladi:

- ✓ être malade/fatigué(e) comme un chien - crever comme un chien galeux, très malade [ARSC :167];
  - ✓ ...comme un chien (péj.) - .. que de chien [ARSC :168];
  - ✓ Arriver/venir ..comme un chien dans un jeu de quilles- très mal à propos, avec des mauvais traitements [ARSC :169];
  - ✓ Avoir du crédit comme un chien à la boucherie- n'en avoir aucun [ARSC :169];
  - ✓ Las comme un chien -qui ne se dit plus [ARSC :169];
  - ✓ crever comme un chien galeux-implique une mort misérable où l'on est abandonné de tous[ARSC :169];
  - ✓ s'entendre, vivre, être comme chien et chat-se disputer sans cesse[ARSC :169];
  - ✓ être comme le chien du jardinier- être jaloux d'un bien qu'on ne désire pas soi-même;
  - ✓ être comme un chien à l'attache- être tenu à des obligations continuelle(pour son travail, etc);
  - ✓ être fait comme un chien fou- avoir l'air négligé, être mal accouturé ou mal peigné;
  - ✓ étriller quelqu'un comme un chien courtaud- le rosser;
  - ✓ coiffé comme un chien fou- être ébouriffé, une personne très laide;
  - ✓ nager comme un chien de plomb- très mal nager[ARSC :170];
  - ✓ tuer comme un chien- sans pitié;
  - ✓ ..comme un chien mouillé-en étant trempé;
  - ✓ être malheureux comme un chien qui se noie- un homme très malheureux;
  - ✓ être heureux comme le chien qui se casse le nez- un homme très malheureux(une antiphrase) [ARSC :170];
  - ✓ fidèle comme un chien-dont l'attachement, le dévouement à quelqu'un restent constants, et sur lesquels on est sûr de pouvoir compter.
- Yuqorida berilgan *chien*-it komponentli 17 ta frazeologizm kasallik, g'am-qayg'u, baxtsizlikni, 1 ta frazema baxt ramzini ifodalaganligini ko'rish mumkin. Shu

o'rinda ta'kidlash lozimki, ma'lum millat ongida in'ikos etgan ramz bir paytning o'zida bir-biriga zid ma'no ifodalashi mumkin. Bunga sabab komparativ frazema tarkibidagi o'xshatish predmeti tabiati, uning xususiyati bilan bir qatorda sifat ham muhim rol o'ynaydi. Sifat orqali solishtirishda ko'p hollarda baholash birinchi komponentga, og'zaki o'xshatishda esa ikkinchi komponentga bog'liq bo'lib, birinchi komponentning sifatlovchisi sifatidagi ulushi ancha yuqori bo'ladi<sup>41</sup>. Demak komparativ frazema tarkibida ishlatilgan ramziy belgining ma'nosiy salbiydan ijobiyga o'zgarishi frazema tarkibida ishlatilgan sifatga bog'liq. Sifat salbiy baholi bo'lsa KFB tarkibidagi ijobiy baholi ramz salbiy vaziyatga nisbatan ishlatiladi. Sifat ma'no turlariga ko'ra frazeologik birlik tarkibida ijobiy yoki salbiy baholashning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan: adjectifs de couleur: *blanc, noir, rouge, rose*; adjectifs désignant l'apparence de la forme: *corpulent, étroit, courbé, plat*; adjectifs caractéristiques: *modeste, gai, avare, simple, gentil, gentil*; adjectifs de statut: *vieux, riche, chaleureux, calme, cool, ouvert, heureux*; adjectifs de mesure: *large, étroit, long, proche, large, lourd*; adjectifs de goût: *aigre, amer, insipide, sucré*; adjectifs désignant l'odeur: *piquant, parfumé, puant*; adjectifs de lieu et de temps: *soir, matin, automne, printemps*. Bunday holatda hukmning minus yoki plus bo'lishi til egasi vaziyati, millatning milliy-madaniy, estetik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Quyida ba'zi sifatlar orqali salbiy yoki ijobiylikni ifodalagan komparativ frazeologizmlarni ko'rib chiqamiz.

*Blanc, blanche* (adj.) - oq sifati fransuz tilida odatda tana rangi, yuzning qo'rquv va kasallikdan (salbiy) oqargan holatini ifodalaydi: [ARSC :76] *être blanc comme un linge /un drap* (so'zma-so'z: choyshab kabi oqarib ketgan), *être blanc comme un linge, être blanc comme un drap*(choyshabdek, bo'zdek oqarib ketgan) yoki semantik ottenkasi kuchayishi bilan *être blanc comme un cadavre, être blanc comme mort*(jasad kabi oqarib ketmoq) kabi tarkibida sifat mavjud bo'lgan komparativ frazemalar salbiy bahoni, *blanc comme du laitier*(sutdek oppoq

<sup>41</sup> Кушни А. В. Фразеология современного английского языка. М.: 1972, 205 с.

bo'lmoq) esa ijobiy bahoni ifodalaydi. Shu o'rinda vaziyatga nisbatan ishlatiluvchi blanc sifati ishtirokidagi komparativ frazemalarga ham e'tibor qaratsak. Ma'lum vaziyatga nisbatan ishlatiluvchi *blanc* li frazemalar asosan ijobiy bahoni ifodalashi mumkin, bu yerda sifat emas tarkibidagi etalon asosiy vaziyatni baholovchisi sifatida qaralishi lozim: *sortir blanc d'une affaire*(ishdan oppoq bo'lib chiqmoq, ishdan silliq qutulmoq).

*Droit* -to'g'ri, tik ma'nosi bilan inson tashqi ko'rinishi va xarakterirostgo'ylikni, ya'ni ijobiylikni ifodalaydi : [ARSC :295 très droit, très rapide(en parlant d'une personne)]; *Droit* comme un cierge(shamdek tik, to'g'ri), *droit* comme un échelas (ustundek tik, to'g'ri), *droit* comme un I (I (harfi) kabi to'g'ri-kaltakdek to'g'ri), *Droit* comme un jonc (buloqdek haqiqatgo'y, musaffo), *comme* un sapin (archa kabi tik). Ammo antiteza orqali ifodalanishi, zid ma'no anglatish holatlarini ham uchratish mumkin :[ ARSC : 295 tordu, déjeté-egri, qiyshiq] *droit* comme une faucille (ss : o'roqdek to'g'ri, aslida o'roq qiyshiq shaklda bo'ladi). *droit* comme la jambe d'un chien (it oyog'i kabi to'g'ri).

*Heureux, malheureux* -baxtli, baxtsiz sifati bilan : être malheureux comme un chien qui se noie (cho'kayotgan it kabi baxtsiz bo'lish), *malheureux* -baxtsiz sifati orqali salbiy konnotativlikni[ARSC :170- un homme très malheureux ] va être *heureux* comme le chien qui se casse le nez (burnini sindirgan it kabi baxtli bo'lmoq- aslida burni singan'ining baxtli bo'lishi notabiiy)- [ARSC :170- un homme très malheureux ] *heureux* -baxtli ijobiy ma'noni ifodalovchi sifati orqali salbiy konnotativlikni ifodalash hollari mavjud.

Demak, komparativ frazeologik birliklar tarkibidagi sifat baholashi har doim ham sifat bilan ifodalangan asosga bog'liq emas. Antifraza asosida qurilgan komparativ frazeologizmlar bunga yaqqol dalil bo'la oladi. Bunday iboralardagi standart asosga zid keladi, uni inkor etadi va frazeologik birlikka mutlaqo teskari ma'noni beradi, ya'ni sifat ijobiy baho beradi va taqqoslash obyekti uni salbiy bahoga o'zgartiradi. Bunday frazeologizmni baholashning mohiyatini faqat uning barcha tarkibiy qismlarini tahlil qilish asosida tushunish mumkin. Shuningdek, komparativ frazeologizmlar insoniy fazilatlar va shaxslararo munosabatlarni ifoda

etuvchi vaziyatni mifologik KFB lar asosida ifodalashi bilan bir qatorda, inson yashaydigan atrof-muhitni ham tavsiflaydi. Bunday qiyoslashlarni belgi va ma'no nuqtayi nazaridan rang-barang namoyon bo'lishining intensivligini tavsiflovchi (*comme le pot au noir*- zone océanique peu appréciée des marins en raison des conditions météorologiques qui y règnent ; situation à risque : une situation instable et dangereuse) hayvon, osimlik dunyosini tavsiflovchi (*dur comme de la pierre, dur comme fer*) kichik guruhlari mavjudligini ta'kidlash joiz.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, tadqiqot davomida topilgan fransuz komparativ frazeologik birliklar tarkibida *hayvon, o'simlik dunyosi, rang va mifologik ramzlar* takrori ko'zga yaqqol tashlandi. Shu sababdan KFBni mazkur 4 semantik guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Quyidagi jadvalda hayvon nomlari bilan bog'liq KFB larni va ular ifodalagan ma'nolarni keltirib o'tamiz :


6-jadval :

Komparativ frazema	Ramz/simvol	Ifoda: salbiy/ijobiy (-/+)
<b>1. Hayvon nomlari bilan bog'liq guruh</b>		
être malade comme un chien	chien	-
être fatigué(e) comme un chien		-
... comme un chien (péj.)		-
venir comme un chien dans un jeu de quilles		-
arriver comme un chien dans un jeu de quilles	chien	-
avoir du crédit comme un chien à la boucherie		-
Las comme un chien		-
crever comme un chien galeux		-
être comme le chien du jardinier		-
être comme un chien à l'attache		-
être fait comme un chien fou		-
étriller quelqu'un comme un chien		-
coiffé comme un chien fou		-
nager comme un chien de plomb		-
tuer comme un chien	-	
..comme un chien mouillé	-	
être malheureux comme un chien qui se noie	-	
être heureux comme le chien qui se casse le nez	-	
fidèle comme un chien		+

agile comme un chat	chat		+
avoir neuf vie comme le chat			+
regarder comme un chat noir	chien/chat	-	
s'entendre comme chien et chat		-	
vivre comme chien et chat		-	
être comme chien et chat		-	
saoul comme des cochons		-	
saigner comme un cochon	cochon	-	
jouer un tour de cochon		-	
manger comme un cochon		-	
copains comme cochon		-	+
souffler comme un cachalot	poisson	-	
s'entasser / serrés comme des sardines		-	
rire comme une baleine		-	+
bâiller comme une carpe		-	
fier comme un coq	coq		+
traiter comme un coq en pâte		-	
tourner comme un lion	lion-tigre		+
se battre comme un lion		-	
agile comme un tigre		-	
jaloux comme un tigre		-	
noir comme un corbeau	corbeau	-	

6-jadvalda berilgan misollardan ko'rinib turibdiki, fransuz xalqi uchun ijobiy ma'no ifodalovchi ramzlar komparativ frazema tarkibida aksariyat vaziyatda, aniqrog' i 83% salbiy ma'no ifodalaydi:

2-diagramma:



Komparativ frazeologik birliklar etaloni sifatida ishlaydigan ramzlar mos ravishda ijobiy yoki salbiy assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, standartga aylangan ijobiy yoki salbiy baholashning yashirin vaziyati lisoniy birlik semalari ba'zida yangilanib, butun komparativ frazeologik birlikni ijobiy yoki salbiy baholashiga turtki bo'ladi. O'xshatishni baholash, asosan, o'xshatish etaloniga, u qanday assotsiatsiyalarni ifodalashiga, shuningdek, tarkibida ishlatiluvchi sifat anglatgan ifodaga ham bog'liq. Masalan, *chêne* [Grand arbre à fleurs en chatons, à feuilles lobées, répandu surtout en Europe] so'zi ijobiy ma'noga ega. Eman daraxti mustahkam, kuchli bo'lib, u uzoq umr ko'rish xususiyatiga ega. Bundan tashqari, eman daraxti qimmatbaho yog'och turlariga tegishli bo'lib, undan tayyorlangan mahsulotlar sifatli va chidamli. Shu xususiyatiga ko'ra u ijobiy ma'no tashuvchi hisoblanadi: *se porter comme un chêne- avoir une santé robuste: fort comme un chêne- très robuste: solide comme un chêne*. Quyidagi 7-jadvalda xuddi shu kabi o'simlik dunyosi bilan bog'liq KFB semantik guruhi keltirib o'tilgan.


7-jadval:

Komparativ frazema	Ramz/simvol	Ifoda: salbiy/ijobiy (-/+)
<b>2.O'simlik dunyosi bilan bog'liq guruh</b>		
frais comme une rose	rose	+
bête comme un chou	Chou	-
trembler comme une feuille	Feuille	-
presser comme un citron	Citron	-
jaune comme un citron		-
blond comme les blés	Blé	-
pousser comme du chiendent,	Chendent	-
être rouge comme une tomate	tomate	-
être rouge comme un poivron	poivron	-
être habillé comme un sac à patates	patate	-
haut comme trois pommes	Pomme	-
haut comme deux pommes		-
rond comme une pomme		-
ridé comme une vieille pomme		-
rouge comme une pomme		+
fort comme un chêne	<i>chêne</i>	+
pousser comme des champignons	champignon	-

venir comme un champignon		-	
pousser comme une mauvaise herbe	herbe	-	
jaune comme un coing	Coing	-	
c'est comme des dattes	Datte	-	
beau comme un melon	Melon		+
arranger quelque chose comme des noix sur un bâton	Noix	-	
propre comme une poire	Poire		+
grand comme une asperge	Asperge		+
rond comme un pois	Pois	-	
être creux comme un radis	Radis		+
Idiot comme un cornichon dans son bocal	cornichon	-	

7-jadvalda berilgan KFB lar ifodalagan bahoning aksar qismi, 75% salbiydir:

3-diagramma:



Ranglar har bir millat uchun o'ziga xos ma'no va mazmun kasb etadi. Tabiatda mavjud bo'lgan ranglar bizni ruhiy holatimizga ta'sir ko'rsatib, o'zgacha his-tuyg'ular bilan to'ldiradi. Ma'no va ramziylikni o'z ichiga olgan rang, tilda biror vaziyatni tasvirlashda muhimdir. Millatlar, zamonlar va madaniyatlarga qarab, ranglar turli xil ma'nolarni ifodalaydi. Masalan, antik yunon davrida fransuzlar uchun *oq*, *qizil* va *qora* ranglar ijobiy ma'no aks ettiruvchi ranglar hisoblangan. Biri poklik va ibodatni, ikkinchisi jangovar faoliyatni, uchinchi esa belgilangan maqsad, rejaları ramzi bo'lgan. O'rta asrlarga kelib, *qora* rang tavba va kamtarlik

ramzi hisoblanib, monastir kiyimining o'ziga xos tarkibiy qismiga aylandi. Zamonaviy antropologlarning fikriga ko'ra, ranglar barcha odamlar uchun universal deb hisoblangan o'n bitta: oq, qora, qizil, yashil, sariq, ko'k, jigarrang, malla, pushti, to'q sariq, kulrang kabi asosiy toifaga bo'linishi maqsadga muvofiq. Ranglar ramziyligi bo'yicha mutaxassis Mishel Pastoureau shunday yozgan edi: "Rangni "yaratuvchi" jamiyatdir, unga ta'rif va ma'no beradi, o'z kodlari va qadriyatlarini quradi, amaliyotini tartibga soladi va muammolarini belgilaydi". Shunday qilib, oq: poklik, bokiralik, begunohlik, sovuqlik, poklik, tinchlik, donolik va soddalik; qora: motam, o'lim, g'amginlik, qayg'u, qo'rquv, tejamkorlik, voz kechish, balki zamonaviylik va nafislik; qizil: xavf, taqiq, qon, olov, balki ehtiros, sevgi, hashamat va erotizm; moviy: tinchlik, ilohiylik, ittifoq, orzu, qochish, sovuqlik; sariq: yorug'lik, issiqlik, farovonlik, boylik, quvonch, energiya, shuningdek, kasallik, aqldan ozish, yolg'on va xiyonat; yashil: omad, imkoniyat, umid, yoshlik, tabiat, ekologiya, erkinlik, kasallik; pushtirang: yumshoqlik, samimiylilik, shuningdek, o'lim, g'azabni kuchaytirish belgisi sifatida fransuz millati ongida inikos etadi. Bu ranglar KFB tarkibida kelganda yuqorida keltirilgan ma'nolarni aksariyat holatlarda saqlab qolishini ko'rish mumkin. Quyida shu ranglar bilan bog'liq KFB lar keltirilgan.


8-jadval:

Komparativ frazemalar	Ramz/simvol	Ifoda: salbiy/ijobiy (-/+)	
<b>3. Ranglar bilan bog'liq guruh</b>			
rouge comme une pivoine	rouge	-	
rouge comme un bœuf écorché		-	+
rouge comme du sang		-	+
rouge comme une cerise		-	
être rouge comme une tomate		-	
bête comme une veaut rouge		-	
blanc comme la craie	blanc(che)	-	
blanc comme un cachet d'aspirine		-	+
Être blanc comme neige		-	
Être blanc comme un linge		-	
jaune comme un citron	jaune	-	

jaune comme un coing		-	
blond comme les blés	blond(e)	-	+
noir comme une mûre	noir(e)	-	
noir comme un corbeau		-	
noir comme un geai		-	
noir comme un taupin		-	
noir comme Tartari		-	
noir comme un diable		-	
noir comme un gallette / un houstiaque		-	
vert comme un poireau	vert(e)		+
vert comme un sorbet de Jamaïque			+
vert comme l'espoir			+
vert comme Piccolo			+
vert comme persil			+
vert comme une forêt			+
bleu comme la nostalgie	bleu		+
bleu comme la loyauté			+
bleu comme le ciel			+
bleue comme une orange		-	
bleu comme une tomate		-	

Fransuz millati ongida shakllangan ma'lum ramziylikni ifodalovchi ranglar fransuz komparativ frazemalari tarkibida aksariyat hollarda zid ma'noni ham ifodalaydi. Masalan, *bleu* aslida soflik, beg'uborlik ramzi hisoblanib fransuz xalqi uchun ijobiy vaziyatlarni ifodalashda ishlatiladi ammo komparativ frazema tarkibida aynan shu sifatning ishlatilishi ba'zida salbiy bahoni ham ifodalshini ko'rish mumkin. *Bleu comme une orange*, *bleu comme une tomate* kabilar buning isbotidir.

4-diagramma:



Mualliflar har bir publitsistik matn mavzusiga muvofiq rang maydonini tanlaydi. Bunda assotsiatsiyalar madaniyat va vaqtga qarab o'zgarib turadi. Tahlil natijalariga ko'ra komparativ frazeologik birliklar tarkibidagi ranglar bilan bog'liq ramziy belgilarning 75% i salbiy ma'no ifodalaydi.

Fransuz publitsistik matnlarida tez-tez takrorlanuvchi komparativ frazemalardan yana biri bu mifologik ramzlarni o'zida aks ettirgan KFB lardir.


9-jadval:

Komparativ frazemalar	Ramz/simvol	Ifoda: salbiy/ijobiy (-/+)	
<b>4.Miflarga oid guruh</b>			
fier comme Harpagon	Harpagon		+
fier comme Artaban	Artaban	-	+
fidèle comme le chien d'Ulysse	Ulysse		+
beau comme un Adonis	Adonis		+
riche comme Crésus	Crésus		+
fort comme Hercule	Hercule		+
une force herculéenne	Hercule		+
mystérieux comme un Sphinx	Sphinx		+
Être énigmatique comme le sphinx			+
Vieux comme Mathusalem	Mathusalem	-	
Être pauvre comme Job	Job		+
Être riche comme Hérode	Hérode		
Vieu comme Hérode			+
Être fort comme Samson	Samson		
Agir comme une Furie	Furie	-	

Tahlil jarayonida urg'u berib o'tish joiz bo'lgan vaziyat bu boshqa semantik guruhlariga nisbatan mif asosli komparativ frazeologik birliklar belgilari aksariyat hollarda, aniqrog'i 79% ramziylikka muvofiq ekanligidir. Buning asosiy sababi, komparativ frazeologik birliklar tarkibida ishlatiluvchi mifologik obrazlarning fransuz xalqi tomonidan asrlar davomida afsonaviyligiga ko'ra salbiy yoki ijobiy baholanishi bilan izohlash mumkin. Masalan, Hérode miloddan avvalgi I asrda yahudiylar podshohi bo'lgan va o'sha davlarda oddiy xalqning o'rtacha umr ko'rish yoshi 40 va boy-badavlat qatlamning o'rtacha umr ko'rish yoshi 60 bo'lgan. Hérode esa 69 yosh yashagan. Afsonalarga ko'ra, u juda qattiqqo'llik bilan davlatni


boshqarib, O'rtta yer dengizidan Bobilgacha bo'lgan hududni bo'ysundirgani holda o'z xalqining farovonligini ta'minlagan. Qattiqqo'l, zolim bo'lishiga qaramay aynan shu farovonlikni yaratgani evaziga xalq o'rtasida ijobiy bahoga ega bo'lgan. Aytish joizki, har bir komparativ frazema tarkibidagi mifologik obrazlar belgisi ham ayni o'ziga xos tarixiy asosga ega. Bu kabi til vositalarini tahlil qilish alohida tadqiqot obyekti bo'lib kelgusida tadqiqotchilarning asosiy tadqiqot manbai bo'lsa ajabmas.

5-diagramma:



Yuqorida ko'rib chiqilgan semantik guruhlardagi komparativ frazemalar tarkibida mavjud ramzlar fransuz xalqi uchun xos bo'lgan belgilarning ayni xususiyatini anglatishi bilan bir qatorda, ayni bir simbolikaning o'ziga xos xususiyatiga zid ma'no ifodalovchi vaziyatlar ko'p uchraydi. Bu albatta tarixiy-tadrijiy evolyutsiyalarda biror ramzning turli zamon va makonda turlicha talqin qilinishi bilan ham bog'liq. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mif asosli komparativ frazemalarda bunday chalkashlik ko'zga tashlanmaydi, ya'ni afsonalarda salbiy ifodaga ega bo'lgan ramziy obrazlar komparativ frazema tarkibida ham salbiy ma'no ifodalaydi. Quyidagi ranglar, o'simliklar, hayvonlar va mifologik asosli KFB larning fransuzlar uchun ramziylikka qay darajada mosligini diagramma orqali taqqoslaymiz:

6-diagramma:



Mazkur diagrammadan anglashiladiki, fransuz xalqi uchun ma'lum belgini ifodalovchi ijobiy obrazli ramzlar KFBlar tarkibida zid ma'no ifodalaydi. Buning asosiy sababi, frazemalar turli davrlarda yuzaga kelishi va vaqt o'tishi bilan ifoda ma'nosining o'zgarishi, makon va zamonda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga bog'liq tarzda, shuningdek, tarkibidagi etalon tabiatiga bog'liq holda o'zgarib turishi mumkin. Bu o'zgarish me'yor sifatida qabul qilinib, KFB ifoda ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi.

## II bob bo'yicha xulosa

1. Turg'unlik, obrazlilik, motivlashganlik, emotsional-ekspressivlik, ongimizda tayyor shaklda takrorlanishi, komponentlarining qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lishi, frazeologik birliklarning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Frazeologik birliklarning alohida turi hisoblanmish komparativ frazeologik birlari deganda xuddi frazeoloizmlar kabi umumiy grammatik grammatik tuzilishi, ko'chma ma'noli, ramziy, obrazli, majoziy taqqoslash asosida tuzilgan, komponentlarining kontekstga ko'ra semantik shakllanishi bilan frazeologik ma'noga ega bo'lgan o'xshatish konstruksiyalari tushuniladi.

2. Komparativ frazeologik birliklarning asosi tayanch va taqqoslash obyektleri hisoblanadi. Bu ikki omil tavsiflagan predmet matnda subyekt vazifasini bajaradi. Ikki komponentli iboralar bilan bir qatorda tilda bitta taqqoslash obyektidan tashkil topgan bir komponentli (yoki ixchamlashtirilgan) komparativ frazeologizmlar ham mavjud. Ixchamlashtirilgan komparativ frazeologik birliklar keng tarqalganligi bilan ajralib turadi.

3. Komparativ frazeologizm konnotativ ma'nosini tashkil etuvchi sifatida uning baholash, uslubiy/stilistik, emotsional, ekspressiv, tasviriylk xususiyatlarini ko'rsatish mumkin.

4. Ekspressivlik komparativ frazeologik birlikning konnotativ ma'nosining majburiy komponenti sifatida uning majoziy asosi bilan, ikkinchi tomondan, uning tarkibiy qismlarining semantik mos kelishi yoki mos kelmasligi bilan belgilanadi. Ularning majoziy asosi uning ekspressiv salohiyatini ta'minlaydi. Tasviriylkning maqsadi mavzu mazmunini vizual-majoziy (ratsional), ifodali-tasviriylk shaklda o'tkazishdan iborat. Tasvirlar baholash manbai bo'lib, ular xabarning hissiy idrokiga murojaat qiladi, dunyoning hissiy tajribasini uyg'otadi. Tasvirning (comme un bolide, comme sur des roulettes) tushirib qoldirilishi ifoda ekspressivligini susaytirishiga olib kelishi mumkin, lekin uning butunlay yo'qolishi mumkin emas.

5. Komparativ frazeologizm tarkibidagi etalon frazemaning ifodasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar etalon ifodalaydigan xususiyat o'zaro komparativ

frazemaning anglatgan yaxlit semasiga muvofiq kelmasa, mantiqsizlik kuzatilsa, ifoda kuchayishiga sabab bo'ladi.

6. Komparativ iboralar asosidagi qiyosiy sintaktik konstruksiya ham ekspressivlikning tashuvchisi hisoblanadi. Qayta fikrlash natijasida qiyosiy ma'no qisman yoki to'liq yo'qolsa-da, uning asosida yangilanish - kuchaytiruvchi belgi paydo bo'ladi.

7. Komparativ frazeologik birliklarning kommunikativ vazifasi kuchayish (intensivlik) funksiyasi bilan chegaralanib qolmaydi, ular predmetga emotsional-bahoviy munosabat bildira oladi. Har bir KFB etaloni o'zining tabiati, xususiyatiga ko'ra ijobiy va salbiy baho ifodalaydi. Bu o'rinda tahlillar natijasiga ko'ra, salbiy baholovchi komparativ frazeologik birliklar ko'p sonli ekanligini ko'rish mumkin.

8. Komparativ frazeologik birlik strukturasiidagi so'zlar obyekt vazifasini bajargani holda taqqoslashning salbiy, ijobiy munosabatlardan birini ifodalaydi. Hissiy baholash komparativ frazema tarkibida mavjud bo'lmagan elementlar, ma'lum xalqning milliy-madaniy, tarixiy xususiyatlariga ham bog'liq.

9. Fransuz tilida sifat va fe'l strukturali komparativ frazemalar ko'p sonlidir. Bu turdagi frazemalar antifraza asosiga qurilgan bo'lsa salbiy baholi hisoblanib, og'zaki nutq uslubiga xos elementlarni o'zida namoyon etadi. Komparativ frazemalarning baholashida verbal taqqoslash uchun fe'li etalon, adyektiv taqqoslanishida sifat etaloni asosiy omillardir.

10. Komparativ frazeologik birliklarning emotsional-baho ifoda darajasi bir paytning o'zida o'xshatish predmeti hamda baholash belgisi bilan belgilanadi. KFB etaloni, ramziylkni bildiruvchi belgilar frazeologik birliklarning bir qismi bo'lmay turib, elementlarning semantik jihatdan mos kelmasligi kuzatilsa, shaxs bilan subyektiv bog'liq bo'lgan komparativ iboralarda emotsional va baholovchi ifoda kuchayadi.

### III BOB. FRANSUZ PUBLITSISTIK MATNLARIDA KOMPARATIV FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI

#### 1.1. Fransuz publitsistik matnlari frazeologizmlar va umumtil frazeologizmlar.

Bugungi axborot asrida tilshunos olimlarning badiiy matnga qaraganda publitsistik uslubni o'rganishga qiziqishlari tobora ortib bormoqda. Gazetaga xos bo'lgan qator lingvistik va uslubiy o'ziga xos xususiyatlar, masalan, "gazeta lug'ati va frazeologiyasi" mavjudligiga hech kim shubha qilmaydi. "Gazeta frazeologiyasi" atamasini izohlash shart emas. Uning ichki shakli aniq va ravshandir. Gazetalar matni frazeologiyasi - bu asosan gazetalar matniga xos bo'lgan va boshqa asarlardagi kabi maxsus uslubiy kiritmalar kiritilmagan barqaror iboralar to'plamidir (*l'or noir, la main verte, un soeur de rierre etc.*). Umumtil frazeologik birliklari va publitsistik matni FBlarini bir-biriga taqqoslaganimizda, umumiylikni hamda bir qatorda sezilarli farqlarni uchratishimiz mumkin. Umumiy xususiyatlariga ko'ra gazetalar matnidagi frazeologik birliklar umumtil frazeologik birliklari kabi aksariyat hollarda ular majoziy bo'lib, umumtil kabi sintaktik qoliplar/komponentlarga ko'ra qurilgan. Publitsistik matndagi va publitsistik matndan tashqarida ishlatiluvchi frazeologik birliklarni bir-biridan farqlovchi xususiyatlari mavjud bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) Fransuz publitsistik matnlari frazeologik birliklari o'zak so'zlar, "ishorali so'zlar" asosida quriladi va har bir ishorali so'z asosida yangi komponentlarni (*l'or noir-neft, l'or blanc* - qishgi sport o'yinlari uchun qor to'plamlari, *l'or bleu* - tiniq, toza suv, *l'or vert* - o'rmon va boshqalar) kiritish uchun ochiq sath bo'lgan frazeologik birliklar turkumi yaratiladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, "or" signal so'zi asosida jurnalistlar milliy, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa voqealarning perifrastik belgilarini yaratadilar. Nazariy jihatdan, ta'riflar to'plamini, masalan, neftni nafaqat qora, balki suyuq oltinni ham ifodalay olishi orqali yanada kengaytirish mumkin. Bu publitsistik matnlarning o'zgarishlarga ochiqligini yaqqol ko'rsatib turibdi.

2) "Gazeta ruknlarining ochiq tabiati va gazeta frazeologik birliklarining yuqori darajadagi izchilligi bilan bog'liq bo'lgan bir turdagi lingvistik paradoks: birinchi marta qo'llanilgan ibora, agar u gazetaga xos sintaktik qoliplarga ko'ra ishoraviy so'zlar (*carburant bleu, écran bleu, champ bleu; récolte de prix, récolte de littérature*) asosida yaratilgan bo'lsa, ular gazeta frazeologik birligi sifatida ham qabul qilinishi mumkin<sup>1</sup>. Demak, har bir signal so'z asosida frazeologik qator hosil qilinishi mumkin. Shu sababli, bu holatda publitsistik matnda ishlatilayotgan ma'lum frazeologik birliklarni uchratganda o'quvchining idrok etish mexanizmi shu frazeologik qatordagi barcha ishoraviy ma'noni qabul qilishi orqali ishlaydi.

3) Publitsistik matnlar frazeologiyasi va umumtil frazeologiyasi struktura hamda semantik xususiyatiga ko'ra biroz farq qiladi. Gazeta frazeologik birliklari orasida o'tgan tarixiy davrlardan meros bo'lib qolgan frazeologik birliklar yo'q (*se sentir comme le Pont-Neuf, Daqqiyunusdan qolgan, gap desang qop-qop, ish desang Ko'hiqodan top* va boshqalar). Birorta ham frazeologik birlik birikma sifatida tug'ilmaydi: ichki shakl unutilganligi sababli u birikmaga aylanadi.

"Publitsistik matn frazeologiyasi, ongli ravishda, mavjud leksik vositalardan yaratilgan. Shuning uchun gazeta frazeologizmlari yorqinligi, o'ziga xosligi, obrazlilik bilan har doim ham muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, muallifning shaxsiy nuqtayi nazaridan emas, balki haqiqatan ham frazeologik birliklar haqida gapiradigan bo'lsak, ularning leksik komponentlari, ayniqsa, komponentlarning bog'lanish tamoyillari har doim aniq va ravshan bo'ladi"<sup>2</sup>. Gazetada, kuzatishlarimizga ko'ra, faqat frazeologik birliklar (*les travailleurs de la mer*) va frazeologizm bo'lmagan turg'un so'z birikmalari (*l'industrie aéronautique du pays*) mavjud bo'lib, ularning turtki berish xarakteri ko'pincha shartlidir. Masalan, *couronne* so'zi (*couronne d'échecs, couronne de football, couronne de tennis* va boshqalar) chempionlik unvonini belgilash uchun ishlatiladi. Xuddi shuningdek, jurnalistlar taxt yoki shohlarning hassasini asosiy so'z sifatida tanlashlari ham mumkin edi.

<sup>1</sup> Культура речи сегодня: теория и практика: коллективная монография. М.: 2009.

<sup>2</sup> Культура речи сегодня: теория и практика: коллективная монография. М.: 2009.

Bir tomondan, umumtildagi frazeologik birliklarning, ikkinchi tomondan, gazeta frazeologiyasining tuzilishida farqlar mavjud. Tilda struktura jihatdan ham soʻz birlikmalariga, ham gaplarga teng boʻlgan frazeologik birliklarni uchratish mumkin. Struktura jihatdan gazeta frazeologik birliklari doimo soʻz birlikmalari shaklida boʻladi (oq xalatlilar).

4) "Gazeta frazeologik birliklari shablon boʻyicha tuzilgan va qolip nafaqat sintaktik sxemada, balki soʻzlarni tanlashda frazeologik birlikning "moddiy" qismida ham aks etadi, yaʼni soʻzning maʼnolari toʻplamidan, semantik maydondan foydalanishda mos keladigan maʼnoli soʻzlarni tanlashda chegara mavjud"<sup>3</sup>.

5) Gazeta va umumtildagi frazeologik birliklarning boshqa jihatlarida ham farqlari mavjud. Demak, bu va boshqa shakllanishlarning umri butunlay boshqacha. Umumtildagi frazeologik birliklarining grammatik shakllaridan birortasi yoki komponentining bir qismi eskirganda ham nutqda faol ishlatiladi. Publitsistik matn frazeologizmlari bir yoki ikki avlod oʻquvchilarining koʻz oʻngida paydo boʻladi va yoʻqoladi: bir necha oʻn yillar davomida biz gazeta sahifalarida XX asrning 20-yillaridagi "requis de l'impérialisme", "plume des pirates" kabi frazeologik birliklarini tez-tez koʻrmadik. *Balise, montre, armée, alarme* soʻzlari asosidagi frazeologik birliklarning uchrashi sezilarli darajada kamaydi. Biroq koʻp yillar davomida "*biographie*", "*géographie*", "*calendrier*", "*frontière*" kabi tayanch soʻzlar oʻz oʻrnini yoʻqotmadi. Ular negizida tobora yangidan yangi turgʻun iboralar shakllanib bormoqda. Umuman olganda, fransuz publitsistik matn frazeologiyasini toʻldirish jarayoni intensiv hisoblanib, gazeta tili uchun qoliplashgan nutq shablonlariga qarama-qarshi rivojlanib boradi. Bu esa, shubhasiz, gazeta tili frazeologik birliklari tarkibini doimiy ravishda kengaytirishga yordam beradi.

6) Va nihoyat, umumtil va gazeta frazeologik birliklari oʻrtasidagi muhim farqni yana bir nuqtada koʻrishimiz mumkin. "Umumtil frazeologik birliklarining grammatik, semantik yoki sintaktik jihatdan mantiqsiz shakllanish holatlari mavjud emas va boʻlishi ehtimoldan yiroq"<sup>4</sup>. Hatto mantiqsiz (*la morale comme un*

<sup>3</sup> Культура речи сегодня: теория и практика: коллективная монография. М., 2009.

<sup>4</sup> Культура речи сегодня: теория и практика: коллективная монография. М., 2009.

*printemps, un centrale solaire contreversée*) koʻzga koʻrinadigan motivatsiyaga ega boʻlmagan tuzilmalar nuqsonli deb hisoblanmaydi, chunki ulardan foydalanish kuchli nutq anʼanasi bilan belgilanadi. Ushbu frazeologik birliklarning qoʻllanilishi ekspressiv boʻyoqdor soʻzlarni ishlatishdan mohiyatan farq qilmaydi.

Umumtil frazeologik birliklari til tizimining bir qismi boʻlib, mavjud boʻlish huquqini allaqachon taʼminlagan. Fransuz publitsistik matni frazeologik birliklari esa baʼzida semantik jihatdan mantiqsizdek koʻrinadi. Balki bunga sabab ichki shaklning oʻzgaruvchan, egiluvchanligidan boʻlishi mumkin. Bunday vaziyat asosan metaforik frazemalarda koʻzga tashlanadi. Masalan, *métal ailé*. Har qanday moddadan tayyorlangan mahsulot qanotli boʻlishi mumkin, lekin moddaning oʻzi emas. Bir soʻz bilan aytganda frazeologik birlik doirasi kengayishi ularning maʼlum kontekstga koʻra moslashtirish mumkinligi natijasidandir.

7) Gazeta sarlavhalari va maqolalari gazeta tili hamda ustubining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Aynan sarlavhalar, birinchi navbatda, oʻquvchiga maqolani, uning negizini tashkil etuvchi mazmuni bir butun sifatida tanishtiradi.

Turli vaziyatlarda publitsistik uslubda ishlatiladigan frazemali sarlavhalarning semantik va stilistik tomonlarini oʻrganish murakkab vazifa boʻlishi bilan bir qatorda, u muhim ahamiyatga ega. Dastlab taniqli tilshunos olim G.O. Vinokur<sup>5</sup>, gazeta qatʼiy belgilangan va elementar kommunikativ vazifalarni bajarishini hamda u badiiy, poeziya funksiyasidan mahrum boʻlib, oʻquvchilarning maksimal soniga, neytral lingvistik muhitga moʻljallanganligini taʼkidlaydi. Shu oʻrinda neytral lingvistik muhitni buzmasdan matn ifodaliligini, emotsional-ekspressivligini kuchaytirish xususiyatiga ega boʻlgan frazeologik birliklar, xususan, komparativ frazeologik birliklarning publitsistik matn tarkibida ishlatilishini atroflicha oʻrganish, ilmiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etadi.

Frazemali sarlavhalar muammosini tadqiq etish sarlavhalar sintaktik strukturasi, ularning bayon maqsadiga bogʻliqligini aniqlash imkonini beradi. Sarlavhalarni mohirona tanlash oʻquvchining yangi, hali oʻqilmagan asarni

<sup>5</sup> Винокур Г. О. Филологические исследования. Лингвистика и поэтика. Наука, М.: 1990, 451 с.

boshidanoq qanday qabul qilishi uchun katta ahamiyatga ega. Gazeta va jurnallarda, nafaqat an'anaviy sarlavha turlari mavjud, balki asosiy vazifasi o'quvchining alohida e'tiborini jalb qilish va uni tegishli maqolaga qiziqtirishdan iborat bo'lgan, tuzilishi va mazmuniga ko'ra yangi turdagi sarlavhalar ham mavjud va ularning tarkibi doimiy yangilanib, boyib bormoqda. Ko'zimiz tez-tez nozik mavzularni yoritish maqsadida ishlatilgan iboralar, maqollardan tashkil topgan sarlavhalarga tushadi. Ta'kidlash joizki, frazeologik birliklar sarlavhalarda odatda qoliplashgan shaklda qo'llaniladi (*a l'ombre de la mort, au soleil de la vie, rebonjour tristesse, les fast foods gagnent du terrain*).

"Frazeologizmlar sarlavha sifatida tayyor til elementi vazifasini bajarish bilan birga, matn haqida dastlabki ma'lumotni o'zida aks ettirib, matn ekspressivligi va emotsionalligini oshiradi. Maxsus stilistik fazilatlariga ega bo'lgan frazeologizmlar sarlavha tuzilmalarini yaratish uchun doimiy, tayyor xomashyo sifatida ishlatiladi. Jurnalist sarlavhalar yaratishda ushbu xomashyodan qanchalik topqirlik bilan foydalansa, ular shunchalik yorqinroq bo'ladi hamda ularning o'quvchiga ta'siri shunchalik samarali bo'ladi. Shuning uchun jurnalistning ushbu tayyor birliklardan qanday foydalanishi va ularning tarkibini qanday yangilashi hamda yangi ma'no berishini aniqlash muhimdir"<sup>6</sup>. Badiiy adabiyot va publitsistikada frazeologik birliklardan foydalanishning turli usullari mavjud. Yozuvchi va publitsistlar frazeologik o'zgartirilgan shaklda ham qo'llaydilar. Bu holatda frazemalar mazmuni hamda tarkibi yangilanishi mumkin. Komponentlari tushirib qoldirilgan, ya'ni elliptik holda qo'llanilgan, frazeologik sarlavhalar (*du racisme en Amerique, le pape vert, dire la desillusion à Teheran*) ham mavjud. Odatda bunday frazemali sarlavhalar til me'yorining buzilishi deb qaralmaydi. Matnga frazeologik birlikni kiritishda emotsional ta'sirga erishish uchun jurnalistlar ko'pincha ularni o'zgartiradilar. Tilning odatiy shakllarini buzish, nutqqa xilma-xillik keltirishi bilan bilvosita ekspressivlikka ham xizmat qiladi. Shuningdek inson ongida tayyor holda in'kos etuvchi frazeologik birliklarning

<sup>6</sup> Культура речи сегодня: теория и практика: коллективная монография. М.: 2009.

o'zgartirilishi psixologik omillar bolan bog'liq bo'lganligi sabab, mushtariy tomonidan matnga bo'lgan diqqatning oshishiga sabab bo'ladi. Zero, bunday turli o'zgarishlardan so'ng frazeologik birliklar tarkibi qisqa, ixcham, mazmunan tushunish oson bo'lib qoladi<sup>7</sup>.

### 3.2. Intertekstuallik va komparativ frazeologik birliklarining fransuz publitsistik matnlarida ifodalaniishi

Yuqorida aytib o'tganimizdek, tadqiqotimizning maqsadi komparativ frazeologik birliklarning jurnalist tomonidan belgilanadigan kontekstual va diskursiv omillar konfiguratsiyasi, dekodlash muammosi va ushbu turdagi ifodalar yetkazishi mumkin bo'lgan yashirin qiymatlarning yangiliklar berish uslubiga alohida e'tibor berishdir. Publitsistik matnlar va ularning funksional hamda uslubiy xususiyatlari ko'plab tilshunoslar<sup>8</sup> tadqiqotlarida batafsil ko'rib chiqilgan.

Bosma ommaviy axborot vositalarining tiliga e'tibor quyidagi qoidalar bilan izohlanadi:

1. Yozma muloqotning bu shakli eng qadimiy ommaviy axborot vositasi bo'lib, unda ommaviy axborot vositalari tiliga xos bo'lgan barcha asosiy stilistik vositalar qo'llaniladi;
2. Publitsistik matnlar lingvistik tavsif jihatidan (radio va videomateriallarga nisbatan) eng maqbul va qulay materialdir<sup>9</sup>;
3. Internetning yuqori raqobatiga qaramay, fransuz bosma ommaviy axborot vositalari yangi sharoitlarga moslashib, o'z pozitsiyalarini saqlab qolishda davom etmoqda. Nashrlar o'z veb-saytida bosma nashrning elektron versiyasini pullik obuna asosida nashr etadilar, nashrlar arxiviga kirishini ta'minlaydilar.

<sup>7</sup> Bally Ch. Traité de Stylistique française. Je éd Librairie Klincksieck, P., 1951, 65-66 p.

<sup>8</sup> Солганик Г.Ю. Лексика газеты: функциональный аспект. М.: 1981, 112 с; Кошкова В.И. Речевая структура газетного текста. Изд-во С.Петербургского ун-та, 1995, 160 с; Кожина М.Н. Стилистика русского языка. Учебник. М.: 2008, Наука, 464 с.

<sup>9</sup> Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиаэкстекстов (опыт исследования современной английской медиаречи). М.: 2005, 36 с.

La voix du nord<sup>10</sup> gazetasi (2020y. 4-aprel) o'tkazgan so'rovnomaga natijalariga ko'ra, fransuzlarning 82% qismi bosma nashrlarni o'qishga bog'langan, bu odat bo'sh vaqt va shaxsiy hayotda hali ham mavjud. Ushbu tadqiqot doirasida *publitsistik matn, gazeta va jurnalistik nutq* deyilganda zamonaviy fransuz matbuotining gazeta va jurnal maqolalari tushuniladi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gazeta va publitsistik uslubni tizimli tavsiflashning asosiy qiyinchiligi uning ko'p qirrali muammolilikda va ko'p janrli hamda ko'p uslubda namoyon bo'ladigan jamoaviy tabiati bilan bog'liq<sup>11</sup>. Shunga qaramay, bu barcha xilma-xil materiallarni umumiy maqsad birlashtiradi, bu gazeta-jurnalistik, ya'ni publitsistik uslubning funksiyalarida o'z ifodasini topadi. Gazeta va publitsistik matn o'zining har bir segmentida ham ta'sirchan, ham informatsiyaga boy bo'lishi kerak, har ikkala sifatni ham tizimli zanjirda birlashtirib turishi muhim sanaladi. Matbuot nafaqat bugungi kunning eng muhim voqealari haqida xabar beradi, balki tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarni aks ettiradi, ularni ma'lum bir mafkura nuqtayi nazaridan yoki kommunikativ maqsadga muvofiq talqin etadi. Gazetalar o'quvchilarga ta'sir ko'rsatadi, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan va hatto ular uchun qadrlil yo'nalishlarini o'zgartira oladigan xabarlarni nashr etadi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, matn adresant<sup>12</sup> va adresat<sup>13</sup>ning o'zaro munosabatlari talab etadi, bunda matnning turiga qarab ba'zi omillarning bo'lishi zarur hisoblanadi. Publitsistik matndagi adresant va adresat munosabatlarning tabiati quyidagi omillar bilan oldindan belgilanadi.

1. Bosma nashr – adresant va adresat o'rtasidagi masofaviy aloqa vositachisi. Maqolaning muallifi va o'quvchisini makon va zamon ajratib tursa-da, gazeta matnining manzili bashorat qilnadigan, umumlashtirilgan ma'lumot sifatida ishlaydi.

<sup>10</sup> <https://www.lavoixdunord.fr/1161906/article/2022-04-04/papier-ou-digital-comment-lisent-les-francais>  
<sup>11</sup> Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиатекстов (опыт исследования современной английской медиатексты). М. 2005. 36 с.

<sup>12</sup> Adresant [nem. Adryessant-yuboruvchi], pochta orqali tyelyegramma, xat va sh.k. yuboruvchi shaxs yoki tashkilot O'TIL-I, 42-b

<sup>13</sup> Adresat [nem. Adryessat-oluvchi] adryesiga xat tyelyegramma va sh.k. yuboriluvchi kishi yoki tashkilot O'TIL-I, 42-b

2. Adresantning alohida ijtimoiy maqomi va uning adresat bilan aloqasining mustahkamligi. Jurnalistikada subyektning ijtimoiy holati jamoaviy obrazni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ma'lum bir mafkuraviy tamoyilga asosan o'z zamondoshlarining o'y-fikr va tuyg'ularining kuychisi sifatida namoyon bo'ladi.

3. Muayyan maqsadni ko'zlovchi subyektning adresatni biror narsaga ishonitirish, uni o'ziga hamfikr qilishdagi kommunikativ faoliyatini amalga oshiradi.

Adresant o'zining kommunikativ niyatlariga muvofiq zarur ma'noga ham mavzu jihatidan mantiqli, ham konnotativlikka ega bo'lgan matn yaratish uchun lisoniy birliklar tanlaydi, zarur semantik aloqalarni o'rnatgan holda ularni nutqda tartibga soladi. Natijada, yaratilgan matn qabul qiluvchiga ba'zi kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy tilshunoslikda gazeta tili standart va ifodaning dialektik birligi sifatida tavsiflanib, "gazeta nutqi me'yorlashtirilgan va ekspressiv til vositalarining muntazam o'zaro bog'liqligi, ularning almashinishi va qarama-qarshiligi sifatida belgilanadi"<sup>14</sup>.

J. Kristevaning fikricha, matn bir necha so'zlarning kesishishi(jamlanmasi) bo'lib, biz ma'lum matn tarkibida kamida bitta boshqa matndan olingan so'zni o'qiydiz. Har qanday matn iqtiboslar mozaikasi kabi tuzilgan va intersubektivlik/intertekstuallik asosida shakllanadi<sup>15</sup>. Bizga ma'lumki, matn turli intersubektivlik/intertekstuallik asosida shakllanadi<sup>15</sup>. Bizga ma'lumki, matn turli tillar, turli madaniy manbalar orqali yaratilishi mumkin, masalan: san'at, musiqa, opera va hokazo. J.Kristeva tadqiqotlarida aynan bir matn sohasi ajratib ko'rsatilmagani sabab biz intertekstuallikni ommaviy axborot vositalarida ham uchratish mumkin deb hisoblaymiz. Masalan: radio yozuv(stenogramma), improvizatsiya usullari, publitsistik matnlar, miflar, an'anaviy ertaklar shular jumlasidandir. Shuningdek, u matnli xabarni og'zaki bo'lmagan belgilar tizimlari bilan birlashtirgan ifodaning gibrid shakllariga ham taalluqli bo'lishi mumkin: teatr, opera, kino, komikslar kabi. Majoziy yoki musiqiy belgilar tizimlari atrofida

<sup>14</sup> Кузнецов В.Г. Функциональные стили современного французского языка (публицистический и научный). Учеб. Пособие. М. 1991, Вып. шк. 44 с. Букина Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ). М. 2021

<sup>15</sup> J. Kristeva, *Séméiotiké* P. 1969, Ed. du Seuil, coll. Points, p. 84-85.

bayonotlarni qayta taqsimlash faktining o'zi stilistik bo'yoqqa egaligi, intertekstuallik materiallarining ko'pligining isbotidir. Bunga qo'shimcha tarzda aytib o'tish joizki, semiotik gipoteza imkoniyatlari qatorida afsonaning transpozitsiyasini ham ahamiyatli bo'lib teatr ishi, rasmning eskizi, yozuv amaliyotining kelib chiqishida ikonografik hujjatlardan foydalanish, ularning ma'lum matnlarning estetikasiga kiritilishi yoki qayta yaratilishi, illyustratsiyalar, emblemalar, kollajlar, kalligrammalar, fotomontajlar yoki filmlariga kiritilgan iqtiboslarni o'z ichiga olishi mumkin.

Yozuvchilar, jurnalistlar ajoyib kitobxonlar bo'lgani uchun, ularning matnlarida boshqa matnlar izlari bo'lishi mantiqan to'g'ri. Fransuz publitsistik matnlarida ham intertekstuallik<sup>16</sup>ka xos xususiyatlarni aynan komparativ frazemalar orqali berish hollari ko'p kuzatiladi. Zero, fransuz millatiga xos mifologik obrazlar singari ramziy belgilarni matn tarkibiga kiritilishi asosida mavjud vaziyatni obrazli-mativatsion tarzda tasvirlab, adresantga yetkazishda tom ma'noda ko'priklar hosil qiladi. Intertekstuallik tipologiyasi borasida olimlarning fikrlari turlichadir. Fransuz tilshunosi Gérard Genette<sup>17</sup> matnlarni transtekstuallik asosida o'rganib, *intertekstuallik, paratekstuallik, metatekstuallik, gipertekstuallik va arxitektuallik* turlarini ko'rsatib o'tadi va ular matnda bajargan vazifalari, *murojaat, argumentativ, germenektivik, o'ynoqi-parodiya, axloqiy, metadiskursivlikka* ko'ra tahlil qilishni taklif etadi. Biz publitsistik matnlarda ishlatilgan komparativ frazemalarni mazkur nazariyaga muvofiq tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz, zero, fransuz publitsistik matnlari ma'lumot uzatish bilan bir qatorda ularni sharhlaydi, ishontirish maqsadida fransuz millatiga xos ramziy belgilardan foydalanadi.

Publitsistik matnning yuqori saviyali bo'lishida, axborotni tezkor yetkazishda, materiallarni tayyorlashdagi samaradorlik albatta obrazli ifoda vositalarini tezda izlash va mavzuga moslashtirishni talab etadi. Gazeta mavzusini lingvistik jihatdan sayqallash gazetizm<sup>18</sup> deb nomlanadi. Iboralar yoki klishe'lar jurnalistga tez va

<sup>16</sup> Ma'lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma'noning qayta yaratilishi

<sup>17</sup> Gérard Genette. *Palimpsestes: la littérature au second degré*, P. : Éditions du Seuil, 1982, 468 p.

<sup>18</sup> Кожина М.Н. *Стилистика русского языка*. М.: 2008, 350 с.

to'g'ri yozish imkonini beradi<sup>19</sup>. Devid Blond<sup>20</sup>ning so'zlariga ko'ra, til vositalarini maromiga yetkazib ma'lumotni uzatish idrok etishni osonlashtiradi, chunki bu uni dekodlash uchun sarflangan vaqtni kamaytiradi. Bugungi kunda axborotning ko'pligi uni mushtariylar tomonidan tom ma'noda ma'naviy jihatdan hazm qilishga imkon bermasligi mumkin. Bu vaziyatga yechim albatta xabarning qisqa va aniq, ixchamlashgan matn orqali berilishidir.

Shu bilan birga, ifoda o'quvchiga ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ham gazeta matnining ajralmas xususiyati hisoblanadi. Fransuz tadqiqotchilari ta'kidlaganidek, o'qishni jonli va jozibali qilish uchun fransuz jurnalistlari gazeta matnini *fête du langage*<sup>21</sup> ga aylantirdilar, bu yerda ekspressivlik yuqori baholanadi<sup>22</sup>.

Yaxshi bilamizki, til elementlari mazkur ekspressivlikni oshirishda muhim omillardan sanaladi. Shubhasiz, publitsistik matnga emotsional, ifodali, majoziy rang beruvchi lisoniy birliklardan biri bu- komparativ frazeologik birliklardir.

Quyida komparativ frazeologik birliklar publitsistik matnning muhim ekspressiv vositasi ekanligi, ularning konnotativ ma'nosini kontekstda amalga oshirilishini tahlil qilamiz.

Publitsistik matnning o'ziga xosligi, mavzuning ommabopligi, stilistik jihatdan murakkabligi, ma'lum bir umumlashgan g'oyaga yo'naltirilganligi kabi xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ma'lumot berish orqali ta'sir ko'rsatish, vazifasining dialektik yaxlitligi, matn mezonning sohalarga ko'ra muvofiq shakllanishi, lisoniy belgilardan neytral foydalanish kabi funksiyalari bilan boshqa turdagi matnlardan farq qiladi.

Ikki komponentli komparativ frazeologik birliklar orasida eng ko'p uchraydiganlari quyidagilardir: *s'engueuler comme du poisson, jeter comme des lions affamés, nager comme un poisson, connaitre comme sa poche, croire dur*

<sup>19</sup> Балли Ш. *Французская стилистика*. М.: 2009, 109 с.

<sup>20</sup> Blonde D. *Du cliché journalistique Mémoire et méditations*, 2004, №32(1) [Elektronniy resurs]. URL : <https://id.erudit.org/iderudit/011028ar>

<sup>21</sup> fête du langage - Nutq festivali, tantana, bayrami.

<sup>22</sup> Hausmann F. J. *La langue de la presse Histoire de la langue française 1945-2000*, Sous la direction de Gérard Antoine et Bernard Cerquighini, CNPS EDITION, P. 2000, 199-210 p.

*comme fer, pousser comme des champignons, être comme un poisson dans l'eau, aller comme un gant, se réduire comme une peau de chagrin, se soucier / se moquer comme d'une guigne, fuir / craindre comme la peste, se ressembler comme des frères, se vendre comme des petits pains.*

Dastlab komparativ frazeologizmlarning kontekstda o'ynoqi-parodiya shaklini amalga oshirish xususiyatlarini tahlil qilamiz: *s'engueuler comme du poisson* iborasi situatsion baholovchi konnotativ ma'noga ega bo'lib, bu frazeologik birlik katta egiluvchanligi bilan ajralib turadi va kontekstga oson moslashadi. Ular turli janr va mavzulardagi maqolalarda, ya'ni ijtimoiy-siyosiy mavzudan tortib, madaniy-ko'ngilochar mavzudagi maqolalargacha qo'llaniladi. Zamonaviy fransuz publitsistik matning tendensiyalaridan biri bu-komparativ frazeologizmdan ironiya va skeptitsizm<sup>23</sup> bilan foydalanishdir.

Prodyusser PIERRE-ANTOINE CAPTON, "C À VOUS" loyihasida ishtirok etgan juftlik haqida gapirarkan: Le duo Lemoine-Cohen fonctionne à merveille. L'animatrice appelle d'ailleurs son acolyte "La Patoune", "parce que c'est une bonne pâte". "Comme dans les couples qui s'aiment vraiment, assure-t-elle, on peut *s'engueuler comme du poisson*<sup>24</sup> pourri, sans qu'il y ait de conséquences<sup>25</sup>". Ikki aktyorning bir-biriga naqadar mosligini har qanday vaziyatda hech qanday sabab-natijani o'ylamasdan qattiq urushini (odatda biror sahnadagi rolda juftliklarda bajarishi lozim bo'lgan qaltis vaziyatlarni nazarda tutgan) *s'engueuler comme du poisson* komparativ iborasi bilan aniqroq ifodalashga harakat qiladi, ya'ni metatekstuallik asosida, tiriklik chog'ida gapirmagan baliqni o'lgan holatidagi

<sup>23</sup> Scepticisme[fr]- Attitude critique faite de défiance à l'égard des idées reçues, de refus de toute illusion (Tanqidiy munosabat qabul qilingan g'oyalarga ishonchsizlikdan, barcha illyuziyalarni rad etishdan iborat) [PR.]

<sup>24</sup> haqoratlar bilan bostirib kelmoq; haqoratlar bilan o'ralash, ta'na qilish, juda qattiq tanbeli berish. XX asr boshlaridan paydo bo'lgan bu iborani tushunishning ikki yo'li mavjud - birinchisi: "chirigan baliq kabi baqirishi [kimgadir baqirishi mumkin]", bu juda dargumon, chunki chirigan baliq shunchaki o'lik, endi kimga nima bo'lishidan qat'iy nazar baqirishga qodir emas (va shunga qaramay, biz hech qachon tirik baliq kimgadir baqirganini ko'rmaganmiz) - ikkinchisi: "chirigan baliqqa o'xshab baqirish" baliqqa baqirish bu holatda qanday ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglash kerak bo'ladi.

Shuning uchun ikkala holatda ham ifoda juda g'alati ko'rinadi. Ammo Alen Rey buni chirigan baliq bilan muomala qilish haqiqatining ehtimoliy deformatsiyasi bilan izohlaydi, bu haqorat an'anaviy ravishda baland ovozda baliq sotuvchilari o'rtasida paydo bo'lgan degan taxmini aytib o'tadi <https://www.expressio.fr/expressions/engueuler-comme-du-poisson-pourri>

<sup>25</sup> Le magazine du Monde N-467. SAMEDI 29 AOÛT 2020. 32-b

qichqirig'i bilan ikki juftlik o'rtasida yuzaga keladigan vaziyatni paradoks bilan obrazli ifodalashga urinadi. Muallif aktuallashtirish orqali matnga stilistik sayqal beradi. Bu paradoksni qay tomondan tushunishni esa jurnalist o'quvchi ixtiyoriga qoldiradi.

Ilm rubrikasidagi Nathaniyel Herzbergning Nobel mukofotiga kimyo yo'nalishida sazovor bo'lgan olim ayollar (Emmanuelle Charpentier et Jennifer Doudna, *une Française et une Américaine*)ning juftlikdagi muvaffaqiyatini bayon qiladi. Ularning bu mukofotga sazovor bo'lishi birgalikda ish olib borganidaligiga ishora berib, yolg'iz ish olib boruvchi bu go'yoki mediamakonda noqulay suzayotgan baliqdek iborasini buzib ishlatadi va bu bilan yakka ishlashning chegaralanganligini *nager comme un poisson dans le bocal* (so'zma-so'z bakalda suzmoq; o'zini noqulay his qilmoq) frazeologizmi bilan o'quvchiga murojaat shaklida yetkazishga harakat qiladi:

Une communicatrice hors pair, d'un côté, *nageant comme un poisson dans le bocal*<sup>26</sup> des médias. Une chercheuse parfois sauvage de l'autre, peu pressée d'acquiescer la rançon de la gloire, plus intéressée par les détails de sa dernière manipulation que par le polissage d'une intervention télévisée<sup>27</sup>. Bu vaziyatda jurnalist argument qilish jarayonida fransuz xalqi ongiga "o'zini qulay, erkin his qilmoq" ma'nosi bilan singgan iboradagi *l'eau-suv* so'zini *le bocal-bocal* so'zi bilan almashtirib zid ma'no hosil qiladi.

Siyosat bo'limida Denis Cosnard An Idalgoning qayta saylanganidan keyin sotsialist va ekologlarning o'zaro tortishuvini obrazli qiyoslash *être comme chiens et chats* (so'zma-so'z it mushuk kabi bo'lmoq) frazeologizmi orqali vaziyatning naqadar tarang ekanligini o'quvchiga tushuntirishga harakat qiladi: *Depuis la réélection d'Anne Hidalgo, socialistes et écologistes sont comme chiens et chats*<sup>28</sup>. Jurnalist o'z qahramonlarining faol harakatlarini, ularning muvaffaqiyatli natijaga

<sup>26</sup> comme un poisson dans l'eau [adv] complètement à l'aise, dans son élément-qulay, oson tarzda FB ning muallif tomondan o'zgartirilgan shakli

<sup>27</sup> Le Monde, VENDREDI 9 OCTOBRE 2020, p-11

<sup>28</sup> Le Monde, VENDREDI 9 OCTOBRE 2020, p-35

bo'lgan ishonchini ijobiy baholaydi, lekin maqsadga erishish imkoniyatiga nisbatan vazminlik ko'rsatadi.

Andre Russinning komediyasidagi ssenariydan keltirilgan parchaga jurnalist ijobiy fikr bildirar ekan uning nutqi o'ynoqi va jarangdor ekanligini ta'kidlaydi va ushbu komediyadan parcha keltirib, unda aktyor inson farzandni o'zi tarbiyalangandek tarbiyalashini zamon ko'tarmasligi, bunday vaziyatda boshi qotishini, (xumkalla bo'lmoq) *avoir la tête comme un tambour* -so'zma-so'z: *tamburdek-barabandek* boshi bo'lmoq iborasi bilan izohlaydi.

Il faut bien dire que dans la comédie d'André Roussin elle est vraiment tordante. Ainsi, lorsqu'elle déclare : "On ne sait plus où est son devoir. Et ça, c'est effrayant ! Toutes les valeurs sont faussées ! Si on élève ses enfants comme on vous a élevé vous-même on n'est plus de son temps, en tout cas, pas du leur : si on se plie aux exigences de l'époque, ils vous font des enfants à douze ans et demi ! Comment veux-tu qu'on s'en sorte ? Moi, j'y renonce ! Qu'on ne me parle plus de famille ! Que l'on ne dise pas que l'on peut encore en avoir une comme celle que nous avons connue !", ou encore, l'air las : "*J'ai la tête comme un tambour*". Cette façon unique de frissonner ses phrases, cette voix haut perchée, jouant à la perfection l'affectation, ce côté "fée Clochette" acidulée, capable de dire des énormités avec un flegme déconcertant<sup>29</sup>.

Jurnalist David Smishing "Baydenning muvaffaqiyatsizligi - D.Trampning baxti" nomli maqolasida J. Baydenning o'ta maxfiy hujjatini o'z garajidagi mashinasiga berkitganini tanqid ostiga olib, birmuncha shov-shuvli D.Tramp davrini qumsagan jurnalistlar tomonidan savollar ostiga qolganini, jurnalistlarning bu xatti-harakatini go'yoki qafasdagi sherlarning tashlanishiga qiyoslab, siyosiy matnga badiiy sayqal berish bilan bir qatorda, jurnalist va matn qahramoni o'rtasida betaraflik pozitsiyasini egallaydi, bunda matn muallifi berilayotgan xabarga bir yoqlama yondashishdan o'zini tiyib xulosa chiqarishni o'quvchi ixtiyoriga qoldiradi.

<sup>29</sup> Le Figaro lundni 26 décembre 2022,23-p.

Baydenning maxfiy hujjatga nisbatan sovuqqonligini ifodalashga intiladi: Un peu frustrés depuis la fin de la présidence agitée de Trump, les journalistes de la Maison-Blanche se sont jetés sur ces révélations *comme des lions affamés*. C'est ainsi qu'au cours d'un échange comme on en avait peu connu ces deux dernières années, Peter Doocy, de Fox News, a lancé à Biden de but en blanc : "Vous gardiez des documents top secret à côté de votre Corvette [une voiture chic de collection] : mais qu'est-ce qui vous est passé par la tête ?"<sup>30</sup>

Yoki "Fox News" jurnalisti Piter Dusi so'nggi ikki yil davomida kuzatilmagan almashinuvda Baydenga aniqlik bilan "Siz o'zingizning Korvettengizning [kolleksiyadagi eng ajoyib moshina] yonida o'ta maxfiy hujjatlarni saqlagansiz : sizning miyangizda qanday o'y fikrlar o'tgan?" deb berilgan savoliga javob bergan Baydenning nutqiga c'tibor bersak. Bu vaziyatda matn qahramoni o'zini oqlashga urinib, bu maxfiy hujjat ekanligi u to'g'ri kelgan joyga qo'yib bo'lmas narsa ekanligini tushuntirishga harakat qiladi va "J'espère bientôt avoir l'occasion de m'expliquer sur ces questions. Comme je l'ai dit en début de semaine, ma Corvette se trouve dans un garage fermé. Vous comprenez ? Ce n'est pas comme si ces papiers dormaient<sup>31</sup> dans la rue (so'zma-so'z : Bu qog'ozlar shunchaki ko'chada uxlaydigan yotadigan hujjatlarmasku) deb javob beradi. Va uning bu javobi Rick McKening mazkur maqolaga Baydenning hujjatga nisbatan sovuqqonligi korrekaturasini izoh sifatida kiritish orqali vaziyatni kulgu ostiga oladi, ya'ni aslida maxfiy narsani mashina garajida saqlashni ahmoqona holat sifatida o'quvchiga yetkazish orqali Baydenning nutqidagi ijobiylikni ifodalovchi bu qog'ozlar maxfiy bo'lsa-da, ko'chada yotganligini salbiy ishora sifatida beradi. Bunday vaziyatni o'quvchi bir qarashda ilg'ashi qiyin, albatta, o'quvchidan bu ironiyani payqash uchun o'ta sinchikovlik talab etiladi.

Jurnalist Piyerre Lepelletier siyosat rubrikasida ketayotgan rahbariyat/sobiq boshqaruvchilarning Ruan meri va uning jamoasi harakatlarini diqqat bilan

<sup>30</sup> Courrier international — no 1681 du 19 au 25 janvier 2023, p-12.

<sup>31</sup> Dormir - verbe intransitif : 1. Être dans l'état de sommeil. Commencer à dormir 2. POËTIQUE Reposer (en parlant des morts) Dormir du dernier sommeil.

kuzatishini *surveiller comme le lait sur le feu* -(soʻzma-soʻz: toshayotgan sutni kuzatib turmoq) diqqat bilan kuzatmoq idiomasi orqali ifodalaydi va sobiq boshqaruv tizimining nisbatan yashirin salbiy holatini boʻrttirishga harakat qiladi. La direction sortante *surveille en revanche comme le lait sur le feu (fam)* l'aventure de Nicolas Mayer-Rossignol, le maire de Rouen, et son collectif Refondations<sup>32</sup>.

Kongress saylovlarida Oliviyer Faurening qattiq jon kuydirib, mas'uliyat bilan ishlaganligini o'quvchiga jonli tarzda yetkazish uchun jurnalist *mouiller sa chemise* (ko'ylagini ho'llamoq) iborasini ishlatadi : *Nombreux militants l'ont remercié d'avoir mouillé la chemise (fam)* (jon kuydirib harakat qilganda terlab ko'ylakning ho'l bo'lib ketganiga ishora) en permettant le tant attendu rassemblement de la gauche pour les législatives au printemps dernier. (Ko'plab faollar o'tgan bahorda so'llarning uzoq kutilgan qonunchilik saylovlari uchun mitingiga ruxsat berib, ko'ylakni ho'llagani/mas'uliyat bilan o'z ishlariga yondashgani uchun unga minnatdorchilik bildirdi)<sup>33</sup>.

"Qariyalarning sotib olish qobiliyati o'n yil davomida juda pasaydi" nomli maqolada 2010-2019-yillar orasida iqtisodiy inqiroz sabab xarid qobiliyatining boshqa yosh davrlari rivojlanishiga qaramasdan, ularda pasayganini go'yoki *fondre comme neige au soleil*<sup>34</sup> quyoshda erib yo'q bo'lib ketgan qorning vaziyatiga o'xshatadi va bu qariyalar uchun naqadar katta yo'qotish ekanligini o'quvchiga uqtirishga harakat qiladi: *Entre 2010 et 2019, soit la décennie suivant la crise financière, les seniors ont vu leur pouvoir d'achat fondre comme neige au soleil, alors même qu'il continuait de progresser pour toutes les autres catégories d'âge, selon une note d'analyse présentée jeudi par France Stratégie, un organisme rattaché à Matignon et chargé de conseiller le gouvernement.* (Matignonga biriktirilgan va hukumatga maslahat berish uchun mas'ulning payshanba kuni France Strategy tashkiloti tomonidan taqdim etilgan tahlil qaydnomasiga ko'ra 2010 va 2019-yillar oralig'ida, moliyaviy inqirozdan keyingi o'n yil ichida, keksalar o'zlarining xarid

<sup>32</sup> Le Figaro, Vendredi, 6 janvier politique, 2023 p-8

<sup>33</sup> Le Figaro, Vendredi, 6 janvier politique, 2023p-8

<sup>34</sup> Disparaître très rapidement <https://www.expresso.fr/expressions/fondre-comme-neige-au-soleil>

qobiliyatini quyoshda qordek erib ketganini ko'rdilar, garchi u boshqa barcha yosh toifalari uchun rivojlanishda davom etayotgan bo'lsa ham)<sup>35</sup>.

Céline Lazorthes, investor, o'z intervyusida 15 yil ilgari feministlarni kimningdir qo'lga qaramlar sifatida izohlarkan *voir comme des chiennes de garde avec des poils sous les bras* -qo'l ostidagi itlarga qiyoslaydi va fikrining naqadar salbiy o'ttenkali ekanligini ko'rsatadi:

"Il y a quinze ans, je voyais les féministes comme des chiennes de garde avec des poils sous les bras", s'amuse-t-elle<sup>36</sup>. Bunda ayni itning qaramlik xususiyatini insonga ko'chiradi.

Jurnalist, Cédric Piyetralunganing E.Makronning "Pandemiyaning talofotlariga qaramasdan, mamlakatni qayta tiklash orzu emasligini ta'kidladi" nomli maqolasida, prezident nutqini jonli, ta'sirli tarzda yetkazish uchun *lâcher la phrase d'un coup, comme un cri du cœur* iborasini matn tarkibiga kiritib jonlantirish va alletratsiyadan samarali foydalangan :

"Il faut regarder devant !" Le président de la République, Emmanuel Macron, a lâché la phrase d'un coup, comme un cri du cœur. Pour parler de la situation sanitaire, marquée par un rebond de l'épidémie due au coronavirus. Ya'ni, "Oldinga qarash lozim!" Respublika Prezidenti Emmanuel Makron yurakdan chiqqan faryod kabi birdan hukmni bekor qildi. Koronavirus tufayli epidemiyaning qayta tiklanishi bilan bog'liq salomatlik holati haqida gapirganda<sup>37</sup>. Kontekstual muhit frazeologik birliklarni istehzo bilan o'qishga yordam beradi. Maqola muallifi qarama-qarshi baholovchi-konnotativ ma'noga ega bo'lgan lingvistik vositalardan foydalanib, voqelik va kelajak uchun bajarilmagan rejalar o'rtasida kontrast yaratadi. Obyektiv voqelik metafora va epitetlar yordamida aniq salbiy baholovchi konnotasiyaga ega vositalar bilan voqelikni tasvirlaydi<sup>38</sup>.

<sup>35</sup> Le Figaro, Vendredi 6 janvier 2023 entreprises, p-27

<sup>36</sup> Le Figaro Samedi 7 - dimanche 8 janvier, 2023,40-p

<sup>37</sup> Le Monde, DIMANCHE 30 - LUNDI 31 AOÛT 2020, 8-p

<sup>38</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), М. 2021

Ketma-ket 6 yil mobaynida Yevropaning eng yaxshi chang'i kurorti deb topilgan Val Torens haqida JULIE BRAUN gapirar ekan, mazkur hududni juda yaxshi biluvchi Xuan laqabli o'qituvchi Juliyenni barcha hududga olib borishi haqida gapiradi va *connaitre comme sa poche* -so'zma-so'z: o'z cho'ntagi kabi bilmoq- besh qo'ldek (barmog'idek) bilmoq idiomasini ishlatadi. *Connaitre comme sa poche* - "kimnidir/nimanidir mukammal bilish" fe'lining semantikasi bilan beriladigan ijobiy bahoga ega va biror narsada yuqori malaka egalik darajasini belgilaydi:

Val Tho est le point culminant du domaine des 3 Vallées, au cœur d'un cirque naturel dominé par 6 glaciers. Je quitte l'hôtel skis aux pieds et démarre ma visite avec un moniteur de l'ESF. Juan, de son surnom, *connait* Val Tho *comme sa poche*. De télésièges en télécabines, il m'emmène au sommet des plus belles pistes, jusqu'à 3 200 mètres d'altitude<sup>39</sup>. (Val Tho 3 vodiyning eng baland nuqtasi bo'lib, uning bag'rida 6 ta muzlik hukmronlik qiladigan tabiiy hudud mavjud. Men mehmonxonadan chang'ida chiqaman va tashrifimni ESF o'qituvchisi bilan boshlayman. Xuan laqabli o'qituvchi Val Thoni besh barmog'idek biladi. Kanatlardan tortib gondollargacha, u meni dengiz sathidan 3200 metr balandlikdagi eng go'zal yonbag'irlari cho'qqisiga olib chiqadi.)

Juli o'z taassurotlari, his-hayajonlari haqida gapirar ekan, tashrifining uchinchi kuni yangiliklarga boy bo'lgani, shuning bilan birga, qaltis vaziyatdan beziyon, aql bovar qilmagan holda zo'rg'a o'tganini hikoya qiladi va nutqida *arriver comme une fleur*- *Arriver de façon innocente, ingénue, et inopportune* -noqulay vaziyatga tushib qolmoq salbiy idiomasini ishlatadi ammo undan matnga ijobiy baho berishda foydalanadi: Mon 3e jour se lève sur un nouveau défi : dévaler la double tyrolienne Bee, mais aussi, my rendre par mes propres moyens.Or, elle se trouve au sommet d'un télésiège. Je crains de m'égarer, mais tout est super bien indiqué et *j'arrive comme une fleur*.

<sup>39</sup> FEMMES D'AUJOURD'HUI - 2023 HEBDOMADAIRE : N° 5 : p-63

Le Parisien. Mardi 31 janvier 2023 N N° 24394 ning Culture/Loisirs rubrikasida Xaver Kastilyoning ispan bestsellersi "Qordagi kichkina qiz" nomli olti epizoddan iborat seriali (Fransiyada mart oyida efgira berila boshlangan) Netflixda 1- o'rinda turgani haqida yozar ekan, serial qahramoni keng olomon ichida ota-onasining qo'lidan chiqib ketishi ortidan yo'qolib qolgan Amaya ismli, o'zi qalbi kabi go'zal qizcha va shu voqeadan hayoti larzaga kelgan ota-ona haqida hikoya qilinadi : *UN MASQUE de lapin un peu terrifiant, un dernier regard, une foule festive, une main qui se lâche et une fillette qui disparaît. Elle s'appelle Amaya, elle est jolie comme un cœur* et la vie de ses parents bascule dans l'horreur.

Matnda muallif serial qahramoni bo'lgan Amayaning go'zal/beg'uborligini ifodalash bilan birga, uning ichki go'zalligini ham bir vaqtda ifodalash uchun *jolie comme un cœur* - qalbi kabi chiroyli komparativ frazeologizmini ishlatadi va bir paytning o'zida kichik matnda siqilgan, ixcham usulda ichki va tashqi go'zallik ifodasini ijobiy bahoda berdi.

Mazkur rubrikadagi *Maman à tout prix* /Ona barchasiga tayyor nomli serial haqida gapirilganda, onaning kasal deb ogohlantirilishiga qaramasdan, bolasini dunyoga keltirishga qaror qilgan ayol haqida yozar ekan, matnda shifokorlarga nisbatan musbat va manfiy fikr mavjud vaziyatni izohlab, fikrini bayon etish uchun turli : *faire confiance, veiller comme sur un trésor, se servir comme d'un cobaye, faire des essais* kabi komparativ frazeologizmlardan foydalanadi :

À ses yeux, la maladie, qui touche environ un nouveau-né sur 4 500, est "une arnaque". "J'étais dans le déni", reconnaît-elle. Plutôt que de à sa mère et aux médecins, qui *veillent* sur sa santé *comme sur un trésor*, elle préfère croire son père. "Il pensait qu'on *se servait* de moi *comme d'un cobaye, pour faire des essais*". (Ular (shifokor) nazarida har 4500 yangi tug'ilgan chaqaloqdan biriga ta'sir qiladigan kasallik "une arnaque" farzandimda bo'lishi mumkin edi. "Men rad etardim", deb tan oladi u. Onasi va uning sog'ligini xazinadek qo'riqlayotgan shifokorlarga ishonishdan ko'ra, u otasiga ishonishni afzal ko'radi. "U meni sinov uchun gvineya cho'chqasi/ tajriba quyoni sifatida ishlatmoqda deb o'ylardi".)

Éric Neuhoff tomonidan yozilgan Norman Mailer, "l'homme de tous les excès" nomli maqolada yozuvchiga aynan publitsistika sohasi o'ta darajada mos ekanligini bir komponentli *comme un gant* komparativ frazeologizmi orqali ifodalab, odatda qo'lga qo'lqopning mos kelish holatini obrazli tarzda ko'rsatib, ma'lum sohaning yozuvchi stiliga muvofiqligini ko'rsatib beradi: Publicités pour moi-même, ce titre lui va *comme un gant*<sup>40</sup>. (Men uchun publitsistika, qo'lqop kabi mos keladi.)

*Patrimoine et balades* rubrikasida, Grégory Plouviez, adjoint au chef du service Loisirs, fransuzlarning o'z uyida turizm borasidagi vaziyatini izohlar ekan shunday so'zlarni keltiradi: Les cordonniers sont les plus mal chaussés. Avoir à côté de chez soi des trésors mondiaux n'est pas la garantie de les *connaître comme sa poche*. Combien de fois un Francilien visite-t-il la tour Eiffel dans sa vie? Parfois moins qu'un Américain<sup>41</sup>. Bo'zchi bo'zga yolchimas. Dunyo boyliklari uyingizga yaqin bo'lsa, ularni besh barmoqdek bilishingizga kafolat emas. Parijliklar umri davomida Eyfel minorasiga necha marta tashrif buyuradi? Ba'zan amerikalikdan kamroq deya kinoya qiladi.

LAURENT CAMPISTRON, Rugby chempionati oldidan nafaqaga chiqqan sobiq murabbiydan keyin uning o'miga saylanganlari hali aniq rejasiz ishlayotganligini *avancer comme des canards sans tête* -so'zma-so'z-hoshsiz o'rdak singari *odimlamoq* iborasini be'radi va matnga salbiy ruhiyat olib kirib, bundan keyingi g'alabalarning bo'lishi dargumonligini eslatdi: Il y a cette série de 13 victoires de rang aussi, qui s'étendra à 18 si elle réalise un sans-faute dans le Tournoi, ce qui lui permettrait d'égaliser le record mondial actuellement codétenu par la Nouvelle-Zélande (2016) et l'Angleterre (2017). Ce sera difficile, évidemment. Et pas seulement parce que l'avenir incertain des élus de la FFR, qui donnent l'impression d'avancer comme des canards sans tête depuis la démission de l'ex-président Bernard Laporte, ne crée pas franchement un contexte très favorable<sup>42</sup>.

<sup>40</sup> Le Figaro, jeudi 26 janvier 2023, p.39

<sup>41</sup> Le Parisien, juin, 2022, N14, p3.

<sup>42</sup> L'ÉQUIPE, Mardi 31 janvier 2023, 13-p.

Yuqoridagi misollardan ko'rish mumkinki, asos obrazli/tasviriy xususiyatli frazeologik birlikning baholovchi konnotatsiyasi taqqoslash konstruksiyaga aloqador bo'lmagan omillar ta'sirida shakllanadi. shu sababdan vaziyatni to'liq tushunish uchun kengroq kontekst kerak hisoblanadi.

Bir komponentli komparativ frazeologizmlar orasida gazeta matnida eng ko'p uchraydiganlari: "*comme un diable, comme un démon, comme un damné, comme un enfant, comme une épée de Damoclès, comme une furie, comme un damné, comme par hasard, comme par magie, comme un malade, comme un seul homme, comme un malpropre, comme un oiseau sur la branche, comme quatre, comme on respire, comme un rien (fam), comme à la télé (fam), comme un fou, comme un dieu*"<sup>43</sup> ning matn tarkibidagi vaziyatiga e'tiborimizni qaratamiz.

*Comme un fou une folle* bir komponentli frazeologizmlar orasida tez-tez uchraydigan taqqoslash standart tili hisoblanadi. Bu uning valentligi bilan izohlanadi. *Comme un fou une folle* ning ifoda planiga xilma-xil denotativ ma'noga ega fe'llar kiradi: jismoniy harakatlar, kosmosdagi harakat, hissiy holat va his-tuyg'ularning ifodasi kabilar shular jumlasidandir. Bo'rtirib, kuchaytiruvchi fou kuch, ortiqcha va cheksizlik assotsiatsiyasini keltirib chiqaradi. Bu komparativ frazeologik birlik mavjud vaziyatga mos ravishda moslashuvchan bo'lib, emotsionallik konnotatsiyasiga ega. U kontekstual til vositalari va taqqoslash asosi orqali yangilanadi.

Masalan, Le mystère de la forêt de Retz/Ritz o'rmoni siri nomli maqolada 2019-yil 16-noyabr kuni 29 yoshli Eliza Pilarskiga qanday hayvonlar hujum qildi? Uning hamrohi bo'lgan amerikalik xodimlar o'sha kuni sayr qilib yurgan edimi? Yoki Villers Kotteres yaqinidagi o'rmonda bir vaqtning o'zida ov qilgan ovchilarning itlari edimi? kabi savollarga javob berar ekan jurnalist, it taqibiga uchragan Elizaning politsiya agenti tomonidan yordam bergan vaziyati haqidagi guvohligini quyidagicha tasvirlaydi: Selon Christophe Ellul, Curtis a "du sang sur le harnais, il avait un coup de croc à la tête, il avait du sang sur la figure" – signe,

<sup>43</sup> Буйилова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), М. 2021

selon lui, qu'il "n'a fait que défendre Elisa". "Il était à côté d'elle en protection, tandis que les chiens de meute étaient rassemblés autour du corps", assure son maître. L'agent de piste tapote sa joue, déjà glacée. *court comme un fou* jusqu'à sa voiture, distante de 300 mètres seulement du corps d'Elisa. Son portable ne passe pas mieux que dans les bois<sup>44</sup>. Kristof Ellulning so'zlariga ko'ra, Kertisning "jabduqlarida qon bor, uning boshida tish izi bor edi, yuzida qon bor edi" - bu belgi, uni, u "faqat Elizani himoya qilgan". "U uning yonida himoyada edi, itlar jasad atrofiga to'plangan edi", deb ishontiradi. Agent allaqachon muzlab borayotgan Elizaning yonoqlarini silaydi, Elisaning jasadidan atigi 300 metr naridagi mashinasiga jinnidek yuguradi (yordam berish maqsadida). Uning uyali telefoni o'rmonda yaxshi ishlamas edi). Komparativ frazeologik birlik *courir comme un fou* jinnilarcha yugurmoq, bor kuchi, jon jahdi bilan harakat qilmoq-ijobiy konnotativlikni ifodalaydi.

Jurnalist, yozuvchi Joseph Roth haqidagi maqolada bir komponentli *comme un enfant* - bolalarcha frazemasini personaj tasvirini berish uchun ishlatgan va bollalarcha beg'ubor xursandchilik vaziyatiga zohiriy alam ((l'amertume... au fond de cette joie) ni zid berib epitetdan samarali foydalanish vaziyatni ekspressiv-emotionnalik bilan tasvirlaydi; Il avait l'air totalement ingénu quand il était *joyeux*, *comme un enfant joufflu*. Et pourtant était déjà tapie<sup>45</sup>. (Uning ko'rinishi xursand, yonoqlari keng/qizargan bola kabi edi. Ammo bu quvonchning ostida sirli achchiqlik/qayg'u yashirin edi.)

Yoki : Si çę jęge connaissait quelque chose à la montagne, il saurait que trois petits cailloux sous la semelle vous font dérapier dans le vide *comme un rien*<sup>46</sup>. (Agar bu hakam tog' haqida biror narsa bilganida, pastlikdagi uchta mayda toshlar sizni bo'shliqqa hech bir qiyinchiliksiz sudrab ketishini tasavvur qila olar edi

Lion poytaxtida turk ultramillatchi guruhi 24-iyul kuni armanlarning mitingi paytida vahima qo'zg'atdi. Uning rahbari, Oyonnax (Ain)lik Ahmet Chetin 17-

<sup>44</sup> Le Monde, JEUDI 1ER OCTOBRE 2020, p-23

<sup>45</sup> Le Monde, Vendredi 18 septembre 2020, p-7

<sup>46</sup> Le Monde, Vendredi 18 septembre 2020, p-32

sentyabr, payshanba kuni Bourgen Bresse sudiga chiqishi kerak edi. Bu vaziyatda turk manifestining "sayohat-xibis" daligiga ishora qilib, tasodifiy vaziyatlar bo'lishiga umid bildirgani holda, ijobiy bahoga ishora sifatida - *Comme par hasard* iborasini ishlatadi, aslida mazkur ibora salbiy, to'satdan ro'y bergan vaziyatni ifodalash uchun ishlatiladi : *Comme par hasard*, c'est là que s'étaient donné rendez-vous les manifestants turcs le 24 juillet. Interrogés par Le Monde, les responsables du Dtitib ne souhaitent faire aucun commentaire en l'absence de leur directeur, "en voyage"<sup>47</sup>. (Nasib qilsa, 24-iyul kuni turkiyalik namoyishchilar shu yerda uchrashishadi. Le Monde tomonidan so'ralgan Dtitib mutasaddilari o'z direktori yo'qligida, "safarda"ligida izoh berishni xohlamaydilar.)

KFB comme un dieu etaloni *dieu* ikki xil grafikada, katta va kichik harflarda yozilishi kuzatiladi. Kichik harf bilan yozilib noaniq artikl bilan ishlatilganda voqea-hodisa, predmetning ijobiy sifatini, mukammalligini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, bu qiyosiy frazeologik birlik odatdagi ijobiy-baho ma'nosiga ega bo'lgan frazeologik birliklarga ishora qiladi : Le Monde économie & entreprise rubrikasida, FT1 mashhur jurnalisti Jean-Pierre Pernautning 30 yillik faoliyatidan keyin mazkur postdan ketishi haqidagi maqolada muxlislari tomonidan unga berilgan xarakterlarda *comme un dieu* iborasini ishlatadi va matnda jurnalistning 30 yillik faoliyati davomidagi tanqidlar uning faoliyati va uslubiga zarracha ta'sir qilmaganligini ijobiy sifat kabi e'tirof etadi va tomoshabinlarning jurnalistga bo'lgan sof mehrini (*affection et lucidité*) o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi:

Les téléspectateurs sont séduits : "En province, les gens que vous interrogez vous disent : "Ah bon, c'est pour Pernaut ?" *C'est comme un dieu*. Il est vrai-ment identifié", indique une journaliste de l'antenne, qui nourrit "affection" et "lucidité" vis-à-vis de l'animateur qui l'a vue débiter<sup>48</sup>.

Demak, publitsistik matnda yuqorida muhokama qilingan komparativ frazeologik birliklarning tez-tez qo'llanishini quyidagi omillar bilan izohlanadi, deb aytish mumkin.

<sup>47</sup> Le Monde VENDREDI 18 SEPTEMBRE 2020, p-33.

<sup>48</sup> Le Monde, DIMANCHE 18 - LUNDI 19 OCTOBRE 2020, p-17

Komparativ frazeologik birliklar deyarli har qanday mavzu: siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, sport matniga kiritilishi mumkin. Keng qo'llanish doirasida ko'rib chiqilayotgan komparativ frazeologik birliklarni qo'llashda aniq belgilangan stilistik mansublikning yo'qligi bilan izohlanadi. Kontekstli muhit ta'siri ostida frazeologik birliklar bayonotning ifodaliligini, baholanishini va hissiyotini oshirishga qodir. Ma'lum kontekstga ko'ra sodir bo'luvchi aktualizatsiya komparativ iboralarga yangi ma'nolar beradi. An'anaviy ravishda nutq klishe'lari deb ataladigan bir komponentli komparativ frazeologizm kontekstning ta'siri ostida ichki shakl jonlanadi, qayta faollashadi, bu ma'lum bir stilistik effektini (so'zlashuv, hazil, istehzo va boshqalar) yaratadi.

Ko'pgina yuqori chastotali komparativ iboralar kontekstda o'zlarining baholash qiymatiga ega bo'ladilar. Kontekstning ta'siri ostida muqim o'rnatilgan komparativ frazeologik birlik uni o'zgartirishi mumkin.

Barcha yuqori chastotali bir va ikki komponentli komparativ frazeologizmlarning og'zaki uslubga xos bo'lganlarini uchratish publitsistik matn tarkibida tez-tez uchratish mumkin. Bu haqiqatni publitsistik matnning kommunikativ xususiyatlari bilan izohlash mumkin, ulardan foydalanishning asosiy maqsadi o'quvchini ma'lum vaziyatga diqqatini jalb etib, xabardor qilishdir. Fe'l komponentli komparativ frazeologizm hodisani yetkazish uchun ishlatiladi, sifat esa ularni tavsiflaydi va baholaydi. Bundan tashqari, fe'l komponentli iboralar baholash kontekstga ko'proq ta'sir qiladi va unga moslashishi osonroq.

### 3.3 Fransuz publitsistik matnlarida komparativ frazeologizmlarning funksional-stilistik xususiyatlari

Frazeologik birliklarning stilistik ko'lami neytral, umumiy va adabiy ko'rinishlardan tortib vulgarizmlargacha o'zgarib turadi. Komparativ frazeologizmlarning uslubiy xususiyatlarini aniqlash uchun lug'atlarda berilgan iboralarning qaysi funksional stilga mansubligini ko'rsatuvchi turli belgilar tahlil qilinadi. Mazkur ma'lumotlar lug'at izohiga bevosita aloqadordir.

Odatda FB uslubiy mezonini buzilib, bir uslub doirasidan ikkinchisiga o'tishini uchratish mumkin. Frazeologik birliklar uslubiy vazifalari chegarasini aniqlashda kelib chiqadigan muammolar ularni hali yetarlicha ilmiy jihatdan tahlil qilinmaganligini ko'rsatadi<sup>49</sup>.

Lug'atlarda berilgan stilistik belgilar tizimi ko'pincha til hayotidan orqada qoladi va tuzatishni talab qiladi. Shu bilan birga, ushbu tizim o'zining barcha shartiligi bilan frazeologik birliklarning kontekstda qanday ishlashini aniqroq tushunishga yordam beradi<sup>50</sup>. Belgilar funksional-stilistik yoki kommunikativ-stilistik xarakterga ega bo'lishi mumkin. Komparativ frazeologik birliklar uslubiy vazifasi ularning sohalari: pejorative, evfemistik, hazil, qo'pol, istehzo kabilarga ko'ra ishlatilishining me'yor muvofiqligini aniqlashdan iborat bo'lsa, kommunikativ-stilistik vazifasi adabiy, she'riy, so'zlashuv kabilarga moslik masalasini aniqlaydi.

Fransuz komparativ frazeologizmlari lug'at belgilarini tahlil qilish bizga quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi. Lug'atlarning kommunikativ-stilistik belgilaridan kelib chiqib, fransuzcha KFB'larni uch guruhga bo'lish mumkin - kitobiy (littér), so'zlashuv (fam) va neytral (lug'atda stilistik mansublik ko'rsatilmagan). Tadqiqot davomida foydalanilgan lug'atda [ARSC] 850 dan ziyod komparativ frazeologik birliklarning to'liq kommunikativ-stilistik belgisi berilmagan, ammo so'zlashuv nutqiga xos 200 dan ziyod frazeologizmlarning belgisi (fam.) mavjud. Bundan xulosa qilish mumkinki, belgisi mavjud bo'lmagan komparativ frazeologizmlar neytral birliklar deb hisoblanadi.

Fransuz lug'atlaridagi komparativ frazeologik birliklarning funksional va stilistik xususiyatlari ikkita *ironique (poli comme une glace/ un Caillou, aimable comme un chardon)* va *péjoratif (avoir la tête comme une citrouille -qovoqkalla)* tarzida berilgan. Ular ko'p sonli emas.

<sup>49</sup> Кушни А. В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. пособие. Дубна: 2005, 215-216 с.

<sup>50</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ), М. 2021

Fransuz tili komparativ frazeologik birliklarining lug'atda ma'lum uslubga xos ekanligini ko'rsatuvchi belgisi mavjud emas. Shu sababdan KFB stilistik vazifasini aniqlashning imkoni faqat ular qo'llanadigan matn, kontekst orqali aniqlanishi mumkin.

Komparativ frazeologik birliklarning va publitsistik matn stilistik bog'liqligini tadqiq qilish, dastlab, standart, neytral va familier/so'zlashuv uslublarning ishlatilish doirasini ko'rib chiqishdan boshlanishi kerak. Bosma ommaviy axborot vositalarining tili adabiy normalarga mos kelishi kerak. Til birliklarining gazeta sahifasiga mos kelishiga baho berishda, aksariyat hollarda ularning adabiy tilga mansubligiga asoslanadi. So'zlashuv va so'zlashuvga xos elementlar matnga ifodalilik berish yoki qo'shimcha ma'no berish uchun ishlatiladi.

So'zlashuv nutqidagi komparativ frazeologik birliklarning soni bo'yicha birinchi o'rinda shaxsning mehnat va kasbiy faoliyatini ifodalovchi hayvon va o'simlik nomlari frazeosemantik guruhi va xususan, bajarilgan ish hajmini tavsiflovchi fe'lli guruhlari, masalan, *trimer comme un chien*, *bosser/trimer comme une bête*; *travailler / bosser comme un malade*; *bosser/trimer comme un dingue/un fou*; kabilar muhim o'rinni egallaydi.

Fe'l strukturali so'zlashuv va neytral komparativ frazeologizmlar ma'nosi baholash komponentini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, so'zlashuv uslubiga xos frazeologik birliklarining taxminan 2/3 qismi salbiy, neytral birliklarning taxminan 2/3 qismi ijobiy bahoga ega. Ehtimol, ushbu frazeosemantik guruhning so'zlashuv uslubida komparativ frazeologik birliklar orqali asosan kasbiy faoliyat, uning individual jihatlari, masalan, yomon ish sharoitlari salbiy munosabatni anglatgani sabablidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bu tendensiya boshqa frazeosemantik guruhlarga nisbatan tasdiqlanmagan. So'zlashuvga xos komparativ frazeologik birliklardan foydalanishga oid topilgan misollari asosan siyosat, iqtisodiyot, jamiyat, madaniyat, qolganlari (fan, sport va boshqalar) rubrikalariga xosdir. Madaniyat rubrikasi bilan bog'liq komparativ frazeologizmlarning aniq ustunligi uning mazmuni teatr, kino, adabiyot, rasm yangiliklari, taniqli va mashhur madaniyat arboblari haqidagi intervyular va hikoyalar ekanligi bilan izohlanadi. Bu kabi

mavzular o'quvchi bilan sust muloqot uslubini qo'llab-quvvatlaydi, bu nutqda leksik, frazeologik, grammatik, stilistik so'zlashuv elementlaridan foydalanishda o'z aksini topadi.

*surveiller comme le lait sur le feu(familier)*- diqqat bilan kuzatmoq, ko'z-quloq bo'lmoq ma'nolarini ifodalab, og'zaki nutqda ishlatiladi.

A Marseille, l'absence de Mme Delga, vue comme étant l'une des "présidentiables" du parti, a d'ailleurs fait jaser. Tout en prétendant rester "en surplomb du congrès dans un souci d'unité", celle qui soutient M. Mayer-Rossignol semble avoir pourtant suivi comme le lait sur le feu les pérégrinations de son candidat<sup>51</sup>. (Marselda partiyaning "prezidentlikka nomzod"laridan biri sifatida ko'rilayotgan Delga xonimning yo'qligi ham shov-shuvga sabab bo'ldi. Janob Mayer-Rossignolni qo'llab-quvvatlagan kishilar bilan "birlik uchun qurultoydan oshib ketaman" deb da'vo qilsa ham, o'z nomzodini ko'z-quloq bo'lib kuzatayotgan ko'rinadi.) Mazkur matnda jurnalist axborotni sharhlash jarayonida og'zaki nutqqa xos KFB dan samarali foydalanilib matn ekspressivligini oshirishga, o'quvchi bilan o'zaro yaqin munosabat o'rnatishga urinadi.

Bu frazeologik birliklar muloqotning norasmiy darajasiga mansub bo'lganligi uchun o'quvchi e'tiborini tortadi, ishonchli muloqot muhitini o'rnatadi, ularning ifodali-baholovchi konnotatsiyasi muallifning fikri va bahosini ifodalaydi: Vers un monde sans alcool -alkogolsiz hayot sari nomli maqolada hozirda yoshlarning alkogol ichimliklariga ruju qo'yishining ortishi hashamat sifatida ko'rilganda, ba'zilarining unga qurbi yetmasligi va keyinchalik jiddiy ildiz otgan ichimlikka o'granish oqibatida produktivlik qobiliyatini yo'qotib, muammolar yechimini topish qiyin bo'lishi haqida gapiradi: Force est de constater une hausse significative de la consommation de stupéfiants chez les jeunes. Et puis il y a le coût de la vie l'alcool est un luxe que beaucoup ne peuvent plus s'offrir. Et à cela s'ajoutent encore les injonctions faites à la jeunesse d'être productive en toutes choses, au travail mais aussi pour trouver des solutions à la catastrophe climatique - difficile d'être

<sup>51</sup> Le Monde, MARDI 31 JANVIER 2023, p-9.

Fransuz tili komparativ frazeologik birliklarining lug'atda ma'lum uslubga xos ekanligini ko'rsatuvchi belgisi mavjud emas. Shu sababdan KFB stilistik vazifasini aniqlashning imkoni faqat ular qo'llanadigan matn, kontekst orqali aniqlanishi mumkin.

Komparativ frazeologik birliklarning va publitsistik matn stilistik bog'liqligini tadqiq qilish, dastlab, standart, neytral va familier/so'zlashuv uslublarning ishlatilish doirasini ko'rib chiqishdan boshlanishi kerak. Bosma ommaviy axborot vositalarining tili adabiy normalarga mos kelishi kerak. Til birliklarining gazeta sahifasiga mos kelishiga baho berishda, aksariyat hollarda ularning adabiy tilga mansubligiga asoslanadi. So'zlashuv va so'zlashuvga xos elementlar matnga ifodalilik berish yoki qo'shimcha ma'no berish uchun ishlatiladi.

So'zlashuv nutqidagi komparativ frazeologik birliklarning soni bo'yicha birinchi o'rinda shaxsning mehnat va kasbiy faoliyatini ifodalovchi hayvon va o'simlik nomlari frazeosemantik guruhi va xususan, bajarilgan ish hajmini tavsiflovchi fe'lli guruhlar, masalan, *trimer comme un chien*, *bosser/trimer comme une bête*; *travailler / bosser comme un malade*; *bosser/trimer comme un dingue/un fou*; kabilar muhim o'rinni egallaydi.

Fe'l strukturali so'zlashuv va neytral komparativ frazeologizmlar ma'nosi baholash komponentini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, so'zlashuv uslubiga xos frazeologik birliklarining taxminan 2/3 qismi salbiy, neytral birliklarning taxminan 2/3 qismi ijobiy bahoga ega. Ehtimol, ushbu frazeosemantik guruhning so'zlashuv uslubida komparativ frazeologik birliklar orqali asosan kasbiy faoliyat, uning individual jihatlari, masalan, yomon ish sharoitlari salbiy munosabatni anglatgani sabablidir. Shuni ta'kidlash kerakki, bu tendensiya boshqa frazeosemantik guruhlarga nisbatan tasdiqlanmagan. So'zlashuvga xos komparativ frazeologik birliklardan foydalanishga oid topilgan misollari asosan siyosat, iqtisodiyot, jamiyat, madaniyat, qolganlari (fan, sport va boshqalar) rubrikalariga xosdir. Madaniyat rubrikasi bilan bog'liq komparativ frazeologizmlarning aniq ustunligi uning mazmuni teatr, kino, adabiyot, rasm yangiliklari, taniqli va mashhur madaniyat arboblari haqidagi intervyular va hikoyalar ekanligi bilan izohlanadi. Bu kabi

mavzular o'quvchi bilan sust muloqot uslubini qo'llab-quvvatlaydi, bu nutqda leksik, frazeologik, grammatik, stilistik so'zlashuv elementlaridan foydalanishda o'z aksini topadi.

*surveiller comme le lait sur le feu(familier)*- diqqat bilan kuzatmoq, ko'z-quloq bo'lmoq ma'nolarini ifodalab, og'zaki nutqda ishlatiladi.

A Marseille, l'absence de Mme Delga, vue comme étant l'une des "présidentiables" du parti, a d'ailleurs fait jaser. Tout en prétendant rester "en surplomb du congrès dans un souci d'unité", celle qui soutient M. Mayer-Rossignol semble avoir pourtant suivi comme le lait sur le feu les pérégrinations de son candidat<sup>51</sup>. (Marselda partiyaning "prezidentlikka nomzod"laridan biri sifatida ko'rilayotgan Delga xonimning yo'qligi ham shov-shuvga sabab bo'ldi. Janob Mayer-Rossignolni qo'llab-quvvatlagan kishilar bilan "birlik uchun qurultoydan oshib ketaman" deb da'vo qilsa ham, o'z nomzodini ko'z-quloq bo'lib kuzatayotgan ko'rinadi.) Mazkur matnda jurnalist axborotni sharhlash jarayonida og'zaki nutqqa xos KFB dan samarali foydalanilib matn ekspressivligini oshirishga, o'quvchi bilan o'zaro yaqin munosabat o'rnatishga urinadi.

Bu frazeologik birliklar muloqotning norasmiy darajasiga mansub bo'lganligi uchun o'quvchi e'tiborini tortadi, ishonchli muloqot muhitini o'rnatadi, ularning ifodali-baholovchi konnotatsiyasi muallifning fikri va bahosini ifodalaydi: *Vers un monde sans alcool -alkogolsiz hayot sari nomli maqolada hozirda yoshlarning, alkohol ichimliklariga ruju qo'yishining ortishi hashamat sifatida ko'rilganda, ba'zilarining unga qurbi yetmasligi va keyinchalik jiddiy ildiz otgan ichimlikka o'granish oqibatida produktivlik qobiliyatini yo'qotib, muammolar yechimini topish qiyin bo'lishi haqida gapiradi: Force est de constater une hausse significative de la consommation de stupéfiants chez les jeunes. Et puis il y a le coût de la vie l'alcool est un luxe que beaucoup ne peuvent plus s'offrir. Et à cela s'ajoutent encore les injonctions faites à la jeunesse d'être productive en toutes choses, au travail mais aussi pour trouver des solutions à la catastrophe climatique - difficile d'être*

<sup>51</sup> Le Monde, MARDI 31 JANVIER 2023, p-9

performant quand on est *soûl comme un cochon*<sup>52</sup>. (Yoshlar orasida giyohvand moddalarni iste'mol qilish sezilarli darajada oshgani aniq. Va keyin yashash narxi bor - alkogol endi ko'pchilik to'lashga qodir bo'lmagan hashamatdir. Bunga yoshlarga hamma narsada, ishda unumli bo'lish, balki iqlim falokatiga yechim topish – cho'chqadek mast bo'lganida/ichishga mukkasidan ketganda samarali bo'lish qiyin bo'lgan vaziyatlar yuzaga keladi.) *Soûl comme un cochon* fam.-og'zaki nutqda ishlatiladi, (so'zma-so'z: cho'chqadek mast)-ichishga mukkasidan ketgan inson holatini tasvirlash uchun ishlatiladi.

Yuqorida ko'rsatilgandek, so'zlashuv uslubida komparativ frazeologizmlardan foydalanish chastotasi to'g'ridan to'g'ri komparativ frazeologik birliklarning semantikasiga (ma'lum bir frazeosemantik guruhga tegishli) va gazeta matnining ma'lum bir rubrikaga aloqadorligi bilan bog'liq.

Bir tomondan, so'zlashuv komparativ frazeologik birliklarning frazeosemantik guruhlarda ifodalanishi insonning mehnat va kasbiy faoliyati hamda ijtimoiy munosabatlari kabi jihatlarning gazeta matni uchun dolzarbligini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, so'zlashuv uslubi komparativ iboralarning gazeta rubrikalari bo'yicha taqsimlanishi shuni ko'rsatadiki, ular asosan madaniyat, siyosat, jamiyat ruknlari, ularning sarlavhalarida qo'llaniladi. Ular muallifga e'tiborni jalb qilishga, o'quvchi bilan erkin muloqot uslubini o'rnatgan holda murojaat qilishga, o'z fikrini ifoda etish hamda baholashga imkoniyat yaratadi.

### 3.3.1. Publististik matnda frazeologik birliklarining okkazional qo'llanilishi

Frazeologlar, odatda, frazeologik birliklarning uzual va okkazional aktuallashuvini farqlaydilar. Uzual aktualizatsiya frazeologik birliklarning formal va semantik invariantidan tashqariga chiqmaydi. Aynan uzual frazeologik birliklar okkazional frazemalarni, boshqacha aytganda, muallif yaratgan frazeologik birliklari shakllanishiga asos bo'ladi. Bunda aktualizatsiya shakli va mazmundagi

<sup>52</sup> *Courrier international* — n. 1682 du 26 janvier au 1er février 2023 p-29.

o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, ular turli xil kombinatsiyalar bilan ifodalanishi mumkin. Frazeologik birliklarning tez-tez ishlatilishi tufayli ular o'zlarining obrazlilik va ekspressivligini yo'qotib, nutq klisheilariga aylanadi Tilshunos olim A.E.Mamatov frazeologik birliklarni keng ma'noda umumtil o'zgarishlar va individual-avtor o'zgarishlarini ajratib ko'rsatgan bo'lsa, Z.I. Xovanskaya va V.G.Kostomarov okkazional aktualizatsiyaning frazeologik birlik komponentini o'zgartirmasdan me'yor muvofiqligini o'zgartirish orqali, frazeologizm tarkibidagi barqaror leksik birlikning transformatsiyasi va ikki tomonlama aktuallashuvi holatlarini ajratib ko'rsatadi.

Okkazional aktualizatsiyaning tilga olinib o'tilgan turlari kommunikativ ta'sirlidir, sababi ular ekspressivlikni yuzaga keltirishining turli shakllarini o'z ichiga oladi. O'xshatish xususiyatiga ega bo'lgan frazeologizmning me'yoriy muvofiqligini buzish bilan bog'liq bo'lgan komponent o'zgarish, taqqoslash asosini metaforizatsiya bilan bog'liq bo'lgan majoziy ma'noda qo'llashda transformatsiyalar frazeologik birliklar denotativ tomoniga ham ta'sir qiladi.

Masalan, *mince comme une pelure d'oignon* yoki *uning sinonimi mince comme du papier à cigarette* [PR :Mince, peu épais /yupqa, ozg'in] frazemasinining publististik matndagi quyidagi vaziyatga nisbatan ishlatilishiga e'tibor qaratsak:

*Ce swing State, ou Etat pivot, qui depuis les années 1990 a donné lieu à chaque présidentielle à des batailles à couteaux tirés, avec un écart mince comme du papier à cigarette, est en train de devenir un laboratoire ultraconservateur inspiré de la Hongrie illibérale de Viktor Orbán*<sup>53</sup>. Keltirilgan misolda (1990-yillardan beri (sigaret qog'ozidek yupqa) mitti bo'shliq bilan har bir prezidentlik kurashiga sabab bo'lgan bu belanchak davlat yoki asosiy davlat Viktor Orbanning noliberal Vengriyasidan ilhomlangan o'ta konservativ sinov maydoniga aylanmoqda gapida *un écart* [PR :Distance qui sépare deux choses qu'on écarte ou qui s'écartent.] bo'shliq leksik birligi uchun sigaret qog'ozidek yupqa qiyoslash xususiyati mos

<sup>53</sup> L' OBS/N°3041-19/01/2023, p-38

emas, ammo muallif mazkur holat vaziyatining naqadar tarang tortilganligiga ishora berish maqsadida ishlatadi.

Kommunikativ ta'sirga qo'shimcha ekspressiv vosita, frazeologizmning to'g'ridan to'g'ri va majoziy ma'nolari metaforik ellipsis orqali namoyon bo'ladi, frazeologik birliklarning okkazonal ishlatilishi xotirada komparativ frazeologizm uchun asos bo'lgan o'zgaruvchan iborani jonlantiradi, yangilaydi: vaziyat xuddi sigaretning yupqa qog'ozi kabi tang va yupqaligidan keyin sodir bo'lish ehtimoliy bo'lgan vaziyat o'ta konservativlar sinov maydoniga aylanib borishini taxmin qiladi, yupqa qog'oz ortidagi vaziyatni naqadar aniq ko'rish mumkinligi ongimiz in'ikosi orqali tasvir/vaziyatni yaqqol ko'rsatib beradi.

Yozuvchi va kintotanqidchi Hélène Frappatning "Trois femmes disparaissent" nomli asari sharhi yakunida jurnalist Élisabeth Philippe yozuvchining faoliyatiga: De son écriture De son écriture raffinée comme des ongles peints, elle griffe les images dont les femmes sont captives et ménage une brèche, une échappée belle. Du grand art<sup>54</sup>. (U o'zining qo'lyozmalarini nafis o'tkir tirmoqlari bilan ayollar asir bo'lgan tasvirlarni tarashlab, chiroyli qochirimlar yaratadi. Buyuk san'at deya baho berar ekan, yozuvchining o'tkir qalamiga ishora beradi.

Bir vaqtning o'zida komparativ frazeologik birliklarning leksik darajada rasmiy barqarorligini buzish bilan bog'liq bo'lgan tarkib rejasining o'zgarishi taqqoslash xususiyatiga ega frazeologik birlikni kontekstga moslashtiradigan qo'shimcha belgilarni kiritish, sinonim, paronim yoki omonim bilan almashtirish bilan belgilanadi. Qo'shimcha belgilarni barqaror taqqoslash, shu bilan birga, siqish uchun aloqasi - frazeologik birliklarning ichki kontekstga qo'shimcha aktualizatorlarni kiritish, frazeologik birliklarning tuzilishini, uning tarkibiy qismini kengaytiradi va vaziyatga xos qo'shimcha ma'nolarini qo'shadi.

Masalan, siyosat rubrikasidan : En Vendée, Bruno Retailleau se sent comme un poisson dans l'eau. "Il est apprécié pour sa constance et la sincérité de ses convictions. Même ceux qui ne partagent pas ses opinions reconnaissent son travail".

<sup>54</sup> L'OBS/N°3039-05/01/2023, p-71

assure la sénatrice Billon<sup>55</sup>. (Vendée shahrida Bruno Retailleau o'zini suvdagi baliq (erkin, qulay) kabi his qiladi. "U o'zining izchilligi va e'tiqodlarining samimiyligi uchun qadrlanadi. Uning fikriga qo'shilmaganlar ham uning ishini tan olishadi", - deydi senator Billon).

International rubrikasidan : Nétanyahou signe une entente historique avec des pays du Golfe à la Maison-Blanche. Pour Trump, cet accord avec les Émirats et Bahreïn marque l'avènement d'un "nouveau Moyen-Orient". Considérés par l'Autorité palestinienne comme des "coups de poignard dans le dos", ces accords entérinent l'idée qu'il est possible pour une nation arabe de s'afficher espace aérien saoudien<sup>56</sup>.

Économie & entreprise rubrikasidan jurnalist Arnaud Leparmentier : Très sérieux-ement, celui qui a bâti le dernier quartier ultra-luxe de la ville assure : " [A New York], nous avons construit à l'excès comme des fous et nous avons eu un mauvais leadership", explique M. Ross, qui ajoute : "Nous arrivions au point où personne ne pouvait réellement se permettre de vivre ici"<sup>57</sup>. (Shaharning so'nggi o'ta hashamatli tumanini qurgan odam bizni jiddiylik bilan ishortiradi : "[Nyu-Yorkda] biz aqldan o'z-gandek ko'p qurdik va bizda yomon boshqaruv bor edi", deb tushuntiradi janob Ross va qo'shimcha qiladi : "Bu yer hech kim yashashga qodir bo'lmagan nuqta".)

Dossier spécial. Véhicules électriques rubrikasida : Au feu rouge, la SR/S(mototsikl modeli) n'en suscite pas moins une curiosité teintée d'empathie. Voire d'une forme de respect, eu égard à sa façon de jaillir comme un diable de sa boîte<sup>58</sup>. (Qizil chiroq yonganda, SR/S qizil bilan bo'yalgan ko'rinishi bilan uyg'unlik hosil qiladi. Uning bor kuchi bilan qo'zg'alishi qadrlanish lozim bo'lgan holatdir). Bu gap tarkibidagin comme un diable komparativ frazeologizmi tarkibiga qo'shimcha de sa boîte leksemasini kiritish orqali matn ekspressivligini oshirishga erishiladi.

<sup>55</sup> LE FIGARO mercredi 16 septembre 2020, p-7

<sup>56</sup> LE FIGARO mercredi 16 septembre 2020, p-10.

<sup>57</sup> MERCREDI 16 SEPTEMBRE 2020, Le Monde, p-18

<sup>58</sup> Le Monde, MERCREDI, 16 SEPTEMBRE 2020, p-22

Culture/Madaniyat rubrikasida, asli Belgiyalik aktrisa Emilie Dequenne bilan intervyudan : En 2012, elle a vu apparaître les premières taches sur les doigts. Cinq ans plus tard, elle est “*blanche comme neige*”. C’est bien. “je prends la lumière”, dit-elle, préférant enrire<sup>59</sup>. (2012-yilda u barmoqlarida birinchi dog’lar paydo bo’lganini ko’rdi. Oradan besh yil o’tib qordek oppoq bo’lib keksaydi. Yaxshi, “chiroqni(hassani) olaman”, deydi kulishni ma’qul ko’rarkan.)

Culture/Madaniyat rubrikasidagi yana bir jurnalist Clarisse Fabrening Antoinette dans les Cévennes nomli kino sharhida kino qahramonining eshakni jilovlash harakatini eplab bo’lmas ekanligini *chercher comme une aiguille dans une botte de foin*(so’zma-so’z : *pichan ichidan igna qidirmoq*) FB bilan izohlaydi va bu mashaqqatli harakat Démarrant son périple avec Patrick, cherchant Vladimir comme une aiguille dans une botte de foin, Antoinette met ses nerfs à rude épreuve et se trouve démunie face à cet animal qui lui résiste. C’est une mine de gags, à jet continu, jusqu’à ce qu’Antoinette apprivoise l’âne<sup>60</sup>. (Sarguzashtini Patrik (eshak laqabi) bilan boshlab, Vladimir (turmush qurmoqchi bo’lgan yigiti) ni pichandagi ignadek izlab, Antuanetta asablarini sinovdan o’tkazadi va unga qarshilik ko’rsatayotgan bu jonivor oldida ojiz qoladi. Antuanetta eshakni jilovlab olmaguncha, doimiy gag (blague, komik holat) lar qonida bo’ladi.

Fabris Nikolino va Riss esa irqchilikka oid jinoyati yuzasidan olib borilayotgan sud jarayoni haqida yoritilgan maqolada (Charlie Hebdo redaksiyasidagi terrakt haqida) ro’y bergan dahshatli hodisadan o’ta azoblanish holati tasvirida *brûler comme au fer rouge* idiomasi qo’llaydi : Il souffrait horriblement d’être accusé de racisme. C’était *comme le brûler au fer rouge*<sup>61</sup>. (U irqchilikda ayblanganidan dahshatli azob chekdi. Bu xuddi issiq temir bilan kuydirish kabi edi).

*Disparitions* rubrikasida asli Kombodjalik Duch laqabli qamoqxona boshlig’ining jinoyatlari haqidagi maqolada u aynan xizmati davomida o’smirlarni qo’riqchi sifatida jalb etadi, sababi o’smirlar oq qog’oz kabi bo’sh va toza bo’lib

<sup>59</sup> Le Monde MERCREDI, 16 SEPTEMBRE 2020, p-27

<sup>60</sup> Le Monde, MERCREDI 16 SEPTEMBRE 2020, p-26.

<sup>61</sup> Le Monde, VENDREDI 11 SEPTEMBRE 2020, p-8

ularni bo’ysundirish oson bo’ladi deb hisoblashi haqida yozadi: Douch est d’abord nommé vice-président chargé du groupe d’interrogateurs, puis, en mars 1976, devient le seul responsable du camp. Il s’entoure de ses anciens subordonnés de M13, en qui il a toute confiance, et recrute comme gardiens des adolescents, car ils sont, selon lui, “*comme une feuille blanche*” (*fam.*), facilement endoctrinables<sup>62</sup>.

TECH rubrikasidan : La situation est plus compliquée pour Ericsson et Nokia dans la plupart des pays européens, ils sont encore confrontés à la concurrence chinoise alors que leur présence commerciale en Chine *se réduit comme peau de chagrin*. De plus, ils n’ont pas les mêmes moyens que leurs rivaux chinois pour financer leur R&D<sup>63</sup>. (Ericsson va Nokia uchun vaziyat murakkabroq : aksariyat Yevropa mamlakatlarida ular Xitoydagi tijoriy ishtiroki qisqarayotgan bir paytda Xitoy raqobatiga *duch kelishmoqda*. Bundan tashqari, ular o’zlarining xitoylik raqiblari kabi ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish uchun bir xil imkoniyatlarga ega emaslar.)

INTERNATIONAL rubrikasidan : En attendant, l’épidémie a laissé des traces sur le tissu économique et social, notamment dans la capitale *surveillée comme le lait sur le feu* par le pouvoir. Malgré le retour des embouteillages, “il y a moins de monde qu’avant. J’ai l’impression que beaucoup de gens ont quitté Pékin et ne reviendront plus”, confie Chen Y<sup>64</sup>. (Bu orada epidemiya iqtisodiy-ijtimoiy tuzumda, ayniqsa, hokimiyat tomonidan olov ustidagi sutdek/o’ta diqqat bilan kuzatilayotgan poytaxtda o’z izini qoldirdi. Tirbandliklar qaytganiga qaramay, “avvalgiga qaraganda kamroq odamlar bor. Menda ko’p odamlar Pekinni tark etgan va qaytib kelmaydigandek taassurot qoldirdi”, deydi Chen Y.)

L’économie : “Il faut boire de la vodka en deux occasions seulement. Quand on mange, et quand on ne mange pas”. Malgré cet imparable proverbe russe, Absolut procure *comme une gueule de bois* [désagréables symptômes d’un lendemain de cuite : grande fatigue après une soirée trop festive ; veisalgie ; xylostome ; casque à

<sup>62</sup> Le Monde, JEUDI 3 SEPTEMBRE 2020, p-21

<sup>63</sup> LE FIGARO, Mercredi 2 septembre 2020, p-22

<sup>64</sup> LE FIGARO, Jeudi 3 septembre 2020, p-8

komparativ frazeologik birlikning semantik valentligi buzilgan taqdirda yangi ma'noning shakllanishiga olib keladi. Komparativ frazeologik birliklar gazeta sarlavhalarida juda keng doirada ishlatiladi. Ularning nomlari "Sport", "Siyosat", "Iqtisodiyot", "Jamiyat", "Madaniyat", "Tarix", "Sayohatlar", "Livres", "Musiqqa" kabi turli nashr va rubrikalarida farq qilishi mumkin. O'xshash xususiyatiga ega frazeologizmlar asosan o'quvchi bilan ko'proq tasodifiy muloqot uslubini taklif qiladigan matn va maqolalarda qo'llaniladi. Siyosat va "Kundalik hayot" mavzuli bloklarida salbiy baholangan konnotativ ma'noga ega frazeologizmlar ustunlik qiladi. Nazarimizda, bu siyosiy voqealar, saylov kompaniyasi, ijtimoiy voqealar va katta rezonansga ega bo'lgan muammolar, shov-shuvli da'volar, janjallar, jinoyatlar, yoshlarning ta'lim va tarbiyasi kabilarni yoritishidir.

Sport, dam olish, ko'ngilochar rubrikalarida ijobiy baholangan konnotativ bahoga ega komparativ frazeologik birliklarning ustunligi uning mazmuni va maqsadlari bilan izohlanadi. Matbuotning ushbu rubrikalarida teatr tomoshalari va filmlar sharhlari, madaniyat va sport arboblari bilan suhbatlar, sayohat hikoyalari, oshpazlik san'ati sirlari va boshqalar yoritilib boriladi. Shunday qilib, ularning asosiy maqsadi o'quvchini kundalik hayotdan chalg'itish va ko'ngil ochishdir, shuning uchun maqolalar mazmuni salbiy hissiy va baholovchi munosabatni emas, balki ijobiy munosabatni keltirib chiqaradi. Demak, turli baholovchi konnotativ ma'nolarga ega komparativ frazeologizmlardan foydalanish gazeta matnining mavzu mazmuni bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular ham turli maqsadli auditoriyaga ega. Jamiyat, sport, o'yin-kulgi ishlatilgan frazeologik birliklarning nisbatan ko'pligi ushbu bloklarning sarlavhalarida murojaat qiluvchining xabar mavzusiga hissiy va baholovchi munosabati aniqroq ekanligini ko'rsatadi.

Komparativ frazeologik birliklar kommunikativlikning muhim vositalaridan biridir. Shunday qilib, bosma nashrda ulardan foydalanish gazeta rubrikalaridagi komparativ frazeologik birlikning konnotativ ma'nosi - mazmuni, uning majoziy motivatsion asosi va transpozitiv salohiyati unda ishlatilgan vaziyatlarning turlicha ekanligi bilan bog'liq. Turli rubrikalardagi kommunikativ ahamiyatga ega bo'lgan komparativ frazeologizmlar korrelyatsiyasini o'rganish har bir publitsistik matn

uchun o'ziga xos mavzular mavjudligini ko'rsatadi. Masalan, Sport, Madaniyat, San'at kabi rubrikalarda komparativ frazeologik birliklarning doimiy ishlatilishi odatiy hol hisoblanadi. Siyosiy-iqtisodiy, ilmiy ma'lumotlarni yorituvchi gazeta rubrikalari matnlari tarkibida bu turdagi frazeologik birliklarni kamdan kam uchratish mumkin. Bunday vaziyatda matn muallifi, jurnalist ko'proq matnga stilistik sayqal berishni emas balki, axborotga nisbatan baholovchi kommunikativ funksiyani ishlatishni maqsad qilgani holda ta'sir kuchini oshiradi. Ma'lumot uzatuvchi va qabul qiluvchi ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan voqea-hodisaga insoniy hissiy munosabatda ekanligi, ularning o'zaro muloqoti muntazamligi, maqola matnidagi baholovchi munosabatlarning muntazam mavjud ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

### 3.3.2. Komparativ frazeologik birliklarning publitsistik matndagi kommunikativ vazifalari

Mazkur ishda olib borilgan amaliy material tahlili publitsistik matndagi komparativ frazeologik birliklarning xarakterlovchi, emotsional-baholovchi, aniqlovchi, diqqatni tortish, ishontirish kabi muhim kommunikativ funksiyalarini aniqlash imkonini beradi. Publitsistik matnga murojaat qiluvchining kommunikativ munosabatlari va komparativ frazeologik birliklarning kommunikativ vazifasi o'zaro bog'liq. Ular axborot yetkazishlarida ma'lum vaziyatning to'liq tafsilotini xabarga hissiy, baholovchi rang berish orqali amalga oshiradi. Bu bilan xabar uzatuvchi va qabul qiluvchi vaziyatini, aniqrog'i bilimni aniqlash, ishontirish-adresatga (o'quvchiga) ta'sir qilishning ma'lum bir natijasiga erishishni maqsad qiladi.

Komparativ frazeologik birliklarning xarakterlovchi vazifasi assotsiatsiya orqali asosiy vaziyatga qo'shimcha tasvir, fikr yaratishga yordam beradi. Xarakterlovchi funksiya bir nechta turlarga ega bo'lishi mumkin. Uning tasviriy - xarakterlovchi va kuchaytiruvchi funksiyalari alohida ajralib turadi. Agar birinchisi ko'proq darajada vizual tasvirni yaratsa, ikkinchisi taqqoslash predmeti belgisining

namoyon bo'lish darajasini ta'minlaydi. Masalan, jamiyat rubrikasidagi maqolada tabiatni muhofaza qilish maqsadida sud hukmiga qarshilik harakati haqidagi xabardagi liderning vaziyatini izohlab, jurnalist bir gap tarkibiga ikki iborani antonim tarzda kiritib matnga yaxlit-ijobiy xarakterlovchi va kuchaytiruvchi ma'no kiritadi: *Loin d'être isolé dans ce combat, Germinal Peiro certifie que tous les élus du sud du département sont comme un seul homme derrière lui*<sup>68</sup>. (Jerminal Peiro bu kurashda yakkalanib qolishdan yiroq, departamentning janubidan saylangan barcha amaldorlar u bilan bir tan-u bir jon bo'lib birlashgan.)

Emotsional-baholash funksiyasi voqelik subyektiga, ya'ni jurnalist xabar bergan voqeaga hissiy-baholovchi munosabatlarni qo'shish bilan izohlanadi. "Komparativ frazeologizmlardan gazeta matnida foydalanish holatlarini tahlil qilish gazeta matnida hissiy-baholash funksiyasini komparativ frazeologizmlarning asosiy kommunikativ funksiyasi sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi"<sup>69</sup>. Masalan, International rubrikasidagi jurnalistning Turkiyadagi ayanchli zilzila haqidagi xabarida: "L'apocalypse!", s'exclame Kadir en nous envoyant, via l'application de messagerie WhatsApp, la photo d'un immeuble, *écrasé comme un millefeuille*, à quelques encablures de chez lui, dans le quartier central de Gazi Muhtar Pasa<sup>70</sup>. ("Apokalipsis! deya ifodalagan Qodir, "WhatsApp" ilovasi orqali bizga uyidan uncha uzoq bo'lmagan, markaziy Gazi Muhtar Pasha tumanida ushoq kabi ezilgan binoning suratini jo'natadi.) *écraser comme un mille feuille* iborasini ishlatadi, *mille feuille* aslida qandolat mahsuloti bo'lib, odatda, fransuzlarda sevib iste'mol qilinadi, shu sababdan uni uvol qilmasdan, ezmasdan kesishga katta ahamiyat berishadi, mazkur maqolada jurnalistning shu iborani matn tarkibiga kiritishi ko'chim asosida ishlatilishi bilan bir qatorda vaziyat, informatsiyaga nisbatan qayg'u li reaksiyasini ifodalash uchun qo'llaydi va bu bilan o'quvchida qayg'u emotsiyasi shakllanishiga erishishga harakat qiladi.

<sup>68</sup> Le Figaro samedi 7 - dimanche 8 janvier 2023, p-11

<sup>69</sup> Буянова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц. (на материале печатных СМИ), М.: 2021

<sup>70</sup> Le Figaro Mardi, 7 février 2023, p-6.

Aniqlash/anglash funksiyasi aloqa subyektlarining nutq portretini baholashga imkon beradi. Maqolada komparativ frazeologik birliklardan foydalanish va tushunish mifologik, milliy-madaniy, etimologik kelib chiqishning uzatuvchi va qabul qiluvchining bilim saviyasi, borliqni anglashda bilimdonligini namoyon etishni talab etadi. Misol uchun, mag'rurlik fransuz tilidagi ko'plab iboralar: *fier comme un bar-tabac*, *fier comme Artaban*, *fier comme un coq*, *fier comme un char-à-bancs* kabi komparativ frazeologizmlarga sinonim tarzda ishlatiladi. Mazkur ibora tarkibidagi etalon izohiga ko'ra ularning tik, gerdayib turish holatiga qiyos etilishini o'quvchi anglab, maqola matniga mos holda vaziyatni tushunishi mumkin, lekin *fier comme Artaban* iborasida aynan nega Artabanga qiyoslashning ildizini bilish o'quvchidan tarixiy-etimologik bilimlarni talab etadi. Darhaqiqat, Artaban kim edi? 17-asr adabiyotining qahramoni. Bu ibora 12 jild va 4153 sahifadan iborat muhim romandan olingan. "Cléopâtre" nomini olgan bu kitob Gautier de la Calprenède tomonidan yozilgan tarixiy dostonidir. Nikolas Boileau 18-tanqidiga ko'ra, asar qahramoni Artaban takabbur, mag'rur, ayni paytda juda omadsiz edi. Bugungi kunda uning asosan mag'rurlik (takabburlik) xususiyati faol tarzda ishlatiladi: Les uns étaient séduits par l'idée de végétaliser leur terrasse, les autres poussés par l'envie de bien manger et de gagner en autonomie alimentaire. Ces jardiniers en herbe n'ont pas hésité à biner, semer, tailler, mettre les mains dans la terre pour quelques brins de basilic maison, inondant leur compte Instagram de photos de leurs plantations. Et, dès le 11 mai, *fiers comme Artaban*, ne résistaient pas à l'envie de montrer à leurs amis l'aménagement de leur précarré comme s'ils leur faisaient visiter leur nouveau loft avec vue sur tout Paris<sup>71</sup>. (Ba'zilar terrasasini ko'kalamzorlashtirish g'oyasiga, boshqalari esa yaxshi ovqatlanish va oziq-ovqat avtonomiyasiga ega bo'lish istagida. Bog'bonlikni endi boshlayotganlar ketmon chopishdan, ekishdan, kesishdan, rayhonning bir necha novdasi uchun qo'llarini yerga uzatib qadashdan erinmaydilar va Instagram akkauntlarini plantatsiyalarining fotosuratlari bilan to'ldirishadi. 11-maydan boshlab esa Artabandek g'ururlanib,

<sup>71</sup> Le Figaro Vendredi 11 septembre, 2020, p-28

do'stlariga butun Parij manzarasi bilan yangi loft/biznesini ko'rsatayotgandek, o'zlarining beqaror uylarining tartibini ko'rsatish istagiga qarshi tura olmadi

Shuningdek, INTERNATIONAL rubrikasida jurnalist Thierry Oberléning siyosiy sharhida *des pays du Golfe/Golf* mamlakatlar FBini uchratamiz, bu vaziyatda o'quvchidan bilim yoki kontekstual ma'nodan kalit so'z orqali, masalan, *la Maison-Blanche* orqali qaysi davlatga ishora qilinayotganligini sinchkovlik bilan anglash talab etiladi *Nétanyahou signe une entente historique avec des pays du Golfe à la Maison-Blanche*<sup>72</sup>. (Netanyaxu Oq uyda Fors ko'rfazi davlatlari bilan tarixiy shartnoma imzoladi. Tramp uchun Amirliklar va Bahrayn bilan tuzilgan bu kelishuv "yangi Yaqin Sharq"ning kelajagidan dalolat beradi.)

Diqqatni maqsadli, ixtiyoriy tortish (Bu psixologiyada diqqatning 2-turi hisoblanadi) funksiyasi qabul qiluvchining e'tiborini jalb qilish uchun xizmat qiladi. Bunda komparativ frazeologik birlik haqiqatdan uzatilayotgan informatsiyaga mos kelsa, uni jonlantira olsagina, muvaffaqiyatli bo'ladi. Masalan, asli huquqshunos bo'lgan va hozirda restoranlarda jurnalistik surishtiruv olib borish bilan shug'ullanuvchi Franck Pinay-Rabaroust Le Mond jurnaliga bergan intervyusida ba'zi oshxonadagi qotil, ammo mikrofon oldida qo'zichoqdek muloyim oshpazlar haqida fikr yuritadi va vaziyatga auditoriyaning diqqatini jalb qilish maqsadida obrazli tasvir va grafik belgi qo'shtimoqdan foydalanadi: "On s'est placé comme lanceur d'alerte parce qu'à côté il y a un grand vide", justific-t-il, entre une presse spécialisée qui a peur d'être "blacklistée" par les grands restaurants et les journaux généralistes, "trop loin du sujet"<sup>73</sup>. Lui assure détester servir la soupe et assume de *mettre les pieds dans le plat*, comme dénoncer certains de ces chefs starisés, "*doux comme des agneaux*" devant les micros et "tueurs" en cuisine. Mazkur matnda barcha diqqatni tortishi lozim bo'lgan leksema va frazemalar qo'shtimoq ichida berilgan. Maqsad yuqorida aytilganidek o'quvchining ixtiyoriy/majburiy diqqatini jalb etishdir.

<sup>72</sup> Le Figaro mercredi 16 septembre 2020, p-10.

<sup>73</sup> Le Monde Magazine, Octobre 10, p-17.

Ishontirish funksiyasi adresatni ma'lum bir fikrga ishontirish uchun majoziy parallellardan foydalanish imkoniyati bilan bog'liq. Fikrlash intensiv bo'lsa, sub'ektlar manba, xabar, qabul qiluvchi va xabar orqali yetkazilgan yoki kontekst tomonidan shakllantirilgan ma'lumotni maqsadli munosabatni qo'llab-quvvatlaydigan yoki rad etadigan dalillar yoki sabablar to'plami sifatida e'tirof etiladi. Ma'lumotlar ishontirish ta'siriga ega bo'lib, u har bir shaxsning dunyoqarashi, bilim, ko'nikma, malakasiga ko'ra farq qiladi. Garchi bu o'zgaruvchilar qizg'in fikr yuritish paytida bir nechta rol o'ynasalar ham, ular asosan shaxsiy manfaatlar uchun qulay bo'lmagan hollarda munosabatlarga ta'sir qiladi. Psixologlar munosabat o'zgarishi har doim ham murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslanmaganligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, agar subyektning motivatsiyasi yoki ko'rib chiqilayotgan ma'lumotni qayta ishlash qobiliyati past bo'lsa, ishontirish munosabatlarga ta'sir qiladigan oddiy belgilar bilan periferik tarzda sodir bo'lishi mumkin<sup>74</sup>. Garchi bu periferik yo'llar qisqa muddatda juda kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'lishi mumkin bo'lsa-da, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, periferik signallardan kelib chiqadigan munosabat o'zgarishi, dalillarni sezilarli darajada ishlab chiqish natijasida kelib chiqadigan munosabatdan ko'ra keyingi tajovuzkor xabarlariga olib kelishi ehtimoli kamroq. Yuqorida aytib o'tganimizdek, ishontirish jarayonida turli shaxslar(jurnalis va mushtariy munosabati nazarda tutilmoqda) qanday rol o'ynashini tushunish kerak, chunki bir xil o'zgaruvchi turli xil ishontirish effektlarini keltirib chiqarishi mumkin va muayyan munosabatning shakllanishi bu munosabatning kuchiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, ushbu mexanizmlarni tahlil qilish bizni ishontirishning bevosita va uzoq muddatli oqibatlari haqida ma'lumot beradi. Bir nechta misollar har bir o'zgaruvchining turli vaziyatlarda o'ynashi mumkin bo'lgan turli rollarni ko'rsatishga yordam beradi. Bunda komparativ frazeologik birliklardan yaqqol tushuntirish maqsadida vizual usuldan foydalanish mumkin. Qiyoslash yordamida bizni yuqori darajadagi xabardorlikka ishontirish istagi bildiriladi. Masalan, *connaitre comme sa poche* idiomasi tushuntirish va

<sup>74</sup> Бужнова Ю. В. Прагматический аспект значения компаративных фразеологических единиц (на материале современного французского языка). №7 *Казанская Наука*. 2021.

illyustrativ maqsadlarda, dam olish maskani atrofi haqida yuqori darajada xabardorligi foydasiga dalil sifatida ishlatiladi<sup>75</sup>. Ketma-ket 6 yil mobaynida Yevropaning eng yaxshi chang'i kurorti deb topilgan Val Torens haqida JULIE BRAUN gapirar ekan, mazkur hududni juda yaxshi biluvchi yuqorida keltirib o'tgan misolimizdagi Xuan laqabli o'qituvchi Juliyenni barcha hududga olib borishi haqida gapiradi va *connaitre comme sa poche* - besh qo'ldek bilmoq idiomasini ishlatadi: Val Tho est le point culminant du domaine des 3 Vallées, au cœur d'un cirque naturel dominé par 6 glaciers. Je quitte l'hôtel skis aux pieds et démarre ma visite avec un moniteur de l'ESF. Juan, de son surnom, *connait* Val Tho *comme sa poche*. De télésièges en télécabines, il m'emmène au sommet des plus belles pistes, jusqu'à 3 200 mètres d'altitude<sup>76</sup>. Shunga o'xshash yana bir misolga diqqatimizni qaratsak. 30 yil davomida yashirilib yurgan shahar mafiyasi haqidagi shov-shuvli xabarning tasdiqlanishida, siyosatda muvaffaqiyatsizlikka uchragan, ammo meditsinada o'ta mashhur bo'lgan shifokor tasvirida *connaitre comme le loup blanc* (oq bo'ridek mashhur) - o'ta mashhur frazemasini ishlatiladi. Bu vaziyatda matn muallifi xabarning ishonchli ekanligini aslida aholiga mashhur bo'lgan tanish (odatda u haqida bilishadi va ko'rinmas kontakt mavjud) shifokorning ijtimoiy holatidan foydalanadi: Une de ces informations concerne le médecin de la commune, *connu comme le loup blanc*. Alfonso Tumbarello, aujourd'hui à la retraite. Par deux fois, il avait échoué à se lancer dans une carrière politique. Mais Tumbarello est surtout connu pour avoir été, quarante années durant, le médecin généraliste vers lequel tout le monde se tournait dans la ville<sup>77</sup>. (Ushbu xabarlardan biri oq bo'ri sifatida tanilgan shahar shifokori Alfonso Tumbarelloga tegishli bo'lib, hozir nafaqada. U ikki marta siyosiy karyerasini boshlay olmagan. Ammo Tumbarello qirq yil davomida shaharda hamma murojaat qilgan umumiy amaliyot shifokori bo'lgani bilan mashhur). Bu kabi matnlarda jurnalist komparativ frazemalarsiz ham matn qahramonining mashurligini shunchaki juda taniqli, o'ta taniqli so'z birikmalari orqali ham berishi

<sup>75</sup> Буйнова Ю. В. Актуализация коннотативного значения французских компаративных фразеологических единиц (на материале печатных СМИ), М.: 2021

<sup>76</sup> FEMMES D'AUJOURD'HUI - 2023 HEBDOMADAIRE ; № 5 ; p-63

<sup>77</sup> Courrier international — no 1682 du 26 janvier au 1er février 2023, p-16

mumkin edi ammo bunday vaziyatda xabar emotsional-ekspressivlikdan bebahra bo'lib, matnning salmog'iga putr yetkazibgina qolmay, fransuz millati ongida in'ikos ettirgan ramziy belgi hosil qilgan ishonch funksiyasini yo'qqa chiqarishi mumkin.

Amaliy jihatdan qilingan tahlillar shuni ko'rsatadiki, publitsistik matndagi komparativ frazeologik birliklarning kommunikativ yuki bir vazifani bajarish uchun mas'ulligidadir. Tilshunoslikda komparativ frazemalar faqat o'xshatish xususiyatiga ega ekanligi takidlansada, aslida publitsistik matn tarkibida ishonirish, aniqlash, anglash, baholash, xarakterlash kabi kommunikativ funksiyalarni bajarishi mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Fransuz publitsistik matnlarida ishonirish va hissiy baholash kommunikativ funksiyaning kuchayishiga xizmat qiladi. Komparativ frazeologik birliklarning okkazonal aktuallashuvining bunday holatlari o'quvchi tomonidan asl muallifning topilmasi sifatida qabul qilinadi va diqqatni tortadi. Aniqlash, anglash funksiyasi har doim mavjud bo'lib, ma'lumot uzatuvchi va qabul qiluvchining semantik koordinatalari o'ziga xos uslubi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

### III - bob bo'yicha xulosa

1. Fransuz publitsistik nutqi va publitsistik matni ijtimoiy siyosiy hayotdagi dolzarb voqealarni yoritgan holda keng ommaga mo'ljallangan bo'lib, matnining asosiy funksiyalari bu axborot yetkazish va ta'sir ko'rsatishdir. Shu bilan birga, muayyan mafkura doirasida umumlashtirilgan adresatga ta'sir ko'rsatish maqsadini ham ko'zlaydi.

2. Matnda frazeologik birliklar, ayniqsa, komparativ frazeologik birliklar bosma nashrlarda muhim o'rin tutgani holda, nafaqat ma'lumotni yetkazib berish vazifasini, shuningdek, diqqatini tortish, ta'sir ko'rsatish maqsadida ekspressivlikni ifodalagani holda axborotni sayqallaydi.

3. Publitsistik matnlarda komparativ frazemalarni namuna, shtamp sifatida ishlatilish imkoniyati, ularning egiluvchanlik xususiyati matn standarti va ekspressivligini oshirish imkoniyatini yaratib beradi.

4. Komparativ frazeologik birliklarning ekspressivligi publitsistik matnda konnotativ ma'noning tarkibiy qismlari intertekstuallik asnosida yangilanishi orqali yuzaga keladi.

5. Fransuz publitsistik matnlaridagi komparativ frazeologik birliklarning aksariyati inson xarakter-xususiyatini ifodalagani holda, hayvon, o'simlik, rang-mifologik obrazlarga doir frazeosemantik guruhlariga taaaluqli frazemalar publitsistik matnlarda doimiy qo'llaniladi.

6. Og'zaki uslubga xos komparativ frazeologik birliklarning qo'llanilishi fransuz publitsistik matni ifodasini oshirishning umumiy vositalariga kirmasada, Politique va Culture rubrikasida ko'proq uchraydi. Shunga qaramay, so'zlashuv uslubidagi komparativ frazeologizmlardan foydalanish o'quvchi bilan qulay muloqot uslubini o'rnatadi, o'zaro masofani yaqinlashtiradi, e'tiborni jalb qiladi.

7. Fransuz publitsistik matnlarida ishlatiluvchi komparativ frazeologik birliklarining ijobiy bahosi, konnotativ jihati salbiy baho bilan solishtirganda barqarordir. Ammo KFB ma'lum kontekst ta'sirida, shuningdek, okkazonal vaziyat aktualizatsiyasiga ko'ra, u ifodalaydigan salbiy vaziyat ijobiyga o'zgarishi mumkin.

8. Vaziyatni baholash bilan bir qatorda ko'p hollarda komparativ frazeologizmlar publitsistik matnda ijobiy baho oladi, bu ularning kontekstual muhitining taxminiy qiymati va frazeologik birliklarning shakli va mazmunidagi okkazonal o'zgarishi bilan baholanadi. Okkazonal stilistik ta'siri o'zgarishlarning g'ayrioddiylik va oldindan aytib bo'lmaydiganligiga hamda ularning matn tuzilishiga qanchalik tabiiy ravishda mos kelishiga bog'liq.

9. Komparativ frazeologik birliklarning haddan ziyod ekspressivlikda ishlatilishini ikki tomonlama aktualizatsiya va frazeologik birliklar me'yoriy muvofiqligining buzilishi deb hisoblash mumkin. Komparativ frazeologik birliklar gazeta matnining keng doiradagi rubrikalari: hordiq, sport, o'yin-kulgi va jamiyat kabilarda uchraydi hamda unda muallifning pozitsiyasi, uning muhokama qilinayotgan masalaga hissiy-baholovchi munosabatini odatda aniqroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

